

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

**K. Raximqulov, G‘. Xo‘rozov**

# **SPORT INSHOOTLARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

TOSHKENT  
«DAVR NASHRIYOTI»  
2013

UO‘K: 796.028 (075)

KBK: 75.48

R-11

*Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv metodik birlashmalar  
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan*

*Taqrizchilar:*

**Sh. Qurbonov** – *pedagogika fanlari doktori, professor;*

**A. Abdiyev** – *pedagogika fanlari doktori, professor;*

**K.M. Maxkamdjanov** – *pedagogika fanlari nomzodi, professor*

Raximqulov K.

Sport inshootlari: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / K. Raximqulov  
va boshq.; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta  
maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Davr nashriyoti» – 2013. -160  
bet.

I. Xo‘rozov G‘.

ISBN 978-9943-4092-62

Mazkur o‘quv qo‘llanma pedagogika kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan  
bo‘lib, unda sport inshootlari, ularning turlari, ularni qurish va foydalanishga  
qo‘yiladigan talablar haqida zarur nazariy bilimlar va ularni amalda qo‘llay  
bilish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Qo‘llanmada sport inshootlari  
tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ularning jismoniy madaniyat va sportni  
rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdagi ahamiyati yoritilgan.

**UO‘K: 796.028 (075)**

**KBK: 75.48ya722**

ISBN 978-9943-4092-62

© «Davr nashriyoti», 2013.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, hech bir soha mamlakatni sport kabi dunyoga tez tanita olmaydi.

Aynan shuning uchun ham mamlakatimizda mazkur soha rivojiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan, davlat dasturlari ishlab chiqilgan va ular izchillik bilan amalga oshirib kelinayapti.

Qilingan mehnatlar o'z mevasini berayotganiga esa barchamiz guvohmiz. Keyingi yillarda biror yirik xalqaro sport anjumanini mamlakatimiz sportchilari ishtirokisiz o'tmayapti. Olimpia o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari, Osiyo o'yinlari va boshqa nufuzli musobaqalarda chempion sha'niga mamlakatimiz bayrog'i ko'tarilib, davlatimiz madhiyasi chalinishiga ko'p bora guvoh bo'lib, qalbimiz iftixor tuyg'usi bilan to'lmoqda.

Mustaqillikkacha faqat sanoqli qizu o'g'lonlari xalqaro musobaqa ishtirokchisi bo'lgan o'zbek diyori endilikda nufuzli xalqaro musobaqalar mezboni bo'lishiga butun dunyo sport hamjamiyati odatlanib ulgurdi. Yuksak saviyada tashkil qilingan sport anjumanlariga tashrif buyurgan mutaxassisu sportchilar mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ishlardan hayratini yashira olmayotir.

Bularning barchasi zahirida mamlakatimizda nafaqat sport, balki sport infrastrukturasini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor, yaratilayotgan mislsiz imkoniyat va sharoitlar, barpo etilayotgan mahobatli, zamon talablariga to'liq javob bera oladigan inshootlarning aholi, ayniqsa, yosh avlod ixtiyoriga berib qo'yilgani ham sabab bo'lmoqda.

E'tiborlisi, bu inshootlar faqat poytaxtda emas, balki mamlakatimiz viloyatlari, chekka tumanlarida ham barpo etilmoqda. «Barkamol avlod», «Umid nihollari» va «Universiada» uch bosqichli sport musobaqalari o'tkazila boshlaganidan beri ularga mezbонlik qilgan viloyatlarda barpo etilgan muhtasham sport inshoot-

lari nafaqat yurtdoshlarimiz ko‘zini quvnatmoqda, balki ularning salomatligi yo‘lida xizmat qilmoqda.

Sport inshootlari sport, jumladan, ommaviy sport va jismoniy madaniyat, sog‘lom turmush tarzining moddiy-texnik asosini tashkil etadi. Sport inshootlarini barpo etmasdan, ularni takomillashtirmasdan, sportda yuqori natijalarga umid bog‘lash qiyin.

«Sport inshootlari» o‘quv fani sport pedagogikasining tarkibiy qismi sanaladi. Bunda o‘quvchi va talaba yoshlar sport inshootlari, ularning turlari, ularga qo‘yiladigan talablar kabi muhim bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.

«Sport inshootlari» fanining maqsadi o‘quvchi va talaba yoshlarga sport inshootlari, ularni qurish va foydalanishga qo‘yiladigan talablar haqida nazariy bilim berish hamda olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.

«Sport inshootlari» fanining vazifalari:

- sport inshootlarining sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni;

- mazkur fan yo‘nalishining sport pedagogikasidagi o‘rni va ahamiyati;

- sport inshootlari turlari, o‘lchamlari, ularni qurishda ishlatiladigan materiallar;

- sport inshootlaridan foydalanish qoidalari;

- sport inshootlarida xavfsizlikni ta‘minlashga qo‘yiladigan talablar va sh.k. haqida atroflicha bilim berish, amaliy ko‘nikma va malaka hosil qilish.

- Mazkur fanni o‘qish jarayonida o‘quvchilar:

- sport inshooti obyektlarini qurishga qo‘yiladigan me‘yor va talablar mosligini o‘rganishi;

- sport inshootlaridan foydalanishda zarur bo‘lgan bilim va amaliy tajribalarni egallashi;

- iqtisodiy va moliyaviy tomondan kamxarajat, oddiy sport inshootlari qurilishini amalda bilishi;

- sport inshootlarini tashkil qilish, loyihalash, qurish, moliyalashtirish va foydalanish asoslarini bilishi kerak.

«Sport inshootlari» o‘quv fanini mukammal darajada o‘zlashtirish uchun sport gigiyenasi, biomexanika, pedagogika, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kabi fanlarga oid bilimlar talab etiladi.



## SPORT INSHOOTLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Hozirgi kunda respublikamizda sport va jismoniy madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Aholi, ayniqsa o'sib ke- layotgan yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'nan barkamol qi- lib tarbiyalashda sportning ahamiyati katta. Zero sport va jismoniy tarbiya nafaqat tanani, balki ruhni, irodani tarbiyalaydi.

Jismoniy tarbiya va sport – aholi salomatligini mustahkam- lash, ishchi-xodim, o'quvchi va talabalarining ishchanlik qobili- yatini, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Aynan shuning uchun ham mazkur soha rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid qo- nun va qarorlar, boshqa me'yoriy hujjatlar va davlat dasturlari qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda.

«Jismoniy madaniyat va sport to'g'risida» O'zbekiston Res- publikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 20-yanvardagi PQ-1042 sonli «O'zbekiston Respub- likasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlan- tirish jamg'armasining 2009-yil bolalar sport inshootlari, suzish havzalari va musiqa va san'at maktablari qurilish manzilli dasturi- ni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori... Bu kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin.

Bu kabi hujjatlar ijrosini ta'minlash, muhimi, aholi o'rtasida jismoniy madaniyat va sportni, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda sport inshootlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamon talablari darajasida jihozlangan sport inshooti har bir insonda sport bilan shug'ullanishga ishtiyoq uyg'ota oladi.

Sport inshootlari bu maxsus faoliyatga mo'ljallangan ko'p qir- rali madaniy sog'lomlashtiruvchi sport majmuasi bo'lib, respub- likamizda sport maydonlari, suzish havzalari, manejlar va boshqa inshootlar o'quv mashqlar hamda ommaviy tadbirlarni o'tkazish joylariga aylangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida sport inshootlarini barpo etish umumxalq dasturiga kiritilgan.

Sport inshootlarini qurishda sport talablari e'tiborga olinadi. Inshoot, eng avvalo, o'quv jarayoniga moslashtirilgan, maxsus ventilatsiya, isitish, yoritish tizimlari, mashg'ulot jarayonida ish-

latiladigan jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Sport inshootining yechimi funksional, konstruktiv, me'moriy jihatdan uyg'unlashgan bo'lishi muhim.

Yangi sport inshootlarini barpo etishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalaniladi. Bu inshootlarda salomatlikka zarar yetkazmaydigan, aksincha, uni ta'minlashga xizmat qiladigan konstruktiv, qurilish materiallaridan foydalaniladi.

Yangi qurilgan inshootlardan to'g'ri, samarali foydalanish uchun jismoniy tarbiya va sport muammolarini yaxshi biladigan yosh mutaxassislariga ehtiyoj ko'paymoqda. Shuning uchun sport inshootlarini rejalashtirish, ularni qurishga oid talablarni mukammal egallagan kadrlarni tayyorlash zamon talabidir. Sport obyektlari va inshootlarini qurish hamda ulardan ratsional foydalanish qoidalarini sport instruktorlari, murabbiylar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, yangi sport inshootlari qurilish boshliqlari bilishi shart. Shuning uchun jismoniy tarbiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalar tayyorgarligida «Sport inshootlari» faniga alohida e'tibor berilgan.

#### **Nazorat savollari:**

1. Sport inshooti deganda nimani tushunasiz?
2. Zamonaviy sport inshootlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishda sport inshootlarining ahamiyati.

### **QADIMGI DUNYO, O'RTA ASRLAR VA YANGI DAVR SPORT INSHOOTLARI HAQIDA QISQACHA TARIXIY MA'LUMOT**

Jismoniy tarbiya va sportning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadim zamonlardan odamlar o'zlarini yovvoyi hayvonlardan himoya qilish, ov qilish va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun jismonan rivojlanishning, boshqacha aytganda, jismoniy madaniyat va sportning ahamiyatini anglab yetgan. Tosh asrida

ham odamlar sport bilan shug'ullanishgan. Hindiston, Arabiston, O'rta Osiyo va Janubiy Amerikada topilgan arxeologik qazilmalar shundan dalolat beradi. Qadim zamonlardan odamlar jismoniy tarbiyaning ahamiyatini yaxshi tushungan.

Tarixdan ma'lumki, Qadimgi Yunonistonda turli sport musobaqalari o'tkazilgan. Dastlabki olimpia o'yinlari aynan Yunoniston zaminida o'tkazilgani hammaga ma'lum. Bu musobaqalarni o'tkazish uchun har bir shaharda sport inshootlari barpo etilgan. Arxeologik qazilmalar ham buni isbotlab bergan. Masalan, Egey dengizi sohillaridagi Krit orolining Miken shahri devor qoldiqlarida har xil o'yin, mashq va tortishuvlar tasvirini ko'rish mumkin. Jismoniy mashqlardan jangchilarni harbiy-jismoniy tayyorlash uchun foydalanilgan. Gomerning «Iliada» va «Odisseya» dostonlarida (yer. old. XII-IX asr) ommaviy yugurish, kurash, mushtlashish, disk uloqtirish, kamondan o'q otish, aravada poygalar batafsil yoritib berilgan.

Yunon stadionining arenasi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uzunligi 200 m bo'lgan.


Olimpiadagi qadimiy stadionda tomoshabinlar tabiiy Kronos tog'ining tabiiy janubiy qiyaligidan joy olib, stadion arenasi esa tog' yonbag'ridagi kenglikda bo'lgan. Arena atroflarida tuproqdan tepaliklar barpo etilib, ularda ham tomoshabinlar joylashgan. Bu tribunalar taxminan 40 000 kishini o'z bag'riga sig'dira olgan.

Keyinchalik Delf (eramizgacha V asrning ikkinchi yarmida), Afina (eramizgacha IV asrning ikkinchi yarmida), Epidavr (eramizgacha IV asrning birinchi yarmida) va boshqa shaharlarda ham bunday stadionlar bunyod etildi.

**Olimpia o'yinlari** – Qadimgi Yunoniston jismoniy madaniyati rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. O'yinlar har 4 yilda muntazam ravishda **Olimpia** shahrida (1-rasm) o'tkazilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu bayramning boshlanishi eramizdan avvalgi 776-yil boshlariga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi VII asrda Olimpia mash'alasi yoqilgan va bronzadan yasalgan Ifit diski saqlangan. Diskda olimpia o'yinlarining qonun-qoidalari yozilgan.

Umumyunon olimpiada o'yinlari qarorida aytilishicha, Yunonistonning ko'pgina shaharlarida kichik miqyosda, lekin ijtimoiy-

siyosiy hayotda katta ahamiyatga ega bo'lgan o'yinlar o'tkazib turilgan. Yunonistonning bir qator shaharlarida stadion qoldiqlari topilgan.



1-rasm. Qadimgi Olimpia shahri maketi.

Qadimiy stadionlar uch davrga bo'lingan:

1. Ellenik.
2. Ellenistik.
3. Qadimiy Rim davridagi stadionlar.

**Ellenik davr.** Mustaqil davlat hisoblangan Qadimgi Yunoniston shaharlari fan, madaniyat va sport sohalarida boshqa davlatlar bilan doim raqobatlashgan. Yaxshi qo'shnichilik munosabatlari va do'stona ruhdagi musobaqalar Qadimgi Gretsiyada jismoniy madaniyat va sport rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Yunoniston stadionlari me'moriy shakli, kengligi va landshaftning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Ellenik davr stadionlari davlat ijtimoiy hayotida yetakchi rol o'ynagan. Bu davrdagi stadionlar o'rindiqsiz qurilgan.

**Ellenistik davr**dagi stadionlar ommaviy hayotda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qolaversa, ular shahar aholisi uchun tomosha ko'rsatiladigan inshootga aylangan. Stadion tribunolari uncha

katta bo'lmagan, faqat shahar aholisiga mo'ljallangan. Masalan: 1 000 000 aholi yashaydigan Milet shahridagi stadion shu shahar ichiga qurilgan.

**Qadimgi Rim.** Ko'pgina stadionlar va sport inshootlarining barpo etilishi Rim imperiyasining shakllanish davriga to'g'ri keladi (eramizning boshi). Bu vaqtda ellenik davr stadionlarining ko'pginasi qayta qurildi. Eramizning ikkinchi asrida Afina va Delfadagi stadionlarni qayta qurishga to'g'ri keldi. Musobaqa qatnashuvchilari sonining ortishi tufayli stadionlar maydoni kengaytirildi va tomoshabinlar uchun marmar tribunalar-o'rindiqlar o'rnatildi. Qadimgi Rim davridagi stadionlarning tribunolari tomoshabinlar uchun qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida yarim oy shaklida qurilgan. Bu davrdagi stadionlar me'moriy nuqtayi nazardan tugal obyektlarga aylangan. Eramizdan oldingi birinchi asr Qadimgi Rim inshooti bo'lmish amfiteatr shakllana boshlagan. Amfiteatr, o'z navbatida, zamonaviy sport arenalarining qurilishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Amfiteatr (yunonchadan amphitheatre – ikki tomonlama tomosha) ommaviy tomoshalar: teatr spektakllari ko'rsatiladigan Qadimgi Rim monumental binosi hisoblanadi. Amfiteatr – o'rtasidagi maydoni ellips shaklida qurilgan va tomoshabinlar uchun mo'ljallangan sport arenasi, undagi o'rindiqlar pastdan yuqoriga zina shaklida ko'tarilib borgan. Bu amfiteatrlar Pompey shahrida miloddan avvalgi 70-yillarda qurilgan bo'lib 15000 tomoshabinni o'z bag'riga olgan.

Butun dunyoga mashhur Rimdagi Kolizey miloddan oldingi 125-yilda qurilgan bo'lib 50 000 tomoshabinga mo'ljallangan. Kolizey avval uch yarusdan iborat bo'lib, to'rtinchi yarusi eramizning ikkinchi asrida qurib bitkazilgan. Kolizeyda dastlab hayvonlar, keyinchalik esa gladiatorlar janglari o'tkazilgan. Bu yerda, tribuna ostida, juda ko'p sonli xonalar bo'lgan. Undan tashqari, arena ostida hayvonlar uchun qafaslar va boshqa xonalar joylashgan. Kolizeydan 1km uzoqlikda qullar yashaydigan qishloq joylashgan bo'lib, u stadion arenasiga yer osti yo'li bilan tutashgan. Kolizey ustiga brezent qoplama tortilgan bo'lib, u yopiq stadiona aylantirilgan, deb taxmin qilinadi.



a)



b)

**2-rasm. Rimdagi Kolizey xarobalari: a) old tomondan koʻrinishi;  
b) ichki tomondan koʻrinishi.**

Rimning har bir yirik shahrida Kollizeyga o'xshagan stadionlar bo'lgan. Aravalar poygasiga mo'ljallangan gippodrom deb nomlangan yirik Sirkus Maksimus inshooti alohida ahamiyatga ega. Bu inshoot tribunasiga 250000 gacha tomoshabinni sig'dirgan.

Qadimgi Rimda term (hammom) inshootiga katta e'tibor berilgan. Bu suzish, cho'milish uchun mo'ljallangan yirik suv havzasi bo'lib, eramizning I va II asri oralig'ida qurilgan. Eng yirik va mashhur Dioklentana va Karakalla termi taxminan 120 000 m<sup>2</sup> maydonda joylashgan bo'lib, uzunligi 337 metr, eni 338 metrni, devorlarining qalinligi 6 metrni tashkil qilgan. Bu termlarda bir vaqtning o'zida 300 odam cho'milish, uqalash, dush, vanna qabul qilish, (sovuq, iliq, issiq) suv havzasida suzish kabi muolajalarni olish imkoniga ega bo'lgan.

Rim termlari o'zining ajoyib bezak va uskunalari bilan ajralib turadi. Bino devorlarni bezash uchun qimmatbaho marmar ishlatilgan. Rim yana suv quvurlari va isitgichlar bilan jihozlangan.

Rimda eramizning IV asridan boshlab nasroniy (xristian) dini davlat tomonidan qo'llab quvvatlana boshladi: ko'p ming sonli aholini yig'uvchi Rim tomoshalariga qarshi cherkov faol kurash olib bordi. Asta-sekin milliy madaniyatning pasayishi boshlandi, shu bilan birga jismoniy tarbiya ham inqirozga yuz tutdi. Odam tanasining madaniyati va har tomonlama rivojlanishini inkor etuvchi xristian dinining tarqalishi qadimgi olamga mansub ko'pgina yirik sport inshootlarining qonunsiz yemirilishiga sabab bo'ldi. Ayrimlari esa cherkovga aylantirildi.

**O'rta asr inshootlari.** O'rta asr boshlari jismoniy tarbiyaning butunlay pasayib ketishi bilan tavsiflanadi. Bunga sabab, avvalo, xristian dini vakillari, ruhoniylardir. Xristian dini odam tanasining madaniyati va har tomonlama rivojlanishini inkor etgan. Davlat dini bo'lishi bilan xristianlik juda ko'p stadionlar va sport inshootlari qonunsiz yemirilishiga sabab bo'ldi.

X–XI asrlarda sekin-asta sport o'yinlari va mashqlar rivojlana boshladi. Bunga XI asrda boshlangan Sharqning savdo istilosi, bordi-keldi yurishlar va ritsarlikning paydo bo'lishi sabab bo'ldi. Yurishdan bo'shagan vaqtlarda ritsarlar asosan harbiy mashqlar bajarardi va turnirlarda qatnashardi. Ritsarlar musobaqalari alohida qoidaga ega bo'lgan. Turli o'yinlar saroy hovlisida o'tkazilgan.

O'rta asrlarda jismoniy mashqlarning o'rgatilishidan asosiy maqsad ritsarlarni urushga, jangga tayyorlash edi.

**Rivojlangan feodal jamiyatda** (X-XI asrlar) sinfiy kurash ta'siri ostida xalq jismoniy madaniyati (shaharliklar va dehqonlar) va ustun turuvchi sinf jismoniy madaniyati (feodallar, ritsarlar) shakllanadi. XV-XVI asrlarda to'p o'yinlari paydo bo'ldi. O'yinlar uchun maydoncha va joylar, shaharliklar uchun sayrgohlarda, ziyolilarga xiyobonlarda har xil tomosha shoxobchalari qurildi. Bularga: Rimdagi Villa Montalno (XVI asr) suzish havzasini, Florensiyadagi Boboli bog'i amfiteatrini (XVII asr) misol qilib keltirish mumkin.

Yevropaning ba'zi mamlakatlarida nayzabozlar va to'p o'yinlari uchun zallar, kamonda o'q otish uchun maydon va maydonchalar qurilishi olib borildi. O'rta Osiyoda ham sport o'yinlari rivojlangan. Bu o'yinlarga chavondozlik, kamondan o'q uzish, kurash, ko'pkari, qilichbozlik va boshqa ko'plab sport turlarini kiritish mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Sport inshootlarini davrlashtirish haqida nima bilasiz?
2. Qadimgi Yunoniston sport inshootlari.
3. Qadimgi Rim sport inshootlari.

### **HOZIRGI ZAMON SPORT INSHOOTLARI**

Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarish va sanoatning jadal rivojlanishi yirik sport inshootlarini barpo etish imkonini berdi. XIX asrga kelib, yirik sport inshootlari qurila boshladi. Shulardan biri 1806–1807-yil qurilgan Milan katta sport arenasidir.

XIX asr o'rtalarida Yevropada katta sport zallarga ega bo'lgan binolar (vokzallar, universal magazinlar va boshqalar) qurilgan. Sport zallari va maydonlari paydo bo'lgan. Yevropaning turli mamlakatlarida ommaviy sport inshootlari qurilishi sport jamiyatlari, klublari, o'rtasida aloqa o'rnatilgan, turli mamlakatlar bilan sport aloqalari rivojlangan hamda Olimpia o'yinlari o'tkazila boshlagan davrdan, ya'ni XIX asr oxirlaridan boshlandi.



Bu davrda stadionlar, sport zallarigina emas, balki velotrekklar, trampolinlar, qishki va suv sport turlari uchun ham inshootlar qurilgan. Olimpia sport inshootlarini o'rganishda, ularga qo'yilgan asosiy texnologik talablarni tushunib, davr o'tgan sayin turli mamlakatlardagi sport inshootlarining qurilishi rivojlanib borganini ko'ramiz.

Quyida yangi davr Olimpia inshootlariga qisqacha ma'lumot beramiz.

I Olimpiada o'yinlari 1896-yilda Gretsiyaning Afina shahrida bo'lib o'tdi. Olimpiada boshlanishigacha qadimgi Afina stadioni qayta shakllangan. Biroq stadionda futbol maydoni bo'lmagan. Asosan stadion arenalarida gimnastika, yengil atletika (100, 400, 800 va 1500 m ga yugurish, 110 m ga to'siqlar osha yugurish, sakrash, disk uloqtirish) musobaqalari o'tkazilgan.



**3-rasm. Gretsiyaning Afina shahridagi «Panafiney» stadioni.**

II Olimpiada o'yinlari 1900-yilda Fransiyaning Parijdagi Bulon o'rmonida bo'lib o'tdi. II Olimpia o'yinlari ochilishiga hech qanday maxsus sport inshooti qurilmagan.

Bulon o'rmoni tekisligida faqatgina 313 m uzunlikka yugurish yo'lakchalari belgilangan bo'lib, disk uloqtirish shu o'rmonning boshqa maydonchasida bajarilgan. Hozir u esdalik sifatida temir beton to'siq bilan to'silgan.

**III** Olimpiada o'yinlari Amerikaning Sent-Luis shahrida 1904-yilda bo'ldi. Sent-Luisda ham hech qanday maxsus sport inshooti qurilmagan.

**IV** Olimpia o'yinlari 1908-yilda Angliyaning London shahrida bo'lgan. London stadioni eramizning birinchi Olimpiada stadioni hisoblanib, unga 70 000 tomoshabin sig'gan. Stadionda futbol maydoni, yugurish yo'lakchasi, velotrek, suv havzasi bo'lgan.

**V** Olimpiada o'yinlari 1912-yilda Shvetsiyaning Stokgolm shahrida o'tkazilgan. Stokgolmda juda qulay stadion qurilgan bo'lib, u bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Unda futbol maydoni va yugurish yo'lakchasi mavjud. Yugurish yo'lagi tuproq qoplamali bo'lib, start va finish chizig'idan tashqari hech qanday belgi bo'lmagan. Stadion arenasi chim o'tli qoplamadan iborat. Yadro uloqtirish joyi tuproqli bo'lib, sportchi tushadigan joyi chim o'tli qoplama bo'lgan. Langarcho'p bilan balandlikka sakrashda sportchi tushadigan chuqurlik qipiq bilan to'ldirilgan. Sakrash uchun qo'llanadigan langarcho'p bambukdan yasalgan.

**VI** Olimpiada o'yinlari 1916-yilda Germaniyaning Berlin shahrida bo'lishi kerak edi. Urush tufayli u o'tkazilmagan. Ammo nemislar Gryunevaldega stadion qurishgan. Stadiondagi futbol maydoni 120 m x 70 m, yugurish yo'lagi 600 metr, velotrek esa 660 metrni tashkil qilgan. Stadion juda noqulay bo'lganligi sababli, keyinchalik qayta ta'mirlangan.


**VII** Olimpiada o'yinlari 1920-yilda Belgiyaning Antverpen shahrida o'tgan. Antverpen stadionining uzun yoy shaklidagi tribunolari o'ziga 6000 tomoshabinni sig'dirgan. Tribunaning g'arbiy qismida tomoshabinni yomg'irdan to'suvchi moslama bo'lgan.

**VIII** Olimpiada o'yinlari 1924-yilda Parij shahrida bo'lgan. Olimpiada uchun «Kolomb» stadioni qurilgan. Stadionda 450 metrlik yugurish yo'lagi bo'lib, bu sportchilar uchun noqulay bo'lgan. Shu sababli boshqa foydalanilmagan. «Kolomb» stadioni yirik sport kompleksi bo'lib, unda asosiy sport maydoni, suzish

havzasi, tennis korti, har xil mashq va yordamchi sport inshootlari bo'lgan.

**IX Olimpiada** o'yinlari 1928-yilda Gollandiyaning Amsterdam shahrida bo'lgan. Amsterdam stadionida bosh arenadan tashqari futbol maydoni va 7000 o'rinli tennis korti, 50m x 18metrli suzish havzasi va har xil sport turlari bilan shug'ullanish uchun maydonchalar bo'lgan. Asosiy sport maydoni yonida kurash, gimnastika, qilichbozlik va boks uchun sport zallari joylashgan. Stadion hududida yengil avtomashinalar va velosipedlar uchun turish joyi ham bo'lgan. Asosiy arena tribunasiga oldiniga 40 000 tomoshabin sig'ib, undan 16 000 nafari musobaqalarni tik turib tomosha qilgan. Keyinchalik tribunadagi o'tirish joylari 60 000 ga yetkazilgan. Tribuna osti bo'shlig'iga yordamchi sport inshootlari joylashtirilgan.

**X Olimpiada** o'yinlari 1932-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining Los-Anjeles shahrida bo'lgan. **X Olimpiada** uchun juda yirik 100 000 o'rinli Los-Anjeles stadioni qurilgan. Uning arenasida 105x70 metrli futbol maydoni, atrofida 40 metr va 450 metrli yugurish yo'lagi bo'lib, asosiy maydondan tashqari ochiq suv havzasi ham qurilgan.



**4-rasm. Los-Anjeles shahridagi stadion.**

**XI** Olimpiada o'yinlari 1936-yilda Germaniyaning Berlin shahrida bo'lgan. Bu Olimpiadada Grenevald stadioni vayronasi o'rniga 100 000 o'rinli Berlin stadioni qurilgan yerda birinchi marta sopol aralashmasidan yugurish yo'lagi qurilgan. Unda D.Suens 100 m li masofani 10,2 sek yugurib o'tgan. Berlin stadioni 90 ga (gektar) maydonni egallab, unda asosiy sport maydonidan tashqari ochiq suzish havzasi, gimnastika zallari, futbol maydoni va mashq qilish maydonlari bo'lgan.

**XII** Olimpiada o'yinlari 1940-yilda Finlyandiyaning Xelsinki shahrida bo'lishi kerak edi, ammo bo'lmagan.

**XIII** Olimpiada o'yinlari 1944-yilda Angliyaning London shahrida bo'lishi kerak edi. Ikkinchi jahon urushi sababli olimpiada o'tkazilmagan.

**XIV** Olimpiada o'yinlari 1948-yilda Angliyaning London shahrida bo'lib o'tdi. Olimpiada uchun alohida stadion qurilmagan, sababi ikkinchi jahon urushi mamlakatni iqtisodiy qiyin ahvolga olib kelgan edi.

**XV** Olimpiada o'yinlari 1952-yilda Finlyandiyaning Xelsinki shahrida bo'lgan. Xelsinkiidagi Olimpiada stadioni 1940-yildan 1952-yilgacha qurilgan. Asosiy sport maydonlari tribunasiga 60 000 tomoshabin sig'gan. Sport arenasida 105x70 m li futbol maydoni, 400 metrli sopol qoplamali yugurish yo'lagi va yana ochiq suzish havzasi, katta sport zali, shug'ullanish maydonlari, yengil atletika yadrolari bo'lgan.

**XVI** Olimpiada o'yinlari 1956-yilda Avstraliyaning Melburn shahrida bo'lib o'tgan. Olimpiadagacha Melburn stadioni qayta ta'mirlangan temir-betonli tribunalarining soni 100 000 o'ringa keltirilgan. Sport maydonida uch qatorli 400 m li yugurish yo'lagi bo'lib, uning ustki qoplamasi Angliyadan keltirilgan. Ammo uning sifati uncha yuqori bo'lmagani sababli, o'yinlardan so'ng olib tashlangan.

**XVII** Olimpiada o'yinlari 1960-yilda Italiyaning Rim shahrida bo'lgan. Olimpiadagacha Rimning har bir rayonida har xil sport inshootlar, hamma sport turlari uchun komplekslar qurilib bitkazilgan. Asosiy sport maydoni tribunasiga 80 000 tomoshabin uchun o'rin bo'lib, unda 105x70 m futbol maydoni, sopol qopla-

mali 400 m li yugurish yo‘lagi joylashgan. Rim sport inshootlari-  
dan o‘zining me‘morchiligi va foydalanish jihatdan qulay bo‘lgan  
«Palatso dello Sport» va «Platsetta» larda hozirgacha turli sport  
o‘yinlari, gimnastika va boks musobaqalari o‘tkazib kelinadi.

**XIII Olimpiada** o‘yinlari 1964-yilda Yaponiyaning Tokio shah-  
rida bo‘lgan. Tokioda juda ko‘p sonli o‘ziga xos sport inshoot-  
lari qurilgan. Tokio markazida asosiy olimpiada shoxobchalari,  
asosiy stadionlar, Olimpiada bog‘i joylashib, unda yopiq maydon,  
yopiq suzish havzasi, beysbol va regbi uchun stadion bo‘lgan. Ik-  
kita yopiq universal maydonli Yoglar sport bog‘i, Olimpia sha-  
harchasidan iborat bo‘lgan. Qolgan sport inshootlari shahardan  
20 km tashqariga qurilgan. Tokio stadioni 100 000 tomoshabinga  
mo‘ljallangan.

**XIX Olimpiada** o‘yinlari 1968-yilda Meksikada bo‘lgan. Mek-  
sika Olimpiadasida musobaqalar o‘tkazish uchun 16 ta yirik kom-  
pleks va 27 ta mashq qilish uchun majmua barpo qilingan.

**XX Olimpiada** o‘yinlari 1972-yilda GFR Myunxen shah-  
rida o‘tkazilgan. Myunxen olimpiadasi shahar markazidan atigi  
4 km uzoqlikda o‘tkazilib, sport inshootlari ilg‘or texnika bilan  
ta‘minlangan.

Olimpiada o‘yinlari o‘tkaziladigan hududni shahar xiyobon-  
lari va uncha katta bo‘lmagan kanal o‘rab turardi. Olimpiada  
sport kompleksi Myunxendan bir necha yuz metr uzoqlikda edi.  
Olimpiada o‘yinlari «Olimpiada o‘yinlariga qisqa yo‘l» shiori os-  
tida o‘tkazilgan.

Myunxenliklar, Rim, Tokio va Mexiko tajribasiga asoslanib,  
ularnikidan yaxshiroq sport inshootlarini barpo qilish uchun bar-  
cha imkoniyatlarni ishga solgan. Natijada, davr talablariga to‘liq  
javob bera oladigan sport arenalari qurib bitkazilgan.

**XXI Olimpiada** o‘yinlari 1976-yilda Kanadaning Monreal  
shahrida bo‘lgan.

Bu Olimpiada uchun sport komplekslari tayyorlanib, unda har  
xil sport o‘yinlari va turlari, jumladan, futbol uchun inshootlar  
mavjud bo‘lgan. Yengil atletika, kurash, qilichbozlik, gimnastika  
zallari, suv havzalari, eshkak eshish uchun sport komplekslari  
qurib bitkazilgan.



**5-rasm. Myunxen shahridagi «Olimpia» stadioni.**



**6-rasm. Kanadaning Monreal shahridagi «Olimpia» stadioni.**

**XXII** Olimpiada o'yinlari 1980 yilda Moskvada o'tkazilgan. Olimpiada o'tkazish muddati qisqa bo'lib, uy-joy, ishlab chiqarish korxonalari qurilishi miqdorini pasaytirmasdan 70 ta olimpiada shoxobchasi qurilgan va qayta ta'mirlangan. Ulardan eng yiriklari: «Olimpiyskiy» sport kompleksi. Krilatskiy yopiq velotreki, Olimpia shaharchasi, Ostankinodagi telekompleks, Izmaylovodagi mehmonxona kompleksi. Parus sport bo'yicha olimpiada musobaqalarini Tallinda o'tkazishga yuqori darajada tayyorlik ko'rilgan. Futbol bo'yicha dastlabki tur o'yinlar Sankt-Peterburg, Minsk va Kiyev shaharlardagi stadionlarda o'tkazilgan.



**7-rasm. «Krilatskiy» yopiq velotreki.**



**8-rasm. Moskvadagi Tinchlik prospektidagi «Olimpiyskiy» sport kompleksining suzish havzasi.**

**XXIII** Olimpiada o'yinlari 1984-yil Los-Anjelesda o'tkazildi.

**XXIV** Olimpiada o'yinlari 1988-yilda Seulda o'tkazilishi e'lon qilindi. Aholi soni jihatidan jahonda oltinchi o'rinda turadigan Janubiy Koreya poytaxti Seul mamlakatning yuragi, davlatning siyosiy, moliyaviy, diplomatik, ilmiy va madaniy markazi hisoblanadi. Seulda 1981-yildan boshlab juda ko'p yangi sport inshootlari qurildi. Shu jumladan, chiroyli Olimpia stadioni qurilib ishga topshirildi. Bundan tashqari ko'p eski stadionlar qayta rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi.

1988-yildagi Olimpiada 159 mamlakatdan 9633 sportchini qabul qildi. Ular orasida O'zbekistondan ham 9 nafar sportchi bor edi. Vakillarimiz sportning 9 turi bo'yicha bellashdilar. Ularning deyarli barchasi sovrindor bo'lishdi. Tadbirlarga jami 8757 nafar jurnalist jalb qilindi.



**9-rasm. Seuldagi «Yamsil» Olimpia stadioni.**

**XXV** yozgi Olimpiada o'yinlari Ispaniyaning eng yirik shaharlaridan biri Barselonada bo'lib o'tdi. Bu shaharga 173 mamlakatdan 15,5 mingdan ortiq vakil tashrif buyurdi. Ular orasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining 654 dan ortiq vakili bor edi. Bu Olimpiadada O'zbekistondan 17 sportchi ishtirok etdi. Ular sportning 8 turi bo'yicha bellashdilar.



Ma'lumki, jahon sportchilarining mahorati kun sayin oshmoqda. Yoshlar o'rtasida sportga qiziqish o'smoqda. Xalqaro sport musobaqalari faqat sportchilar yoki mutaxassislarnigina emas, balki yirik davlatlarning ham shon-shuhratini oshirmoqda.



**10-rasm. Barselona shahridagi «Luis Kompani»  
Olimpia stadioni.**

**XXVI** Olimpia o'yinlari 1996-yilda Atlanta (AQSh) shahrida bo'lib o'tdi. Musobaqalar zamonaviy olimpiada harakatining 100 yilligiga bag'ishlandi. Bu o'yinlarni o'tkazish uchun yangi sport inshootlari ishga tushirildi. Bir necha stadionlar rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi.

AQSh ning Atlanta shahridagi Olimpia stadionida yangi asr oldi o'yinlari mash'alasi yondirildi. O't oldirish taniqli bokschi Muhammad Ali (Kassius Kley) ga topshirildi.


Olimpia o'yinlarida ba'zi noxush holatlar ro'y berdi. Terrorchilar yashirgan bombaning portlashi oqibatida bir kishi halok bo'ldi, 110 kishi jarohatlandi.

**XXVII** Olimpiada Sidneyda bo'lib o'tdi va u **XX** asrning so'nggi Olimpiadasi bo'ldi.

Avstraliyada Olimpia o'yinlari birinchi marta 1956-yili yoz davri boshida o'tkazilgan edi. Aynan shu vaziyat deyarli jahonning hamma yetakchi jamoalarining olimpia o'yinlari oldi tayyorgar-

ligi jadvalini tubdan o'zgartirishga majbur qildi. XVI Olimpiada o'yinlariga qurilgan barcha sport inshootlari qaytadan rekonstruksiya qilindi va yangi sport inshootlari qurildi.

Olimpia o'yinlari Sidneyda (Avstraliya) 2000-yilning 15-sentabridan 1-oktabrigacha o'tkazildi. Bu vaqtda ob-havo sharoitlari ham olimpia terma jamoalari uchun qulay va odatiy edi.



A)




B)

**11-rasm. Atlantadagi «Atlanta» olimpia stadioni. A) tashqi tomondan ko'rinishi. B) ichki tomondan ko'rinishi.**



**12-rasm.**Avstraliyadagi Melburn Park sport inshootining «Margaret Court Arena» tennis korti.

**XXVIII** Olimpia o‘yinlari 2004-yil 13–29-avgust kunlari Gretsiyaning Afina shahrida o‘tkazildi. Yozgi Olimpia o‘yinlari ochilish va yopilish marosimlari Afinaning «Olimpia» stadionida bo‘lib o‘tdi.



**13-rasm.** Afinadagi «Olimpia» stadioni.

Stadion 1982-yili yengil atletika bo'yicha Yevropa chempionatini o'tkazish uchun maxsus qurilgan. Olimpia stadioni avval «*Spiros Luis*» deb nomlangan. Inshoot shaharning shimoliy tomonidagi Marussi tumanida joylashgan. Stadionni qurish ishlari 1980-yili boshlanib, 1982-yili 8-sentabrda tugatilgan.

Olimpia shaharchasi 100 gektar maydonni tashkil etgan. Yangi sport inshootlari qurildi, eskilari esa ta'mirlandi.

**XXIX** Olimpia o'yinlari 2008-yil 8–24-avgustda Xitoyning Pekin shahrida o'tkazildi. Olimpia o'yinlari tarixida Pekinda o'tkazilgan olimpia o'yinlari eng ko'p xarajatli bo'ldi. Xitoy davlati faqatgina sport inshootlariga 40 milliard dollardan ortiq mablag' sarfladi. Shu vaqtgacha hech qaysi davlat bunchalik ko'p mablag' sarflamagan. Xitoy mamlakati olimpiada o'yinlarini o'tkazish uchun oldiga qo'ygan yuksak vazifani bajarishga erishdi va minglab sportchilarni qabul qilish uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etildi. Har bir qurilgan inshoot Pekinning kichik bir durdonasiga aylandi. Olimpia o'yinlari ochilish marosining texnik qismi mamlakatni so'nggi kosmik texnologiyalari asosida bajarilgan. «*Qush ini*» da o'rnatilgan olimpia chashasining mustahkamligini va chidamliligini tekshirib ko'rish uchun ham xuddi shu texnologiyalar asosida, ya'ni «*Shenchjou*» rusumidagi kosmik uskunasi testdan o'tkazilgan.



**14-rasm. Pekindagi Milliy stadion.**

**Milliy stadion** - konstruksiyasi temirdan mohirona to‘qilgani uchun «*Qush ini*» deb nomlangan, u Pekin olimpiadasi va Paralimpiada ochilish va yopilish marosimlarini o‘tkazish uchun asosiy arena bo‘lgan (14-rasm). *Olimpia shaharchasi* - 66 gektar maydonni egallab olgan. Unga Olimpiada o‘yinlari vaqtida 16 000 va Paralimpiada o‘yinlari vaqtida 7000 sportchi va delegatsiya a‘zolari sig‘adi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Zamonaviy sport inshootlari tarixi qachondan boshlangan?
2. Zamonaviy sport inshootlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Olimpia o‘yinlari uchun maxsus barpo etilgan qaysi sport inshootlarini bilasiz?

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT INSHOOTLARINING QURILISHI HAQIDA MA’LUMOT**

Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalar kabi jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Zero yurt sog‘ligi mamlakatning eng katta boyligi ekani hammaga yaxshi ayon.

Jismoniy madaniyat va sport rivojida yurtimizda ko‘plab sport inshootlari barpo etilib, foydalanishga topshirilgani hal qiluvchi omil bo‘lmoqda.

Istiqlol yillarida poytaxt Toshkentda barpo etilgan «Jar» sport majmuasi, «Yunusobod» sport majmuasi, «Bunyodkor» stadioni, «Lokomotiv» sport majmuasi zamon talablari darajasida jihozlangani xalqaro sport hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda dastlabki sport inshootlaridan sanalgan «Paxtakor» stadioni qayta ta‘mirlanib, xalqaro musobaqalar o‘tkazish uchun moslashtirildi.

Yurtimizda xotin-qizlar sportini rivojlantirishga alohida e‘tibor samarasi o‘laroq gimnastika majmuasi barpo etildi.

Bolalar va o‘smirlar sportini rivojlantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda. Barcha viloyatlarda Olimpia zaxiralari kollejlari qurildi, rekonstruksiya qilindi.

Uch bosqichli sport musobaqalari tizimi «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» bellashuvlariga mezbonlik qilgan viloyatlarda qator sport inshootlari qurilib, ta'mirlanib va rekonstruksiya qilinib, kelgusida shu viloyat bolalar va o'smirlari ixtiyoriga topshirilmoqda.

Toshkent, Buxoro, Namangan kabi viloyatlar aholisi bu musobaqalarga tayyorgarlik doirasida qurilgan sport inshootlaridan endilikda zo'r mamnuniyat bilan foydalanib kelmoqda.

#### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekistonda sport inshootlarini barpo etishga ko'rsatilayotgan e'tibor haqida gapirib bering.

2. Viloyatingiz (shahringiz) da barpo etilgan sport inshootlari haqida gapirib bering.

### **SPORT INSHOOTLARINI TOIFA VA DARAJALARGA BO'LISH**

Dunyo sport qurilishi amaliyotida sport inshootlarining yagona tasnifi yo'q. Bir qator mamlakatlarda sport inshootlarini tasnifi va toifalarga bo'lishning o'z uslublari ishlab chiqilgan.

1996-yil 26-martda sport inshootlarini aniq belgilash uchun qisqacha tavsifnomali tasnifi kiritilib tasdiqlandi. Bu yagona tasniflash yordamida sport inshootlarini tabaqalash, hisoboti va pasportizatsiyasi bajariladi. Bu sinflash asosida sport qurilmalari quyidagilarga bo'linadi:

- 1) me'yoriy-rejalashtirilgan va hajmli-konstruktiv tuzilishli;
- 2) hajmli-rejalashtirilgan tuzilishli;
- 3) kengligi hisobga olingan holda qurilgan;
- 4) ishlatilish holatiga qarab qurilgan;
- 5) shahar tipi rejasiga qarab qurilgan;
- 6) foydalanish holati va o'ziga xosligi.

**Me'moriy – rejalashtirilgan qiyofali sport inshootlari:**

- a) hajmli (kengligi);
- b) tekislikdagi inshootlarga bo'linadi.

Hajmlilariga hamma yopiq sport inshootlari: sport zallari, sport saroylari, yopiq suv havzalari va manejar kiradi.

Tekislikdagilarga sport maydonlari va maydonchalar, yengil atletika va konki otish yo'lkalari, chang'i va tog' chang'isi trasalari, kross uzunligi kiradi.

### **Hajmli – rejalashtirilgan qiyofali sport inshootlari:**

a) yopiq;

b) ochiq sport inshootlari kiradi.

Yopiq inshootlar – bu o'quv mashqlanish jarayoni va musobaqalari o'tkaziladigan yopiq zallar, manejar, basseynlar, sport saroylaridir.

Ochiq sport inshootlariga yuqoridagi aytilgan jarayonlar ochiq havoda, binodan tashqarida o'tkaziladigan inshootlar kiradi:

### **Kengligi hisobga olingan holda qurilgan inshootlar:**

a) alohida inshootlar;

b) kompleks inshootlar.

Alohida inshootlar sportning bir turi uchun mo'ljallangan inshootlardir (maxsuslashtirilgan zallar, bitta hovuzli suv havzasi, maydon va maydonchalar, yengil atletika va konkida yugurish yo'laklari, velotrekler).

Kompleks sport inshootlari bir hududda yoki bir binoda joylashgan bir necha alohida va har xil sport turlariga mo'ljallangan sport inshootlaridir (stadionlar, sport saroylari, bir necha hovuzli suv havzalari, kompleks maydonlar, ko'p zalli sport korpuslari va boshqalar).

Shahar tipi rejasiga muvofiq qurilgan inshootlar aholi yashash tarkibiga qarab rejalashtiriladi:

1) mikrotuman (kichik tuman aholisini, yashash uylari va alohida uylari) aholisiga xizmat ko'rsatuvchi;

2) tuman (yashaydigan aholisiga yoki tuman ishlab chiqarish korxonalari) aholisiga xizmat qiluvchi;

3) tumanlararo xizmat qiluvchi;

4) umumshahar (shaharni yoki posyolkani hamma aholisini) hududida xizmat qiluvchi sport inshootlari.

Foydalanish holati va maxsus belgilanishiga ko'ra qurilgan sport inshootlari quyidagilar:

a) o‘quv-sport, ya’ni faqat o‘quv-mashg‘ulot jarayoni uchun mo‘ljallangan;

b) namoyish etish uchun, ya’ni musobaqalarni tomoshabin ishtirokida o‘tkazishga mo‘ljallangan;

d) aholining faol dam olishi uchun mo‘ljallangan (bularga saylgohlar, tog‘lardagi dam olish bazalari kirib, ularda aholi bilan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish ishlari olib boriladi);

e) maxsuslashtirilgan sport inshootlari (bular davolash, sog‘lomlashtirish va bolalar bilan sport mashg‘ulotlari o‘tkazish uchun mo‘ljallangan inshootlardir).

Har bir sport inshooti tarkiban 3 bo‘linmadan tuzilgan. Muhim qismi asosiy inshoot bo‘lib, bu – jismoniy tarbiya va sport amaliy mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan inshootdir. Masalan, basketbol uchun o‘yin maydoni, xokkey uchun muzli tekislik, suzish uchun suv havzasi, sport yadrosi va boshqalar.

Qolgan ikkita bo‘lim – yordamchi va tomoshabin uchun inshootlardir. Agar sport inshooti faqat o‘quv mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, u yerda tomoshabin uchun maxsus jihozlar bo‘lmasligi kerak.

Yordamchi sport inshooti – shug‘ullanuvchi va musobaqa qatnashchilariga xizmat qiladi. Bu inshootlarga garderob, yechinish-kiyinish xonasi, dush, uqalash xonasi, uslubchilar xonasi, murabbiylar xonasi, tibbiyot xodimlari xonasi, hakamlar xonasi, sportchilar uchun yuvinish xonalari va boshqalar kiradi.

Yordamchi inshootlar tarkibiga yana asosiy sport inshootining ishlatilishini ta’minlovchi xonalar: ma’muriy, xo‘jalik (jihozlar saqlanadigan hujraxona) va texnik muhandisi xizmatchi xonalari, suv isitish va elektr ta’minoti, axborot va hisobga olish, radio va televideniye, telefon aloqalari, suvni tozalash-dezinfeksiya, muzlatish va boshqalar kiradi. Tomoshabin uchun inshoot – bunga tribunalar (o‘rnatilgan yoki qo‘zg‘atilishi mumkin bo‘lgan), skameykalar, stullar, asosiy inshoot oldida turish uchun joylar (sport yadrosi, basseyn, maydon) va xizmat ko‘rsatish xonalari (pavilonlar, foye bufetlar, qahvaxona, tibbiy xizmat xonasi va boshqalar) kiradi.

Bir tipli sport inshootlari o‘zining kattaligi bilan tabaqalarga bo‘linadi. Sport inshootlarinig **oltita tabaqasi** belgilanib, ular quyidagi ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi:



- tribunadagi joylarning soni va ochiq sport maydonlarining soni (stadionlar);
- hovuzlarning kengligi va soni;
- tribunaldagi o'tirish joylarining soni, sun'iy ravishda muzlatilgan muz joylarining soni (sport saroylari);
- ochiq va yopiq tipdagi sport inshootlari soni va sportchilar uchun yashash xonasining soni (o'quv-sport bazalari);
- chang'ilar soni (chang'i bazalarida);
- masofali mexanizatsiya bilan ta'minlangan jihozlangan tirlarning mavjudligi (o'q otish joyi);
- aylana shaklidagi oshish uchun devorlar va zovurlar (tranchealar) soni (o'q-otish ovchilik devorlari);
- katta kemalar soni (eshkak eshish bazalari, yaxtklublar va suv-motor bazalari);
- alohida inshootlar soni (kompleks maydonlarda);
- trampolin kattaligi, hisoblangan sakrash uzunligi (chang'i trampolinlarida);
- alohida sport zallarining tarkibiy soni.

### SPORT INSHOOTLARINING TURLARI

| Maxsus   |  | Kompleks  |  |
|--|--|---|--|
| ochiq  | yopiq  | ochiq   | yopiq  |
| Sport turlari bo'yicha maydonlar.<br>Futbol maydoni.<br>Regbi, chim ustida xokkey, ot sporti, kamondan o'q otish maydonlari.<br>Yengil atletika yo'lagi.<br>Ochiq suzish havzasi, o'q otish tiri va h.k. | Sport zallari.<br>Suzish havzalari.<br>Manejlar, velodromlar, O'q otish tirlari.<br>Shaxmat, shashka klublari. Tennis korti. | Stadionlar sport yadrosi, kompleks maydonlar, kompleks suzish havzalari, zamonaviy ko'p kurash, eshkak eshish kanali, yaxtklublar, suv sporti bazalari. | Yopiq stadion, Sport saroylari, Ko'p zalli sport majmualari. Kompleks binolarda universal sport zallar. Yopiq va yarim ochiq tirlar. |

#### Nazorat savollari:

1. Sport inshootlari tasnifi haqida nimalar bilasiz?
2. Sport inshootlarining toifalanishi nimalarga asoslanadi?
3. Sport inshootlari toifalari haqida gapirib bering.

## **SPORT O'YINLARI MAYDONLARINING BELGILARI VA ULARNI QURISHNI REJALASHTIRISH**

Sport o'yinlari uchun quriladigan maydonlar tekislikdagi inshootlar guruhiga kirib, ular maxsus qoplama, belgilar va jihozlarga ega. Qurilish ishlarini boshlashdan oldin, eng avvalo, o'yin maydoni joylashadigan yerning zax bo'lmashligi va u yerdagi tuproq zichligiga e'tibor qaratish hamda o'yin maydoni kengligi amaldagi sport qoidalari va o'tkaziladigan musobaqa Nizomiga muvofiq kelishi o'rganilishi kerak. Qurilish maydonining kengligi o'yin maydoni kengligidan katta bo'lib, unga xavfsizlik zonasi ham kiradi.

O'yin maydonchalari alohida va aralash joylashgan bo'lishi mumkin. Ayrim bir sport turi uchun bir necha maydoncha bir joyda joylashtirilishi mumkin.

O'yin maydonini rejalashtirish vaqtida maydonchaninig bo'yiga o'tkaziladigan o'rta chiziqqa (o'q) quyosh yorug'ligi o'yin vaqtida yon tomondan tushishini inobatga olish kerak.

Bir joyga bir necha voleybol, basketbol yoki boshqa bir turdagi maydonchalarni joylashtirish zarur bo'lib qolsa, u holda ularning faqat uchdan bir qismini ekvator chizig'i bo'ylab joylashtirish kerak.

Ko'p qavatli uylar mavjud joylarda maydonlarini uylarning sharq tomoniga maydon ekvator chizig'i bo'ylab joylashtirish mumkin. Bunda kunning har qanday vaqtida quyosh nuri o'yinga va o'yinchilarga xalaqit bermaydi.

Notekis joylarda o'yin maydonchasi qurish uchun avval ularni tekislash zarur. Tekislashda u joyning tuzilishiga, yer relyefini buzmasdan suv, suv drenajlari qurilishi hisobga olingan bo'lishi kerak.

Tekislash oldidan notekis yer kartogrammasini ishlab chiqish,  $2 \times 2$  va  $3 \times 3$  metr kvadratlarga bo'lib, qancha chuqurlikda tuproq qazib olish yoki qancha qalinlikda tuproq solish kerakligini hisoblab chiqish zarur. Har bir kvadratni tekislashdan oldin qoziqlar qoqilib, o'lchami beriladi va undan keyin ish boshlab yuboriladi.

## **SPORT O'YINLARI UCHUN QOPLAMALI MAYDONCHANING TUZILISHI**

O'yin maydonlari qoplamasi tekis, yumshoq to'pning yaxshi sakrashini ta'minlaydigan, suv o'tkazuvchan va ichkarida nam saqlaydigan, har qanday ob-havo sharoitiga chidamli hamda iqtisodiy tomondan maqbul bo'lishi kerak.

Maydonchalarning maxsus qoplamasi yer tuzilishi va ob-havo sharoitiga bog'liq bo'ladi. Loy tuproqli yerlar juda ham yomon suv o'tkazuvchan bo'ladi. Bunday yerlarda maydoncha shag'al toshlar yotqazish asosida quriladi. Agarda qumloq va yarim qumloq yerlar bo'lsa, suvni yaxshi shima olishini hisobga olib, qoplama bo'lishi mumkin.

O'yin maydonlariga yer osti suvi yaqin bo'lsa, qor-yomg'ir suvlari to'planib qolish xavfi bo'lgan taqdirda suvlarni qochirish uchun maxsus drenajlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

Yaxshi suv o'tkazuvchan qoplamalar uchun har bir tuproqdan, tabiiy va sun'iy aralashma tayyorlanadi.

Aralashma tarkibi mavjud tuproqlar, yer va ob-havo sharoitiga qarab belgilanadi. Sopol aralashma eng mustahkam va uzoq saqlanadi. Bu tennis kortlarida ko'proq ishlatiladi. Bunday qoplama to'p yaxshi sakrashi, o'z yo'nalishini o'zgartirmasligi bilan ajralib turadi.

G'isht, ohak aralashmasi mustahkam va har qanday ob-havo sharoitiga chidamlidir.

Qum, tuproq aralashmasi eng arzon va oddiy bo'lib, tez buzilishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu aralashma vaqtincha maydonlarda ishlatiladi. Ushbu aralashmani qo'l to'pi va tennis uchun yaxshilab tekislangan, ko'lmak suvlar to'xtamaydigan chim (maysa) qoplamali maydonlarda ishlatish mumkin.

Bunday maydonlar yumshoq va gigiyenik tomondan qulay bo'lib, ularni tez-tez sug'orib, o'rib turish tavsiya etiladi.

## **TABIIY TUPROQLI MAYDONCHALARNI QURISH**

Yaxshilab tekislangan maydonchada, avvalo, yer 10-15 sm chuqurlikda qazib olinadi. Yer tosh, daraxt ildizlari va boshqa

narsalardan tozalanib, loyiha belgilariga qarab yana bir bor tekislanadi. Bir vaqtning o'zida yon tomonlarda suv oqib ketishi uchun 30 sm, og'ish esa 0,001 bo'lishi kerkak.

Maydoncha atrofidagi yer sathidan 5-10 sm baland bo'lishi kerak. Tekislangan maydoncha og'irligi 200-30 kg bo'lgan katok bilan bosib chiqiladi. Bosish vaqida shablon taxtacha va nivelir bilan tekisligi tekshirib turiladi. So'nggi tekislab, bostirib chiqishda, maydoncha yaxshilab ivitiladi va quritilgandan keyin 5-7 marta katok bilan takroran bosib chiqiladi. Oxirida maydoncha yuzasiga elangan qum sepilib, katok yurgiziladi, undan keyin qum tozalab supurib tashlanadi.

Agarda maydoncha qurilishi zarur bo'lgan joy o'ta qumloq yoki loy bo'lsa, bu joyga toza tuproq yoki qumli tuproq aralashmasi 2-10 sm qalinlikda to'kilib, yaxshilab aralashtirilishi kerak, undan keyingina qurilishni boshlash mumkin.



**15-rasm. Toshkentdagi «Paxtakor» markaziy stadioni (hozirgi kundagi ko'rinishi).**

Toifaga (kategoriyaga) kirmaydigan sport inshootlari ham mavjud. Bulardan biri Janubiy Amerikadagi eng yirik futbol stadionlardan biri – Marakana 1950-yilda qurilgan. Arxitektorlar

P.P.Bastus, A.A.Dias Karneyru va boshqalar tomonidan loyihalashtirilgan. Moskvadagi yirik sport kompleksi – Markaziy stadion, Almati yaqinidagi yuqori tog‘ cho‘qqisida joylashgan Medeo muz stadioni, Moskvadagi suv sporti saroyi, Kiyev, Sankt-Peterburg, Minsk va boshqa shaharlardagi sport saroylari kiradi. Toshkentdagi «Paxtakor» stadioni shular jumlasidan.

Sport inshootlarining toifalari jismoniy tarbiya va sport qo‘mitalari tasdiqlangan ko‘rsatkichlariga mos ravishda belgilanadi. I va II toifalarni respublika sport qo‘mitalari, qolganlarini viloyat va tuman qo‘mitalari belgilaydi.

Respublikamizda hozirda xalqaro standart miqyosidagi sport inshootlari juda ko‘p qurilmoqda. Ko‘pgina sport inshootlari faqatgina shaharlarda qurilibgina qolmasdan, balki tuman va viloyat markazlari va qishloqlarda qurilmoqda. Odamlarni ommaviy jismoniy tarbiya va davolash markazlariga jamlab, yoshlarni ishga va Vatan himoyasiga tayyorlamoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Namangan, Jizzax, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlarda standartlarga javob beradigan qator sport majmualari qurildi. Toshkent shahridagi «Yunusobod», «Jar», Milliy bank, Namangan shahrida «Pahlavon», Jizzax shahridagi olimpia zaxiralari kolleji sport majmuasi va boshqalar shular jumlasidandir. 2000-yilga kelib mamlakatimizda sport inshootlari soni 7407 taga yetdi yoki 1992-yildagiga nisbatan 19 % ga ko‘paydi. Ularni bunyod etishda, ayniqsa, murakkab sport inshootlari – stadionlar, suzish havzalari, sport zallariga alohida e‘tibor berilyapti. 2003-yilda 1991-yilga nisbatan stadionlar soni 120 taga yoki 64 foizga, sport zallari 1307 taga yoki 29 foizga, suzish havzalari 162 taga yoki 142 foizga oshdi. Bundan tashqari, futbol maydonlari soni 1140 taga yoki 20 foizga, tennis kortlari esa, 475 taga yoki qariyb 3 barobarga ko‘paydi. Asosiysi, yangidan barpo etilgan yoki rekonstruksiya yo‘li bilan qayta tiklangan barcha sport sog‘lomlashtirish maskanlari zamonaviy loyihalar, sharqona uslub va yuqori samaradorlik asosida tashkil etilayotgani, barcha sport turlari bo‘yicha texnik malaka-

larni egallash imkonini beruvchi vositalar bilan jihozlanayotgani e'tiborga molik.

Sport inshootlari respublikamizning olis hududlarida ham bor. Eng ko'pi va yiriklari vatanimiz poytaxti Toshkentdadir. Toshkentdagi markaziy «Paxtakor» stadioni 1956-yili qurilgan bo'lib, 55 000 tomoshabinni sig'diradi. U yengil atletika musobaqalari o'tkazish uchun joy, katta maydon (futbol maydoni), kichik maydon, boks va qilichbozlik zallarini o'z ichiga oladi. Futbol maydoni chim qoplama bilan qoplangan. Stadionda standart talablariga javob beradigan hamma yordamchi inshootlar mavjud.

«O'zbekiston milliy banki» sport kompleksida yugurish yo'laklari va yengil atletika sektorlari bor. Stadionda musobaqa o'tkazish uchun sintetik qoplamali joylar mavjud. Voleybol va basketbol musobaqalari o'tkaziladi. Kompleksda namoyish zal-lari, boks, erkin va klassik kurash uchun ham zallar mavjud. Og'ir atletika uchun 2 ta zal bor. Ikkita suzish havzasi bo'lib, unda bittasi yopiq 25 metrli yo'lakchali, ikkinchisi 50 metrli ochiqda joylashgan bo'lib, suv isitish tarmog'i bilan bog'langan. Bu yerda yana o'q otish musobaqalari o'tkazsa bo'ladigan ixtiyoriy kattalikdagi o'q otish joyi bo'lib, zamonaviy tibbiy tiklanish markazi mavjud. Kompleksda 100 o'rinli mehmonxona ham bor.

Yana bir asosiy sport komplekslaridan biri «Yunusobod» tennis korti bo'lib, u hududi jihatidan o'rtacha kompleks hisoblanadi. U o'quv-shug'ullanish, sport tomoshalari va aholiga har xil maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalaridan iboratdir. Uning umumiy maydoni 3 gektarga teng. Sport kompleksi o'z-o'zini mustaqil qoplash hisobidagi birlashma bo'lib, u 1994-yil 28-mayda foydalanishga topshirilgan. Inshootda ochiq va yopiq sport obyektlari bo'lib, binodan tashqarida joylashgan 8 ta ochiq binoda joylashgan 2 ta yopiq kortdan iborat. Kompleksda gimnastika, og'ir atletikaga va sheypingga mo'ljallangan zallar mavjud.

Sport kompleksi rejasiga kiritilgan 120 o'rinda oshxona, do'kon, go'zallik saloni bo'lib, bunda 50 xilga yaqin maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari bor. Kompleksda «Sauna», uqalash, suv muolajalari, stomatologiya, ovoz yozish xonalari va avtoma-

shinalar turar joylari bor. Markaziy binoda shahar mehmonlari uchun mehmonxona ishlab turibdi. Kompleksning diqqatga sazovor tomoni bu tennis kortlaridir. Unda 4 ta xalqaro standartga javob beradigan kort bo‘lib, 40x20 metr o‘lchamga egadir. Qolgan 4 tasi shug‘ullanish uchun mo‘ljallangan. Markaziy kort 3000 tomoshabin sig‘dirish imkoniyatiga ega. Bino ichidagi kortlar 132 tomoshabin sig‘dirish imkoniyatiga ega. Kompleksda barcha yordamchi sport inshootlari mavjud.



**16-rasm. Toshkentdagi «Bunyodkor» sport kompleksi  
2012-yilda qurilgan.**

**Nazorat savollari:**

1. Sport inshootlarini rejalashtirishda nimalarga e‘tibor qaratiladi?
2. Sport inshootlari qoplamalari turlarini sanab bering.
3. Tabiiy tuproqli maydonchalar qurilishi haqida nimalar bilasiz?

## SPORT INSHOOTLARI NAZARIYASI

### Sport maydonlarining oriyentatsiya va konstruksiyasi hamda o'lchamlari

O'yin maydonlari kengligini aniqlashda ularning o'yin va qurilish maydoni o'lchamlarini bilish zarur. O'yin maydoni o'lchami o'yin qoidalarida asosida belgilanadi. Qurilish o'lchamlari esa, xavfsizlik zonalarini hisobiga ko'ra o'yin maydoniga nisbatan kattaroq bo'ladi. 1-jadvalda o'yin maydonlarining asosiy va qurilishi mumkin bo'lgan o'lchamlari berilgan.

O'yin maydonlari alohida yoki birlashgan holda joylashishi mumkin. Masalan, bir tekislikda bitta yoki har xil sport turlari uchun birlashgan maydonlar bo'lishi mumkin.

*1-jadval*

#### Sport o'yin maydonlarining asosiy va kiritilishi mumkin bo'lgan o'lchamlari

| Sport turi<br>bo'yicha o'yin<br>maydonlari  | O'yin maydonlarining o'lchamlari (m) |     |          |     | Osonlashtirilgan<br>qoida bo'yicha o'yin<br>maydoni o'lchami |     |
|---|--------------------------------------|-----|----------|-----|--|-----|
|   | O'yin                                |     | Qurilish |     |  |     |
|   | Uzunligi                             | Eni | Uzunligi | Eni | Uzunligi   | Eni |
| Basketbol                                   | 28                                   | 15  |          |     | 26   | 14  |
| Voleybol                                    | 18                                   | 9   | 24       | 15  | 15   | 7,5 |
| Qo'l to'pi                                  | 40                                   | 20  | 44       | 23  | 36   | 18  |
| Badminton                                   | 13,4                                 | 6,1 | 15       | 8   | 12   | 5   |
| Tennis                                      |                                      |     | 40       | 20  | 36   | 18  |
| Futbol                                      | 90                                   | 60  | 98       | 64  | 60   | 40  |
| a) qoida bo'yicha                           | 110                                  | 75  | 118      | 79  | 75   | 50  |
| b) sport yadro<br>loyihasi tipi<br>bo'yicha | 104                                  | 69  |          |     |  |     |

Sport maydonlari qurilishida shuni ko'zda tutish kerakki, o'yin vaqtida quyosh yon tomondan (uning o'rta chizig'i bo'ylab) tushishi lozim.

Shunga muvofiq, asosan kechki payt foydalaniladigan maydonlar qurilishida meridian chizig'i e'tiborga olinib, ya'ni ularning bo'y o'qi shimoldan janubga tomon tortilgan bo'lib, mumkin



bo'lgan og'ishi 15 bo'ladi. Agar sport o'yinlari bir turi uchun bir necha maydon joylashtirish zarur bo'lsa, unda hech bo'lmaganda, ularning uchtasidan bittasi ekvator chizig'i e'tiborga olingan holda quriladi.

Yuqori qavatli uylar bo'lgan tumanlarda maydonlarni uylarning sharq tomoniga va ekvator chizig'i ko'zda tutilib qurilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu maqsadda qurilgan inshootlarda quyosh kech paytda va kunduzi o'tadigan o'yinlarda ham xalaqit qilmaydi.

Voleybol va tennis maydonlari qurilishida o'rta chiziqdan yuza chizig'i tomonga nishab qilinadi. Basketbol va qo'l to'pi uchun maydonlarni rejalashtirishda o'rta bo'ylama o'qidan yon chizig'i tomon ikki nishabli qilinadi. Ammo sport maydonlarini joylashtirish bilan bog'liq holda yerning relyefiga qarab vertikal rejalashtirish o'zgartirilishi mumkin (2-jadval).

**Vertikal rejalashtirish.** Sport maydoni asosi uchun yerning notekisligidan maksimal foydalanilgan holda kerakli qiyalik tanlanadi. Yerning relyefini hisobga olgan holda sport maydonlarini qurishning bir nechta varianti berilgan.

*2-jadval*

**Sport maydonlarining qoplama konstruksiyasiga  
ko'ra sirtini nishab kattaliklari**

| Sport turlari<br>bo'yicha sport<br>maydonchalar | Qoplama turlari                       | Maksimal nishablik |                |
|---|---------------------------------------|--------------------|----------------|
|   |                                       | Uzunasiga          | Ko'ndalang     |
| Badminton va<br>voleybol                        | Suv o'tkazuvchi                       | 0,005<br>-         | -<br>0,004     |
|   | Suv o'tkazmaydigan<br>Taxta qoplamali | 0,000<br>0,000     | 0,000<br>0,000 |
|   | Suv o'tkazuvchi                       | 0,005              | -              |
| Basketbol                                       | Suv o'tkazmaydigan<br>Taxta qoplamali | 0,000<br>0,000     | 0,000<br>0,000 |
|   | Maysazor                              | 0,006<br>-         | -<br>0,008     |
|   | Suv o'tkazuvchi                       | 0,005<br>-         | -<br>0,006     |
| Qo'l to'pi                                      | Suv o'tkazmaydigan<br>Taxta qoplamali | 0,000<br>0,000     | 0,000<br>0,000 |

|              |                                |                |                |
|--------------|--------------------------------|----------------|----------------|
| Tennis       | Maysazor                       | 0,004<br>-     | -<br>0,008     |
|              | Suv o'tkazuvchi                | 0,002<br>-     | -<br>0,006     |
|              | Suv o'tkazmaydigan<br>Taxtali  | 0,000<br>0,000 | 0,000<br>0,000 |
| Stol tennisi | Suv o'tkazuvchi                | 0,010<br>-     | -<br>0,010     |
|              | Suv o'tkazmaydigan<br>Asfaltli | 0,000<br>0,000 | 0,000<br>0,000 |
|              | Taxta qoplamali                | 0,000          | 0,000          |

Variant «b» juda ko'p ish kuchi talab qiladi, chunki yer kovlash ishlari hajmi katta.

Variant «d» qulay deb hisoblanadi. Lekin «d» variantida voleybol maydoni pastlikda joylashganligi sababli zaxob suvlarini tushishi uchun drenaj sistemasi ishonchli bo'lishi kerak. Ishni boshlanishida vertikal planirovkadagi ishlar qanday olib borilishi aniqlanadi, oldin yer qazish ishlarini kartogrammasi tuziladi va qurilish maydonlari kvadratlarga bo'linib (2x2 yoki 3x3 metr) ish ko'riladi. Qoziqlar yordamida reja ipi tortilib yer tekkislanadi.

Maydonlarning qoplamalarining konstuksiyasi quyidagicha bo'ladi:

1. Tekis, zich va elastik bo'lishi shart, chunki koptokning sakrashi ta'minlanishi, suvni yaxshi shimadigan va namlikni ichida saqlaydigan bo'lishi kerak.

2. Ob-havo ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

3. Iqtisodiy tomondan ijobiy bo'lishi kerak.

Maxsus qoplamali maydonlar konstruksiyasi gidrogeologik va ob-havo sharoitlari bilan uzviy bog'liq. Suvni yomon o'tkazadigan tuproqli va soz tuproqli yerlar nobob qoplamalarga kiradi. Bu turdagi qoplamalarning ustidan shag'al yotqiziladi. Suvni yaxshi o'tkazadigan qoplamalar qum ustidan yotqiziladi va maydonchalarning konstruksiyasini soddalashtirish maqsadida pastki qatlamlarning qalinligi kamaytiriladi yoki bir qatlamli qilinadi. Maydonchalarda suv to'planib qolmasligi uchun sathi nishabli va maydon atrofi bo'yicha ariqchalar qoplangan bo'ladi. Suvni yaxshi o'tkazgan qoplamalar sun'iy yoki tabiiy qoplamalardan

tayyorlanadi. Maxsus qoplamalarning qorishma tarkibi 3-jadvalda ko'rsatilgan.

3-jadval

**Suv shimuvchan maxsus qoplamalarning qorishma tarkibi**

| Xomashyo                                | Qorishma guruhi |       |       |       |       |       |       |
|---|-----------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
|   | 1 chi           | 2 chi | 3 chi | 4 chi | 5 chi | 6 chi | 7 chi |
| 1. Yanchilgan g'isht va sopol aralashma | 90-85           | 65-70 | 60    | 70    | 40    | -     | -     |
| 2.O'rtacha maydalikdagi qum             | -               | 5-10  | 5     | -     | -     | 40-50 | 10-15 |
| 3.Qurilish chiqindilari                 | -               | -     | -     | -     | -     | -     | 50-60 |
| 4. Kukunsimon loy tuproq                | 10-15           | -     | 5     | 10    | -     | 10-15 | -     |
| 5. Sog' tuproq                          | -               | -     | -     | -     | -     | -     | -     |
| 6.Yog'li-o'simlik tuprog'i              | -               | -     | -     | -     | -     | 40-45 | 20-30 |
| 7. Ohaktosh                             | -               | -     | -     | -     | -     | -     | -     |
| 8.Yanchilgan ohaktosh                   | -               | 20    | 20    | 60    | -     | -     | -     |

**Asfalt, asfalt-rezina va bitum qoplamalar.** Yuqori qoplamali asfalt qoplamalar sportchilarning mashg'ulotlari muntazam ravishda o'tkazilmaydigan sport maydonlarida muvafaqqiyatli ishlatiladi. Asfalt-rezinali va rezino-bitumli qoplamalarning taranglik qobiliyati ularni mashg'ulot va musobaqa o'tkazish maydonlarida ishlatishga imkon beradi. Bu qoplamalar texnik xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishi talab etuvchi issiqlik usuli bilan tayyorlanadi. Asfalt va rezino-bitum qorishmasi asfalt zavodlarida tayyorlanadi. Sovuq qorishmani yotqizib, shibbalash qiyin, shu munosabat bilan yotqizilayotgan asfalt aralashma harorati 120 dan kam bo'lmasligi, rezina-bitum va asfalt-rezina aralashma harorati esa 140 dan kam bo'lmasligi kerak. Qoplamalarni shibbalash taxminan uch tonnacha keladigan maxsus g'ildirak bilan bajariladi. Bitum pasta asosli aralashmali qoplamalar o'zining tarkibi jihatidan rezino-bitum aralashmaga yaqin, lekin ular sovuq usul bilan tayyorlanadi, shuning uchun o'z kuchi bilan quriladigan (mustaqil) qurilishlarda ishlatiladi. Bitum pasta asosli qorishma maxsus tuproqli aralashma singari yotqiziladi.

## SPORT INSHOOTLARINING SHAKLI VA O'LCAMLARI

Sport inshootlari – bu maxsus qurilgan va o'z faoliyatida ko'pqirrali madaniy va sport tadbir va anjumanlari o'tkaziladigan maskandir. Zamonaviy tasavvurda sport inshootlari deganda o'quv mashg'ulotlar, turli qishki va yozgi sport turlari bo'yicha musobaqalar uchun mo'ljallangan har xil inshootlar kompleksi tushuniladi. Kompleksning asosiy inshooti **stadiondir**, ya'ni tomoshabinlar uchun mo'ljallangan tribunali asosiy sport arenasi. Tomoshabinlarning soni hamda ularga xizmat ko'rsatuvchilarga, musobaqalar, sport mashg'ulotlarining turlari va xarakteriga ko'ra stadionlarning turlari belgilanadi.

Zamonaviy stadionlarning sport arenasi bosqichma-bosqich shakllanishi jarayonida antik tuzilishiga nasbatan tarkibi va o'lchamlari jihatidan yuqori darajada takomillashdi. Bunday stadionlar standart o'lchamli radiusi 36 m bo'lgan va 400 m masofaga yugurish yo'lkasi bilan o'ralgan futbol maydonidan (104x69 metr) hamda yengil atletika uchun mo'ljallangan sektorlardan tashkil topgan.

Stadionda tomoshabinlar sig'imiga ko'ra tribunalar sport arenasining bir yoki ikki tomonida joylashadi. Ular taqasimon, oval ellipssimon yoki yopiq halqasimon formada bo'lishi mumkin.

*4-jadval*

### Suv shimmaydigan qoplamalar uchun aralashmalarning taxminiy tarkibi

| Qoplama xillari | Xomashyo   | Sport turlaridan maydonlar uchun qoplama (og'ir, % ) tarkibi |                       |        |
|-----------------|--|--|-----------------------|--------|
|                 |  | Voleybol, badminton  | Basketbol, qo'l to'pi | Tennis |
| Asfalt          | 0,6 mm li elakdan o'tkazilgan 65% dan kam bo'lmagan o'rtacha donali qum qoldig'i BN-II yoki BN-III markali bitum | 100  | 100                   | 100    |
|                 |  | 8  | 7                     | 6      |

|                    |   |    |    |    |
|--------------------|---|----|----|----|
| Asfalt-rezina      | O'rtacha donali qum   | 66 | 70 | 76 |
|                    | BN-II yoki BN-III markali bitum                                       | 15 | 13 | 11 |
|                    | 0,6 mm li elakdan o'tkazilgan 10% dan kam bo'lmagan ohaktosh qoldig'i | 22 | 20 | 18 |
|                    | 1-3 mm li fraksiyali maydalangan rezina                               | 12 | 10 | 6  |
| Bitum-pasta asosli | Ohaktosh-bitumli pasta (8 sm li konus qoldig'i)                       | 80 | 26 | 22 |
|                    | Bitum-50-55%  |    |    |    |
|                    | Ohak-8-12%  |    |    |    |
|                    | Suv-33-42%  |    |    |    |
|                    | o'rtacha donali qum   | 66 | 70 | 76 |
|                    | maydalangan g'isht yoki ohaktosh                                      | 10 | 8  | 6  |
|                    | 1-3 mm li fraksiyali rezina   |    |    |    |
|                    | maydasi   | 12 | 10 | 6  |
|                    | Tuproq bo'yog'i   | 12 | 12 | 12 |

O'lcamlariga ko'ra stadionlar quyidagi kategoriyalarga bo'linishi mumkin:

- 1500-3000 o'rindiqli kichik stadionlar.
- 2000-10 000 o'rindiqli, maydoni kamida 5-6 gektar bo'lgan o'rtacha kattalikdagi stadionlar.
- 10 000-50 000 o'rindiqli, maydoni kamida 10-15 gektar bo'lgan katta stadionlar.
- 50 000 dan ko'p o'rindiqli, maydoni kamida 20-25 gektar bo'lgan Olimpik tipidagi stadionlar.

Taxminiy sport inshootlari tizimi, tavsiya etiladigan kichik, o'rta va katta stadionlar loyihalash me'yorlarida keltirilgan.

Sport inshooti ochiq yoki yopiq tipdagi o'quv-mashqlanish joyi va har xil sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazishga mo'ljallanib qurilgan hamda jihozlangan maxsus inshootdir.

Sport inshootlarning tasnif etishda yagona terminologiyadan foydalaniladi:

1. Ochiq tipdagi alohida sport inshootlari.
2. Ochiq kompleks sport inshootlari.
3. Yopiq tipdagi alohida sport inshootlari.

#### 4. Yopiq kompleks sport inshootlari.

Ochiq holdagi alohida sport inshootlariga voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi va futbol o‘yini maydonlarini misol keltirish mumkin (yopiq holda bo‘lishi ham mumkin).

Quyidagi tekis maydonda umumiy maydoni 9 ga, tribunasi 15 000 o‘rindiqli stadionning taxminiy balansi keltirilgan.

|   |      |
|---|------|
| Stadionning umumiy maydoni                      | 100% |
| Ochiq sport inshootlari, maydonchalar va maydon | 34 % |
| Katta o‘lchamli sport inshootlari               | 12%  |
| Xizmat ko‘rsatish inshootlari                   | 1%   |
| Ichki yo‘lakchalar va tarqatuvchi maydonchalar  | 14%  |
| Ko‘kalamzorlashtirish                           | 39%  |

Maydon tanlashda bosh rejaning umumiy kompozitsiyasi stadionning umumiy kompleksiga ta’sir etadi.

### STADIONLAR TRIBUNALARI

Tribunalar, ko‘p hollarda, sport arenalari bosh rejalarida ikki yon tarafdin oval ko‘rinishli yoki oval ko‘rinishida quriladi. Bunda futbol maydoni 69x104 m, aylanma yugurish yo‘lkasi uzunligi 400 m, futbol maydoni va yugurish yo‘lkasi orasida esa ikki yengil atletika sektori joylashgan bo‘ladi. Katta stadionlardagi sport arenalarida yengil atletika mashg‘ulotlari uchun qo‘shimcha yugurish yo‘lkasining tashqi chegaralari bo‘ylab qo‘shimcha maydonchalar tashkil etiladi.

Tribunalarning sig‘imi stadionning qaysi turga mo‘ljallanganligiga qarab, 2,5 dan 100 minggacha o‘rindiqli va turish o‘rinlariga ega bo‘ladi.

Sportchilar va tomoshabinlar uchun quyidagi tribuna ostida yoki alohida binoda xonalar ajratiladi; sportchilar uchun – vestibulgrelda garderobi bilan, kiyim almashtirish, dush va hojat xonalari, massaj, tibbiyot xonasi, hakamlar va instruktorlar uchun xonalar, dam olish xonasi, bufetlar, sport anjomlarini saqlash xonalari va boshqalar;

Tomoshabinlar uchun – kassa, kuluar, hojatxona, bufet (restoran), kiosk va boshqalar;

Ma'muriy-xo'jalik xonalari – boshqaruv va muhofaza, anjomlar va boshqalar.

O'tirganda va turganda to'siq ko'rinishini ta'minlash usullari (qirqim va rejada), tribunalarining to'lishi va bo'shashida (tomoshabin – odamlarni evakuatsiya yo'llari) ularning turli konstruksiyalardan shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, tribunalarining qirqim xarakteri stadionning umumiy arxitekturaviy-fazoviy kompozitsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy stadionlarda bir qavatli tribunalar nisbatan ikki qavatli tribunalarini qo'llash odat tusiga kirmoqda.

Ikki qavatli qurilmalardan foydalanish tomoshabinlar qatorlarining sport arenasiga yaqinlashishi bilan birga, ikkinchi qavat birinchi qavatning himoya yopmasi ko'rinishida xizmat qiladi hamda ikki tomonlama yoritilganlikni va shamollatishni, shuningdek, ikkinchi qavat ostida bir qator qo'shimcha xonalarni loyihalash imkonini yaratadi. Bunda tribunalar ostidagi xonalar normal o'lchamlarga ega bo'lib, xonalardagi odamlar evakuatsiyasini kuchaytiradi, bir qavatli tribunalar ostidagi xonalarining nishab shiplarini to'g'rilash uchun ketadigan materiallar iqtisod qilinadi.

## **SPORT ARENALARIDAGI MINBARLAR TURLARI**

Ikki qavatli tribunalar arena tarafidan qaranganda, qavatlar quyuq soyalik tufayli boy plastik ko'rinishiga ega bo'ladi. Sport arenasining g'arbiy tomonida joylashgan to'g'ri bir tomonli tribunalar optimal ko'rinish sharoitida rejada turli shaklda bo'lishi mumkin. U asosan 18-20 ming o'rinli stadionlarda keng qo'llanilmoqda. Ko'p sonli tomoshabinlarni joylashtirish maqsadida to'g'ri trapetsiya yoki egri chiziqli shakldagi tribunalar qo'llanilmoqda. Bunday tribunalar 35-40 ming va undan ko'p o'rin sig'imiga ega. Ko'p hollarda uch tomonli to'g'riburchakli, taqasimon yoki egri chiziqli (oval shakliga yaqinlashuvchi) sport arenasining yon tomonidan bo'lingan tribunalar keng tarqalmoqda.

Dyusseldorf (Germaniya), Vankuver (Kanada), Pasandene (Rouzboul, Kaliforniya) shaharlaridagi stadionlar bunga misol bo'la oladi.

Uch tomonli tribunalarining yana bir turida sport arenasining g'arbiy tomonida ko'p sonli tomoshabinlar joylashtirilgan bo'lib, asosan kunning ikkinchi yarmida bo'lib o'tadigan musobaqalar vaqtida sport arenasi ko'rinishga ijobiy ta'sir etadi.

Bunday turdagi tribunalariga Izmaylovkadagi (Moskva), Mes-sindagi hamda Minsk va boshqa shaharlardagi stadionlar misol bo'la oladi.

Zamonaviy 100 ming va undan ko'p o'rinli stadionlarda ikki-uch qavatli, yopiq ko'rinishli tribunalar qo'llanilmoqda. Bundan turdagi tribunalarining rejadagi shakllari turlicha: to'g'ri, yon tomonlari qavariq, oval, doiraviy va boshqalar.

Optimal ko'rinish diagrammasida katta o'lchamli tribunalar-dagi futbol maydonidan eng uzoq nuqtada (190 metr) turgan tomoshabinlar chiqib ketishlarining maksimal qulayligi ko'rsatilgan. Ammo zamonaviy Olimpia stadionlarida chiqish uzoqligi 240-250 metrga yetib arenani tomosha qilishni faqat qurollangan ko'z bilan amalga oshirish mumkin. Bunday o'lchamlarga rejada turlicha shaklga ega bo'lgan tribunalarini kiritish mumkin.

Mexiko stadioni kabi doira ko'rinishidagi tribunalarining sig'imi 40-50 ming bo'lib, qo'shimcha tik turib tomosha qilish uchun katta miqdorda joy ajratilgan.

Ellips va S ko'rinishli zamindagi tribunalar yangi tribunalar bo'lib, Gannoverda loyihalangan zamindagi stadionda zamonaviy yechimi aks etdi. Bunda ellips ko'rinishli stadion qismi yer sirtidan chuqurda joylashtirildi, o'roqsimon qismi esa (tuproq) to'qma tepalik ko'rinishga ega bo'lib, tribunaning bu qismi sport arenasining g'arbida joylashgan. Ellipssimon tribuna 25 ming o'ringa mo'ljallangan bo'lsa, o'riksimon qismi esa 50 ming tomoshabinning tik turishi uchun mo'ljallangan.

Budapeshtdagi sport arenasi bo'ylama joylashgan stadion tribunasi taqasimon ko'rinishga ega. Tribunaning konstruksiyasi qorishiq-temir-beton va tuproqdan tashkil topgan. Bunday shakl ommaviy sport harakatlari kechayotgan maydon atrofiga ko'p sonli tomoshabinlarni (100 ming) joylashtirish ehtiyojidan kelib chiqqan. Tribunaning tashqi o'lchamlari ko'rish chegarasidan (190 m) tashqariga chiqib ketgan, 240 metr va undan ko'p masofani qurollangan ko'z bilangina tomosha qilish imkoni mavjud.



Tribunalarni rejada loyihalashtirish bevosita qirqim qurilishiga bog'langan bo'lib, ular birgalikda tribunaning konstruktiv tuzilishini va arxitekturaviy kompozitsiyasini aniqlaydi.

Quyida tribuna qirqimlari uchun xarakterli sxemalari ko'rib chiqiladi: bir quvvatli, zaminda, temir-betondan bunyod etilgan bir qavatli yopmali va yopmasiz, bir qavatli va ikki qavatli qorishiq, tuproqli va temir-betonli-yopmali va yopmasiz, ikki qavatli temirbeton va bir qavatli hamda ikki qavatli metall konstruksiya.

Zamindagi tribunalar profilining bir necha turlari mavjud:

- yer ustiga to'kma (tuproq) tribuna, orqa tomonida qiyaligi bilan yoki to'siq devorli;

- yer sathidan pastda joylashgan tribuna;

- yer ustiga qisman to'kma (tuproq) tribuna, orqa tomonida qiyaligi bilan yoki to'siq devorli nisbatan bir qismi yer sathidan pastda;


- tribunaning katta qismi yer sathidan pastda, tribunaning kichik qism-to'kma (tuproq) orqa tomonidan ikki qiyaligi yoki to'siq devorli terrasalari bilan;

Tomoshabinlar qatorlarining zamindagi tribunalardagi konstruktiv yechimlari 17-rasmda ko'rsatilgan.

Stadion tribunalarning takomillashish jarayonida ularning yangi turlari-temir-beton va zamin qorishiq tribunalari yaratilmoqda. Birinchi marta Los-Anjeles shahridagi Olimpia stadionida bu turdagi tribunalalar qurilgan (AQSh, 1932-yil). Bunda tribunaning pastki qavatı zamindagi qiyalikda, yuqori qavat esa temir-beton qurilmalardan tomoshabinlar uchun 25 qator o'rinlari bilan tashkil etilgan. Tribunalar ostida xizmat ko'rsatish xonalari joylashgan. Xuddi shunday ikki qavatli tribuna Neapol shahridagi stadionda ham qo'llanilgan bo'lib, tribunaning ikkinchi qavatı birinchi qavatı uchun himoya yopmasi ko'rinishida xizmat qiladi.

Tribunalarning to'lishi va tomoshabinlarning evakuatsiyasi luklar orqali amalga oshirilib, ular qabul qilingan o'tish joylariga qurilgan. Luklar orqali o'tish sistemasi ikki yuklama ochiq yoki bir varakay tarqalish ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bir varakay tarqalish tomoshabinlarning luklar oldida to'planishini kamaytirib, evakuatsiyani bir tekis tashkil etish imkonini beradi. Tomoshabin o'rinlarini seksiyalarga bo'lish har bir seksiyadagi qator 50

o'rindan oshmasligi va qator chuqurligi 75-80 sm bo'lishi kerak. Tomoshabin o'rini o'lchamlari: uzunligi bo'yicha 40-42 sm, eni 30-35 sm, o'rindiqning o'tish polidan balandligi 45 sm, qator oralig'idagi o'tish joyining eni 45 sm.



**17-rasm. Tomoshabinlar qatorlarining zamindagi tribunolari konstruktiv yechimlari.**

Luklarning eni 1,5 metrdan kam emas va 2,5 metrdan ko'p bo'lmasligi zarur. Luklar soni o'tkazish xususiyatlaridan kelib

chiqqan holda, ya'ni 15 000 kishidan ko'p bo'lmaslik sharti bilan belgilanadi.

Tribunalarni yuk ko'tarishga hisoblashda 1 m<sup>2</sup> ga 400 kg bosim holida qabul qilinishi zarur. Tribuna profili to'siqsiz ko'rinishni ta'minlab, bunda yengil atletika yugurish yo'lkasi ichki to'sig'ining ko'rinishi oldinda o'tirgan tomoshabin ko'ziga nisbatan orqada o'tirgan tomoshabindan kamida 15 sm pastda bo'lishi zarur. Bu o'lcham S kattaligi orqali belgilangan. Yo'lkaning egilgan tribuna-ga yaqinlashgan joylarida S kattaligini 13 sm ga kamaytirish mumkin.

Sport pavilonlari ochiq sport maydonlarini va stadion inshootlari, ochiq suv havzalari, yaxtaklublar, eshkak eshish stansiyalari, merganlik tirlari va stendlarini, shuningdek, turli sport o'yinlari uchun maydonchalarni yil davomida (voleybol, basketbol, tennis va boshqalarni) xizmat ko'rsatishi uchun mo'ljallanadi.

Pavilonlar maqsadlariga ko'ra xonalari, maydonchalari ham turlichadir. Shu sababli ularni rejalashtirishda kompozitsion usullar xilma-xil xarakterga ega.

Sodda kompozitsiyadagi sport paviloni to'g'ri to'rtburchakli shaklga ega bo'lib, binoning frontal yoki yon tarafidan ayollar va erkaklar uchun umumiy kirish qismi mavjud.

Pavilonlarni loyihalashda vestibuldan foydalanayotgan va sport zaliga tomon harakatlanayotgan sportchilar oqimining bo'linishini inobatga olgan holda ular uchun qulay harakatlanish grafigini ta'minlash kerak.

Kichik va o'rtacha kattalikdagi stadionda barcha ochiq sport maydoni va maydonchalariga xizmat ko'rsatishni qulaylashtirish maqsadida sport pavilonining markazda joylashishi maqsadga muvofiq.

Kichik sport pavilonlari uchun quyidagi xonalar tizimi nazarda tutiladi: vestibul-grelka garderoibi bilan, bufet, sanitariya gigiyena xonalari, sport anjomlari xonasi; sport zali yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xonalari bilan, xususan: ayollar va erkaklar kiyim almashtirish xonasi, dush va hojatxonalar bilan, massaj, tibbiyot xonasi, ko'rsatmalar berish, anjomlar, radiouzel, isitish va shamollatish xonasi.

Har xil, ya'ni turli kattalikdagi katta sport pavilonlari ham mavjud bo'lib, ularning xonalari tizimiga bir nechta sport zallari, suzish suv havzalari, suvga sakrash moslamalari va boshqalar kiradi. Bunday pavilonlarda sport turlari bo'yicha o'quv-mashqlar sifati yaxshilanadi va bino hamda stadion hududidan yanada unumliroq foydalanish imkoni tug'iladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Suv shimuvchan maxsus qoplama qorishmalarning tarkibi.
2. Sport inshootlarining shakli va o'lchamlari.
3. Suv shimmaydigan qoplamalar uchun aralashmalarning taxminiy tarkibi.
4. Stadionlar tribunolari.

## **XX ASRNING UNIVERSAL SPORT INSHOOTLARI**

Universal sport inshootlari sportning taraqqiy etishi natijasida va yil davomida sport turlari (gimnastika, yengil va og'il atletika, boks, sport o'yinlari, velopoygalar, xokkey, konkida figurali uchish va boshqalar) bo'yicha o'quv-mashqlarini va namoyish ishlari ni olib borilishi talablari asosida paydo bo'ldi va keng tarqaldi.

Universal sport zallari o'zgaruvchan sport arenasiga, 10-15 ming tomoshabinga mo'ljallangan tribunaga, shuningdek, mashg'ulot zallari va quyidagicha tartibdagi tomoshabin va sportchilarga xizmat ko'rsatuvchi xonalarga ega: kirish (tomoshabinlar uchun) xonalari kuluarlar, bufet, kiosk va tomoshabinlar uchun hojatxonalari; sportchilar uchun xonalar-vestibul garderobi bilan, kiyim almashtirish, dush va hojatxonalari, ko'rsatmalar berish xonalari, massaj, tibbiyot qismi, hakamlar, dam olish xonalari, bufetlar, uslubiyot xonalari va boshqalar; ma'muriy-xo'jalik-rahbariyat, xo'jalik bo'limi, kasallar, muhofaza xonasi, o'quv bo'limi, pochta va boshqalar; yordamchi qo'shimcha xonalar-sovitish moslamalari uchun, isitish, shamollatish, transformator podstantsiyasi, ustaxonalar va boshqalar.

Bu binoning arxitekturaviy-rejaviy va fazoviy kompozitsiyasi asosida hajmiy o'lchamlari sodda va tashqi ko'rinishdan aniq ifodalangan to'g'ri to'rtburchak shakldagi inshoot yotadi.

Binodan o'lchamlari 30x61 m bo'lgan sport arenasida 15 000 o'rinli tribuna, o'quv-mashg'ulot sport zali va sportchilarga hamda tomoshabinlarga xizmat ko'rsatuvchi xonalar joylashgan.

Sport arenasidan turli maqsadlarda foydalaniladi. Unda xokkey o'yinlari, gimnastika va boks bo'yicha musobaqalar, o'quv mashg'ulotlar yoki sun'iy muz ustida figurali uchish namoyishlari o'tkaziladi. Boks musobaqalarida tomoshabinlar uchun yig'ma o'rindiqlar o'rnatilishi bilan tomoshabin sig'imi 17 500 kishiga yetadi.

Zal sportchilar va tomoshabinlar uchun barcha turdagi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. Tribunalarning to'lishi va evakuatsiyasi birinchi qavatda zalni o'rab turuvchi vestibul, ikkinchi qavatda kuluvarlar yordamida amalga oshiriladi. Tribunalarda suyanichli, yondorsiz o'rindiqlar o'rnatilgan. O'rindiqning bir tomoshabin uchun eni 40 sm ko'ndalang o'tish yo'laklari orasidagi o'rinlar soni 35-50 gacha tomoshagoh qatorlari chuqurligi 75 sm. Yo'laklar orasidagi seksiyalarda 800 dan 1150 gacha tomoshabin joylashadi. Eni 1,5 m bo'lgan evakuatsiya luklariga (har 650 kishiga) evakuatsion o'tish yo'ligining 1 pogon metri to'g'ri keladi. Zalning balandligi 18 metr, qurilish kubaturasi 24800 m<sup>3</sup>, bino konstruksiyasi karkas, 6x6 m konstruktiv setkali, yig'ma temir-betondan tashkil topgan. Zalning yopma oralig'i 78 m bo'lib, metall fermalar asosida bajarilgan.

Madridagi sport o'yinlari zalining shakli to'g'ri to'rtburchakli, asosiy kirish fasadning old qismida joylashgan.

Avvalgi sxemalardan farqli o'laroq asosiy qismi bu yerda oldinga turtib chiqqan va qo'shimcha xonalar joylashgan ikki qism bilan birikadi. Tomoshabinlar uch qavatli teatr ko'rinishidagi tribunalarida joylashadilar. Zal yopmasining xosligini aytib o'tish joiz, bunda oynaband ikki qo'shma qobiq ko'rinishidagi yopma bo'yлама yo'nalishi bo'yicha o'zaro bog'langan.

## **YOPIQ SPORT SUV HAVZALARI**

Yopiq inshootning maqsadi – yil davomida mashq va namoyish ishlarida unumli foydalanish. Buning uchun suv havzasi binolarining tomonlarida darchalar ochish, ba'zi hollarda esa, tomni to'liq ochish nazarda tutiladi.

Yopiq sport suv havzalarida joylashadigan asosiy xonalar guruhi:

- sportchilar va tomoshabinlar uchun kirish xonolari (ular umumiy yoki alohida bo'lishi mumkin), vestibul, garderoblar, hojatxonalar.

- suzish uchun mo'ljallangan hovuzli zal;

- sportchilarga xizmat ko'rsatish xonolari-«quruq suzish» mashg'ulotlarini o'tkazish zali, kiyim almashtirish, dush, hojatxona va massaj xonolari, tibbiyot xonasi, anjomlar, isitkich-quritkich, ko'rsatma berish xonasi, uslubiy va boshqalar;

- tomoshabinlarga xizmat ko'rsatish xonolari-kuluarlar, bufetlar, kiosklar, hojatxonalar;

- ma'muriy xo'jalik xonolari-direktor xonasi, xo'jalik bo'limi, o'quv bo'limi, ro'yxat bo'limi, kasallar va boshqalar;

- yordamchi qo'shimcha xonalar-filtrlar, xlorator, dezinfeksiya, laboratoriya, ustaxona, omborxonalar va boshqalar.

Sport suv havzalarini loyihalashda, suzish maqsadida poyabzalsiz, sport kiyimidagi sportchilarga alohida yo'laklar e'tiborda tutilishi zarur.

Sportchilarning hovuzli zalgacha harakatlanish ketma-ketligi: vestibul va garderob, ro'yxat bo'limi, kiyim almashtirish, o'quv mashg'ulot zali (quruq suzish), hovuzli zal, kiraverishdagi dush moslamalari, hovuzli zal. Zaldan chiqish ketma-ketligi teskari tartibda amalga oshadi.

Shahar qurilish sharoitlaridan kelib chiqqan holda suv havzalarining maqsadli binolar shaharning alohida qismida, stadion hududida, kompleksning (majmuaning) boshqa sport binolarida, shahar yoki tuman oromgohida joylashishi mumkin.

Odatdagi suv havzali binolar hovuzning o'lchamlariga bog'liq ravishda to'g'ri to'rtburchakli shaklda bo'ladi.

Moskvadagi MVO va (Dinamo) sport suv havzasi binolari simmetrik ko'rinishda bo'lib to'g'ri to'rtburchak shaklida; asosiy kirish qismi binolarning qisqa yon tomonida joylashgan, shuningdek, ichki maydonga (MVO) yoki magistralga (Dinamo) orientirlangan.

Respublikamizdagi sport suv havzalarini loyihalash va qurish amaliyotida o'quv-mashg'ulot ishlari va musobaqalar o'tkazishga mo'ljallangan suv havzalari keng tarqalgan. Bu turdagi binolar-

ning kirish qismi yon tomonda joylashgan. Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi Talabalar shaharchasidagi «Suv sport saroyi» 2007-yilda ishga tushirildi.

Kirish qismining bunday loyihalanishi zalning bo'ylama uzunligi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xonalarni ratsional joylashtirish imkonini berib, ayollar va erkaklarning ikki alohida yo'nalishida harakatlanishiga erishiladi. Bu kompozitsion usul albatta shahar qurilishi talablariga va qo'shimcha xonalarni joylashtirish shartlariga bog'liq holda frontal yoki boshqa qurilmalarni inkor etmaydi.

Qurilish harakatlarini kamaytirish maqsadida sport suv havzalarini alohida binolarda yoki boshqa binolar (hammomlar, oliy o'quv yurtlari, maktablar va boshqalar) ichkarisida joylashtirish mumkin.

Katta universal 50x20 m hovuzi, sakrash qurilmasi va trampolini hamda 1000 o'rinli tribunasi bo'lgan suv havzasining iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagicha; qayta qurish maydoni taxminan 3000 m<sup>2</sup>, bino hajmi 40 000 m<sup>3</sup> atrofida, kichik suv havzasining hovuzi bilan qurilish maydoni 25x12 m va taxminan 1000 m<sup>2</sup>, bino hajmi esa 15000 m<sup>3</sup> atrofida.

Suv havzasi zalining yopmasida asosan turli yig'ma balkali yoki arkali temir-konstruksiyalar qo'llaniladi; shuningdek, plastik temir-beton qoplamalar va egri chiziqli, yupqa yig'ma armosement konstruksiyalaridan ham foydalaniladi. Zamonaviy sharoitlarda sun'iy materiallar konstruksiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini inobatga olish tavsiya etiladi.

Suv havzasining zalida joylashgan suzish, suv o'yinlari uchun mo'ljallangan hovuz va tomoshabinlar uchun tribunalar bino asosiy kompozitsiyasining yadrosi hisoblanadi. Zalni loyihalashda suv sporti qoidalariga asosan turli texnologik talablar qo'yiladi.

Hovuz turli moslamalar bilan jihozlanadi: start tumbalari, trampolinlar, turli balandliklardan sakrash qurilmalari, suvga tushish zinapoyalari suzish yo'lkasini ko'rsatuvchi cho'kmaydigan chegara moslamalari, turli belgilar va boshqalar. Sport suv havzalari maqsadli belgilanishiga qarab hovuzlar bir necha turga bo'linadi: o'zining o'lchamlari bilan ajralib turuvchi, hovuzning jihozlanishi va moslanish sohasiga ko'ra hamda uning konstruktiv xususiyatlari asosida.

## Suv havzalari o'lchamlari

| Hovuzlarning<br>ichki<br>o'lchamlari | Vazifasi         |                  | Suzish<br>yo'lkalari<br>soni | Chuqurlik, m   |  |
|--------------------------------------|------------------|------------------|------------------------------|----------------|--|
|                                      | O'quv-<br>mashq. | Sport-<br>mashq. |                              | Sayoz<br>joyda | Balanddan<br>sakrash<br>moslamasi<br>ostidagi<br>chuqurlik |
| 20x10                                | O'quv            | -                | 4                            | 1,1            | 1,8  |
| 25x10                                | Kichik           | -                | 4                            | 1,1            | 3,5-4,5  |
| 25x12,5                              |                  | -                | 5                            | 1,1            | 3,5-4,5  |
| 25x15                                |                  | -                | 6                            | 1,1            | 3,5-4,5  |
| 50x10                                | Katta            | Katta            | 4                            | 1,1            | 3,5  |
| 50x12,5                              |                  |                  | 5                            | 1,1            | 4,5-3,5  |
| 50x15                                |                  |                  | 6                            | 1,1            | 4,5-3,5  |
| 50x20                                |                  |                  | 8                            | 1,8-2          | 5-4,5  |

5-jadvalda qurilish va loyihalash amaliyotida qo'llanilayotgan suv havzalarining asosiy o'lcham qiymatlari ko'rsatilgan.

Hovuzning qisqa yon tomonlaridan suzish yo'lkalari markaz bo'yicha suv sathidan 0,75 m balandlikda start tumbalari o'rnatiladi. Tumbaning ustki qismi notekis bo'lib, suv tomonga 15% nishablikda joylashtirilgan. Rejada tumbalarning o'lchamlari 0,5x0,5 m. hovuz atrofida aylanma yo'lka mo'ljallangan bo'lib, yon tarafdagi yo'lkalarning eni 3 m bo'ladi.

Bu yo'lkalar ikki qismdan iborat: asosiy va yonlama (xususan hovuz bilan chegaradosh). Yonlama yo'lka basseyniga suvning qaytishi uchun nishablikka ega (0,0005%, eni 50 sm). Hovuzning bo'ylama uzunligi bo'ylab ikki tomonida va suv sathidan 1,2 m pastda dam olish zinasi (15 sm) bo'lib, qirralari yo'nilgan holatda bo'ladi.

## Nazorat savollari:

1. Universal sport inshootlariga qaysilar kiradi?
2. Yopiq sport suv havzalari haqida ma'lumot bering.
3. Suv havzalari o'lchamlari haqida nimalar bilasiz?



## **SPORT USKUNALARI VA ANJOMLARIDAN FOYDALANISH, ULARNI SAQLASH VA TA'MIRLASH**

O'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy sog'lom bo'lib voyaga yetishi, ularda sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni bolalikdan uyg'otish borasida yurtimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi bu borada xalq ta'limini boshqarish organlari va ta'lim muassasalari bilan birgalikda bolalarda sportga mehr uyg'otish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ongida sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy komillikka intilish kabi tushunchalarni shakllantirish, ularni salbiy ta'sirlardan himoya qilish va zararli odatlardan xalos etish, bolalarni barqaror fe'l-atvorli, Vatanga mehr-muhabbat va o'z mamlakati uchun g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash borasidagi chora-tadbirlar kompleksini muntazam amalga oshirib kelmoqda.

Ayniqsa, qisqa vaqt ichida bolalar jismoniy tarbiya va sportining moddiy texnika bazasini shakllantirish, umumta'lim maktablari qoshida va aholi yashash joylarida zamonaviy bolalar sporti komplekslari tarmog'i barpo etish, ularni zamonaviy sport uskunalari hamda anjomlari bilan jihozlash hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar taxsinga sazovordir.

Bugungi kunda mahalliy ishlab chiqaruvchilardan «Xo'jaobod», «Otabek», «Spartak mega», «Mashxim», «Slake Sity» mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, «Steklo-plastik», «Telemetrik», «Laverna servis» ochiq aksionerlik jamiyatlari, «Aziya sport S», «Shoh Akbar», «Sport Jihoz Lyux» xususiy firmalar va xususiy tadbirkor «Mirsodiqov M.M.»lar sport uskuna va anjomlari ishlab chiqarish borasida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Sport uskunalari va anjomlaridan samarali foydalanish, ularni sifatli saqlash hamda o'z vaqtida ta'mirlab turish, ta'lim muassasalari va sport inshootlari mas'ul xodimlarining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, sport uskunalari va anjomlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport murabbiylari va texnik xodim-

lar hamda o'quvchilarning o'zidan ham yusak mas'uliyatni talab etadi.

Yosh mutaxassislar pedagogik faoliyatni boshlashdanoq sport inshootlari, sport uskunalari va anjomlaridan foydalanishdagi dastlabki qiyinchiliklarga duch keladi va tajribasizligi tufayli ko'plab sport uskuna va anjomlarini yaroqsiz holatga keltiradi, ularning tez ishdan chiqishiga sababchi bo'ladi. Ba'zi holatlarda ularning tajribasizligi tufayli qimmatbaho sport uskunalari va anjomlari ishlatilmaydi, yillar davomida jihozxonalarda saqlanib yaroqsiz holatga kelishga sabab bo'ladi.

Shunga muvofiq sport inshootlari, sport uskunalari va anjomlardan foydalanish samaradorligini oshirishga bog'liq tadbirlar va ularga ta'sir etuvchi boshqa omillar hamda quyidagi ko'rsatmalarni va tavsiyalarni berish mumkin.

Murabbiy va shug'ullanuvchilar sport uskunalari va anjomlarini ehtiyot qilishlari, ularni mashg'ulotga mas'uliyat bilan tayyorlashlari va yig'ib qo'yishlari, polga zarar yetkazmasliklari uchun snaryadlarni maxsus aravachalarda tashishlari lozim.

Mashg'ulot tugagandan keyin shug'ullanuvchilar turnikning temir tayog'ini, bruslarning yog'ochlarini, halqalarning va konning tutqichlarini tozalab, to'shaklarini esa toza nam latta bilan artib qo'yishlari talab etiladi. Sport uskunalari va anjomlarini maxsus xonalarda isitish-sovitish va yoritish asboblariidan uzoqroqda saqlash lozim.

Sport uskunalari va anjomlarini rejali, jadval asosida doimiy ravishda amalga oshirishni talab etadi. Bu sport zal-laridagi va ochiq sport maydonlaridagi jihozlarni muntazam ishlashi va turli nosozliklarni o'z vaqtida aniqlab bartaraf etishiga zamin yaratadi. Mayda ta'mirlash ishlarini jismoniy tarbiya o'qituvchisi rahbarligi ostida o'quvchilarning o'zlari ham amalga oshirishlari mumkin. Ayrim hollarda mehnat o'qituvchisi yoki chilangarning yordamidan foydalanish tavsiya etiladi.

Texnik xizmat ko'rsatish kunlik, davriy va mavsumiy tartibda ko'zdan kechirish orqali amalga oshiriladi. Kundalik ko'zdan kechirish mashg'ulotlar tugagandan keyin o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'zdan kechirish davomida sport jihozining yuk va bosim tushadigan qismlarini ko'proq tekshirib chiqish lozim.

Avvalambor sport jihozining ustki qismi koʻzdan kechiriladi, soʻngra har bir qismda defektlar paydo boʻlganligi tekshiriladi. Uskunalarining chang, loy va nam joyiga (shkaflarda, javon va maxsus yasalgan anjom saqlagichlarda) toʻgʻri joylashtirilishi tekshiriladi. Koʻzdan kechirish davrida aniqlangan mayda kamchiliklarni bartaraf etish choralari koʻriladi.

Davriy koʻzdan kechirish odatda har 2-3 oyda oʻtkazilishi lozim. Bunda kunlik koʻzdan kechirishda amalga oshirilgan ishlardan tashqari murakkab detallarga maxsus moylash mahsulotlari bilan ishlov beriladi, kerosinda yuviladi va gayka, boltlarda mustahkam qilib qotiriladi. Emal boʻyoqlar bilan boʻyalgan qismlari, ayniqsa ochiq maydonlarda foydalaniladigan sport snaryadlari boʻyab qoʻyiladi.

Ushbu ishlar sport snaryadlarining qismlarini yechib olib amalga oshiriladi va yaroqsiz holga kelgan detallar ishlatilmaydi.

Mavsumiy koʻzdan kechirish jarayonida sport snaryadlarining barchasi qisman toʻliq boʻyalib, uzoq saqlanish uchun tayyorlab qoʻyiladi.

Jihozlarini taʼmirlashda, ayniqsa, yogʻoch qismlarining qotirilishiga, yelimlangan joylarini mahkam turishiga aloda eʼtibor beriladi. Taʼmirlash jarayonida duradgorlik va kazein yelimi ishlatilgan jihozlardan quruq hamda yopiq inshootlarda foydalanish va saqlash tavsiya etiladi. Ochiq joylarda va namlik quruq sport inshootlarida ishlatiladigan sport inshootlarini taʼmirlashda esa suvga chidamli, smolali yelimlardan foydalangan maʼqul.

Sport uskunolari va anjomlarini taʼmirlashda boʻyash ishlari koʻp vaqtni talab etadi. Chunki, detallarni va sport jihozini toʻliq boʻyashdan oldin uning ustki qismi tozalab tashlanadi. Tozalashda qumli qogʻoz yoki eski boʻyoqlarni qirishda qoʻl keladigan boshqa anjomlardan foydalangan maʼqul.

Sport uskunolari va anjomlarini uzoq masofalarga tashishda faqat usti yopiq transportda tashishga ruxsat etiladi. Tashish va joyidan koʻchirish vaqtida uskuna va anjomlarga qattiq urilishi yoki har xil toʻqnashuvlardan asrashi lozim. Ularni quyoshning kuchli nuri va yogʻin-sochinlardan ehtiyot qilish kerak. Uskuna va anjomlar yopiq, quruq va shamollatib turadigan binolarga 35 darajagacha boʻlgan issiqlikda, isitish-sovutish va yoritish tizimlaridan 2 metr uzoqlikda saqlanishi lozim.

To'plarni havo to'ldirmasdan uzoq vaqt saqlash mumkin emas. Ularni belgilangan atmosfera bosimida to'ldirib maxsus javonlarda saqlangani ma'qul. Havo to'ldirilmagan yangi to'plarda vaqt o'tishi bilan taram-taram yoriqlar paydo bo'lib foydalanish uchun yaroqsiz holga kelib qoladi. To'plarni saqlash xonalaridan mashg'ulot, musobaqa joyiga olib borishda yerda dumalatib, tepib, asfalt, beton qoplangan yerlarga urib olib borish taqiqlanadi. Ularni maxsus to'r xaltalarga solib, ikki-uch kishi ko'tarib olib borgani ma'qul.

Ko'p miqdordagi to'plarni uzoq masofaga tashishda usti yopiq transportlarda quyosh nuridan, yomg'ir-qordan ehtiyot qilib olib borish lozim. To'plarni transport yuk xonasidan benzin, spirt, bo'yoq, bitum va erituvchi suyuqliklar bilan birga tashishga yo'l qo'ymaslik kerak. Shuningdek, to'plarga tekkan bo'yoq, bitum va shunga o'xshash boshqa yopishqoq narsalarni olib tashlashda ham benzin, spirt, erituvchi suyuqliklardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Yuqorida bilidirilgan tavsiyalar asosida foydalanishga topshirilayotgan zamonaviy sport inshootlarini, asbob-uskunalar va anjomlarni ko'p yillar mobaynida xizmat qilishi uchun ularni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash barchamizning burchimiz hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Sport anjomlari turlarini sanab bering.
2. Sport anjomlari ishlab chiqaruvchi mashhur firma va kompaniyalardan qaysilarini bilasiz?
3. Sport anjomlaridan foydalanishda nimalarga e'tibor berish lozim?

## **ILOVALAR**

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, «O‘zstandart» agentligining 2009-yil 28-sentabrdagi 39, 43, 335, 83, 94, 4-P-son qaroriga 1-ILOVA**

### **1-TIP. BOLALAR SPORT INSHOOTINING JIHOZLASH ME’YORI**

| O'yinlar soni  | Sport anjomlari nomi    |  | Sport anjomlariga bo'lgan ehtiyoj | Foydalanish vaqti |
|--|-------------------------|--|-----------------------------------|-------------------|
| Futbol maydoni   |                         |  |                                   |                   |
|                              | 32 | Tennis korti to'ri                   | 1 dona     | 1 yil |
|                              | 33 | Tennis to'ri uchun tirgak            | 2 dona     | 5 yil |
|                              | 34 | Katta tennis to'plari                | 30 dona    | 1 yil |
|                              | 35 | Katta tennis raketkasi               | 20 dona    | 2 yil |
|                              | 36 | Tennis to'ri uchun fon               | 1 komp.    | 5 yil |
|                              | 37 | Tennis uchun hakamlar vishkasi       | 1 dona     | 5 yil |
|                              | 38 | Tennis to'pini iring'ituvchi moslama | 1 dona     | 5 yil |
| Basketbol uchun maydoncha    | 39 | Raketkaning sozlash moslamasi        | 1 dona     | 5 yil |
|                              | 40 | Basketbol ustuni                     | 1 juft     | 5 yil |
|                              | 41 | Basketbol shiti                      | 1 juft     | 5 yil |
|                              | 42 | Daha uchun to'r                      | 6 juft     | 6 oy  |
|                              | 43 | Basketbol to'pi                      | 15 dona    | 6 oy  |
|                              | 44 | Sekundomer                           | 2 dona     | 5 yil |
| Tennis stoli uchun maydoncha | 45 | Aylanib o'tish ustunlari             | 5 dona     | 5 yil |
|                              | 46 | Tennis stoli                         | 8 komp     | 5 yil |
|                              | 47 | Tennis stoli uchun raketka           | 32 juft    | 1 yil |
|                              | 48 | Varaqlama tablo                      | 10 dona    | 5 yil |
|                              | 49 | Tennis stoli uchun to'pchalar        | 400 dona   | 1 oy  |
|                              | 50 | Tennis stoli uchun to'r              | 16 dona    | 1 yil |

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Madaniyat  
va sport ishlar vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,  
Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, «O‘zstandart»  
agentligining 2009-yil 28-sentabrdagi 39, 43, 335, 83, 94,  
4-P-son qaroriga 6-ILOVA**

**REKONSTRUKSIYA QILINGAN BOLALAR SPORT  
INSHOOTINING JIHOZLASH ME’YORLARI**

| O‘yinlar soni  | Sport anjomlari nomi    |  | Sport anjomlariga bo‘lgan ehtiyoj | Foydalanish vaqti |
|--|-------------------------|--|-----------------------------------|-------------------|
| Futbol maydoni   |                         |  |                                   |                   |
| Sport yadrosi futbol maydoni bilan voleybol, basketbol o‘yinlari uchun maydoncha, yugurish yo‘laklari va balandlikka sakrash, uzunlikka sakrash, yadro uloqtirish, disk, granata va nayza otish mashqlari uchun yengil atletika sektorlari | 1.                      | Futbol to‘pi                           | 25 dona                           | 6 oy              |
|  | 2                       | Futbol to‘ri                           | 2 juft                            | 1 yil             |
|  | 3                       | Futbol darvozasi                       | 2 dona                            | 5 yil             |
|  | 4                       | Burchak bayroqlari                     | 8 dona                            | 2 yil             |
|  | 5                       | Aylanib o‘tish ustunlari (fishka)      | 20 dona                           | 5 yil             |
|  | Yengil atletika sektori |  |                                   |                   |
|  | 6                       | Yengil atletika nayzasi                | 10 dona                           | 2 yil             |
|  | 7                       | Yengil atletika yadrosi                | 25 dona                           | 4 yil             |
|  | 8                       | Yengil atletika granatasi              | 25 dona                           | 2 yil             |
|  | 9                       | Yengil atletika diskasi                | 25 dona                           | 2 yil             |
|  | 10                      | Yengil atletika baryeri                | 25 dona                           | 3 yil             |
|  | 11                      | Yengil atletika start kolodkasi        | 10 komplekt                       | 4 yil             |
|  | 12                      | Sekundomer                             | 3 dona                            | 5 yil             |
|  | 13                      | Meditinbol (1,2,3 kg)                  | 15 dona                           | 1 yil             |
|  | 14                      | Uzunlikka sakrash markeri              | 1 dona                            | 5 yil             |
|  | 15                      | Balandlikka sakrash «yamasi»           | 1 komplekt                        | 5 yil             |
|  | 16                      | Balandlikka sakrash ustuni va plankasi | 1 komplekt                        | 4 yil             |
| 17   | Ruletka                 | 3 dona                                 | 5 yil                             |                   |



|   | <b>O‘yinlar maydonchasi</b> |   |            |       |
|---|-----------------------------|---|------------|-------|
|   | 18                          | Basketbol ustuni  | 2 juft     | 5 yil |
|   | 19                          | Basketbol shiti   | 2 juft     | 5 yil |
|   | 20                          | Basketbol tablosi 24 sek                                | 1 dona     | 5 yil |
|   | 21                          | Halqa uchun to‘r  | 12 juft    | 6 oy  |
|   | 22                          | Aylanib o‘tish ustunlari (fishka)                       | 10 dona    | 5 yil |
|   | 23                          | Mashq uchun basketbol shiti                             | 6 dona     | 5 yil |
|   | 24                          | Basketbol to‘pi   | 30 dona    | 6 oy  |
|   | 25                          | Universal nasos   | 4 dona     | 5 yil |
|   | 26                          | Sekundomer  | 3 dona     | 5 yil |
|   | 27                          | Shaxmat soati   | 4 dona     | 5 yil |
|   | 28                          | Voleybol ustuni   | 4 komplekt | 5 yil |
|   | 29                          | Trosli voleybol to‘ri                                   | 2 dona     | 2 yil |
|   | 30                          | Voleybol antennasi                                      | 4 dona     | 2 yil |
|   | 31                          | Voleybol to‘pi  | 20 dona    | 6 oy  |
|   | 32                          | Voleybol uchun hakamlar vishkasi                        | 1 dona     | 5 yil |
| <b>Tribuna va tribuna tagidagi joy (bino)</b> |                             |   |            |       |
|   | 33                          | Gimnastika to‘shamasi                                   | 30 dona    | 3 yil |
|   | 34                          | Umum jismoniy tayyorgarlik uchun trenajyorlar komplekti | 2 komplekt | 5 yil |
|   | 35                          | Turli trenajyorlar                                      | 4 dona     | 5 yil |
|   | 36                          | Turli og‘irlikdagi gantellar                            | 10 dona    | 5 yil |
|   | 37                          | Gimnastika skameykasi                                   | 24 dona    | 5 yil |

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Madaniyat  
va sport ishlar vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,  
Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, «O‘zstandart»  
agentligining 2009-yil 28-sentabrdagi 39, 43, 335, 83, 94,  
4-P-son qaroriga 7-ILOVA**

**UMUMTA’LIM MAKTABLARINING SPORT  
ZALLARINI JIHOZLASH**

| Sport anjomlari nomi |                                 | O‘lchov<br>birligi | Sport anjomlariga<br>bo‘lgan ehtiyoj | Foyda-<br>lanish vaqti |
|----------------------|---------------------------------|--------------------|--------------------------------------|------------------------|
| 1                    | Aptechka                        | Komplekt           | 1                                    | 5 yil                  |
| 2                    | Gimnastika eshagi               | Dona               | 1                                    | 5 yil                  |
| 3                    | To‘siqli gimnastika oti         | Dona               | 1                                    | 5 yil                  |
| 4                    | Tayanib sakrash uchun ot        | Dona               | 1                                    | 5 yil                  |
| 5                    | Gimnastika skameykasi           | Dona               | 6                                    | 5 yil                  |
| 6                    | Turnik                          | Komplekt           | 1                                    | 5 yil                  |
| 7                    | Parallel bruss                  | Dona               | 1                                    | 5 yil                  |
| 8                    | Gimnastika yakka to‘sini        | Dona               | 1                                    | 5 yil                  |
| 9                    | Gimnastika depsinish ko‘prigi   | Dona               | 2                                    | 5 yil                  |
| 10                   | Gimnastika halqasi              | Juft               | 1                                    | 5 yil                  |
| 11                   | Tirmashib chiqish arqoni        | Dona               | 2                                    | 3 yil                  |
| 12                   | Shved narvoni                   | Dona               | 6                                    | 5 yil                  |
| 13                   | Gimnastika to‘shamasi           | Dona               | 14                                   | 3 yil                  |
| 14                   | Turli og‘irlikdagi gantellar    | Dona               | 30                                   | 5 yil                  |
| 15                   | Gimnastika gardishi             | Dona               | 30                                   | 3 yil                  |
| 16                   | Gimnastika tayog‘i              | Dona               | 30                                   | 5 yil                  |
| 17                   | Sekundomer                      | Dona               | 2                                    | 5 yil                  |
| 18                   | Yengil atletika start kolodkasi | Dona               | 5                                    | 4 yil                  |
| 19                   | Futbol to‘pi                    | Dona               | 20                                   | 6 oy                   |
| 20                   | Basketbol to‘pi                 | Dona               | 20                                   | 6 oy                   |
| 21                   | Voleybol to‘pi                  | Dona               | 20                                   | 6 oy                   |
| 22                   | Gandbol to‘pi                   | Dona               | 20                                   | 1 yil                  |
| 23                   | Voleybol ustuni                 | Komplekt           | 2                                    | 5 yil                  |
| 24                   | Nasos                           | Dona               | 2                                    | 5 yil                  |
| 25                   | Shaxmat soati                   | Dona               | 2                                    | 5 yil                  |
| 26                   | Basketbol shiti                 | Dona               | 2                                    | 5 yil                  |
| 27                   | Shaxmat                         | Komplekt           | 10                                   | 5 yil                  |
| 28                   | Shashka                         | Komplekt           | 10                                   | 4 yil                  |
| 29                   | Tennis stoli                    | Komplekt           | 6                                    | 5 yil                  |

|    |                                     |      |     |       |
|----|-------------------------------------|------|-----|-------|
| 30 | Tennis stoli uchun shariklar        | Dona | 150 | 1 oy  |
| 31 | Armrestling stoli                   | Dona | 1   | 6 oy  |
| 32 | Turli og'irlikdagi toshlar (giryra) | Dona | 6   | 5 yil |

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat va sport ishlar vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, «O'zstandart» agentligining 2009 yil 28 sentabrdagi 39, 43, 335, 83, 94, 4-P-son qaroriga 8-ILOVA**

**KOLLEJ VA AKADEMIK LITSEYLARNING SPORT ZALLARINI JIHOZLASH ME'YORI  
KOLLEJ VA AKADEMIK LITSEYLARNING UMUMIY XARAКTERI**

| Sport anjomlari nomi |                               | O'lchov birligi | Sport anjomlariga bo'lgan ehtiyoj | Foydalanish vaqti |
|----------------------|-------------------------------|-----------------|-----------------------------------|-------------------|
| 1                    | Basketbol to'pi               | Dona            | 15                                | 6 oy              |
| 2                    | Gimnastika sakrog'ichi        | Dona            | 15                                | 3 yil             |
| 3                    | Nasos                         | Dona            | 3                                 | 5 yil             |
| 4                    | Sekundomer                    | Dona            | 5                                 | 5 yil             |
| 5                    | Hushtak                       | Dona            | 5                                 | 3 yil             |
| 6                    | Varaqlama tablo               | Dona            | 2                                 | 5 yil             |
| 7                    | Futbol to'pi                  | Dona            | 15                                | 6 oy              |
| 8                    | Fishka                        | Dona            | 20                                | 5 yil             |
| 9                    | Voleybol to'pi                | Dona            | 15                                | 6 oy              |
| 10                   | Meditinbol                    | Juft            | 15                                | 1 yil             |
| 11                   | Gandbol darvozasi va to'ri    | Komplekt        | 2                                 | 5 yil             |
| 12                   | Voleybol ustuni               | Komplekt        | 1                                 | 5 yil             |
| 13                   | Voleybol to'ri va antennasi   | Dona            | 2                                 | 2 yil             |
| 14                   | Tennis stoli uchun shariklar  | Dona            | 15                                | 1 oy              |
| 15                   | Gimnastika to'shamasi         | Dona            | 20                                | 3 yil             |
| 16                   | Gimnastika depsinish ko'prigi | Dona            | 2                                 | 3 yil             |
| 17                   | Gimnastika bulavasi           | Dona            | 20                                | 5 yil             |
| 18                   | Gimnastika oti                | Dona            | 2                                 | 2 yil             |
| 19                   | Parallel bruss (erkak, ayol)  | Dona            | 2                                 | 5 yil             |

|    |  |          |    |       |
|----|--|----------|----|-------|
| 20 | Ko'zgu                                 | Dona     | 1  | 5 yil |
| 21 | Tirmashib chiqish arqoni               | Dona     | 1  | 3 yil |
| 22 | Gimnastika gardishi                    | Dona     | 20 | 3 yil |
| 23 | Gimnastika tayog'i                     | Dona     | 30 | 5 yil |
| 24 | Gandbol to'pi                          | Dona     | 15 | 1 yil |
| 25 | Katta tennis raketkasi                 | Dona     | 2  | 2 yil |
| 26 | Kurashish aylanasi                     | Dona     | 10 | 5 yil |
| 27 | Kurashish nimchasi                     | Dona     | 30 | 5 yil |
| 28 | Suv polosi to'pi                       | Dona     | 10 | 1 yil |
| 29 | Balandlikka sakrash ustuni             | Komplekt | 1  | 4 yil |
| 30 | Marra tasmasi                          | Komplekt | 1  | 3 yil |
| 31 | Bayroqcha                              | Dona     | 4  | 3 yil |
| 32 | Velotrenajyor                          | Dona     | 2  | 5 yil |
| 33 | Estafeta tayogchasi                    | Dona     | 10 | 3 yil |
| 34 | Balandlikka sakrash ustuni             | Dona     | 2  | 4 yil |
| 35 | Uzunlikka sakrash markeri              | Dona     | 2  | 5 yil |
| 36 | Ruletka                                | Dona     | 4  | 5 yil |
| 37 | Yengil atletika granatasi              | Dona     | 20 | 2 yil |
| 38 | Yengil atletika baryeri                | Dona     | 10 | 3 yil |
| 39 | Tatami                                 | Komplekt | 1  | 5 yil |
| 40 | Turli trenajyorlar                     | Dona     | 2  | 5 yil |
| 41 | Turli og'irlikdagi gantellar           | Dona     | 20 | 5 yil |
| 42 | Turli og'irlikdagi toshlar (giry)      | Dona     | 10 | 5 yil |
| 43 | Balandlikka sakrash ustuni o'lchagichi | Dona     | 1  | 3 yil |
| 44 | Futbol to'ri                           | Juft     | 2  | 1 yil |
| 45 | Voleybol uchun hakamlar vishkasi       | Dona     | 1  | 5 yil |
| 46 | Akrobatika yo'lakchasi 2x16, 5x12      | Dona     | 1  | 5 yil |
| 47 | Turnik                                 | Dona     | 1  | 5 yil |
| 48 | Gimnastika skameykasi                  | Dona     | 10 | 5 yil |
| 49 | Tirmashib chiqish arqoni               | Dona     | 1  | 3 yil |
| 50 | Gimnastika gilamchalari                | Dona     | 30 | 5 yil |
| 51 | Erkin mashqlar uchun to'shama          | Dona     | 1  | 5 yil |
| 52 | Tennis stoli                           | Komplekt | 4  | 5 yil |
| 53 | Yaxtak (milliy kurash)                 | Dona     | 20 | 3 yil |
| 54 | Kimono (kurash)                        | Dona     | 20 | 3 yil |
| 55 | Maneken                                | Dona     | 5  | 5 yil |
| 56 | Suzish ko'zoynagi                      | Dona     | 20 | 1 yil |
| 57 | Suzishga o'rgatish doskasi             | Dona     | 20 | 3 yil |

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Madaniyat  
va sport ishlar vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,  
Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, «O‘zstandart»  
agentligining 2009-yil 28-sentabrdagi 39, 43, 335, 83, 94,  
4-P-son qaroriga 9-ILOVA**

**KOLLEJ VA AKADEMIK LITSEYLARNING SPORT  
ZALLARINI JIHOZLASH ME’YORI  
KOLLEJ VA AKADEMIK LITSEYLARNING UMUMIY  
XARAKTERI**

| Sport anjomlari nomi   |   | O‘lchov<br>birligi | Sport<br>anjomlariga<br>bo‘lgan<br>ehtiyoj | Foyda-<br>lanish<br>vaqti |
|------------------------|---|--------------------|--|---------------------------|
| <b>Yengil atletika</b> |   |                    |  |                           |
| 1                      | Balandlikka sakrash ustuni  | Kompl.             | 1  | 4 yil                     |
| 2                      | Balandlik o‘lchagichi   | Dona               | 1  | 3 yil                     |
| 3                      | Sekundomer  | Dona               | 1  | 5 yil                     |
| 4                      | Ruletk  | Dona               | 2  | 5yil                      |
| 5                      | Balandlikka sakrash plankasi  | Dona               | 4  | 4yil                      |
| 6                      | Yengil atletika baryeri   | Dona               | 10   | 3yil                      |
| 7                      | Yengil atletika yadrosi, nayzasi,<br>granatasi, diskasi               | Dona               | 5  | 4yil                      |
| 8                      | Katta tennis to‘plari   | Dona               | 10   | 1 oy                      |
| 9                      | Marra tasmasi   | Dona               | 1  | 3 yil                     |
| 10                     | Start va marra uchun bayroqchalar                                     | Dona               | 2  | 3 yil                     |
| 11                     | Yengil atletika nayzasi, granatasi va<br>yadro uloqtirish maydonchasi | Dona               | 1  | 5 yil                     |
| <b>Gimnastika</b>      |   |                    |  |                           |
| 12                     | Gimnastika skameykasi   | Dona               | 6  | 5 yil                     |
| 13                     | Gimnastika to‘shamasi   | Dona               | 10   | 3yil                      |
| 14                     | Parallel bruss (erkak, ayol)  | Dona               | 1  | 5 yil                     |
| 15                     | Turnik (baland, past)   | Dona               | 2  | 5 yil                     |
| 16                     | Gimnastika halqasi  | Juft               | 1  | 5 yil                     |
| 17                     | Gimnastika eshagi   | Dona               | 1  | 5 yil                     |
| 18                     | To‘siqli gimnastika oti   | Dona               | 1  | 5 yil                     |
| 19                     | Tayanib sakrash uchun ot  | Dona               | 1  | 5 yil                     |
| 20                     | Gimnastika depsinish ko‘prigi   | Dona               | 1  | 5 yil                     |
| 21                     | Gimnastika yakka to‘sig‘i   | Dona               | 2  | 5 yil                     |
| 22                     | Gimnastika tayog‘i  | Dona               | 36   | 5 yil                     |
| 23                     | Gimnastika gardishi   | Dona               | 36   | 3yil                      |

|                           |   |        |    |       |
|---------------------------|---|--------|----|-------|
| 24                        | Gimnastika bulavasi                                 | Dona   | 36 | 2yil  |
| 25                        | Gimnastika sakrog'ichi                              | Dona   | 24 | 3yil  |
| 26                        | Rezina qoplamali yugurish yo'laklari                | Kompl. | 1  | 5 yil |
| 27                        | Tirmashib chiqish arqoni                            | Dona   | 1  | 3yil  |
| 28                        | Turli og'irlikdagi gantellar                        | Kompl. | 3  | 5 yil |
| 29                        | Ko'zgu 12x2   | Dona   | 1  | 5 yil |
| 30                        | Akrobatik gilami                                    | Dona   | 1  | 5 yil |
| <b>Sport o'yinlari</b>    |   |        |    |       |
| 31                        | Futbol to'pi  | Dona   | 15 | 6 oy  |
| 32                        | Basketbol to'pi                                     | Dona   | 15 | 6 oy  |
| 33                        | Gandbol to'pi (erkak, ayol)                         | Dona   | 10 | 1 yil |
| 34                        | Voleybol to'pi                                      | Dona   | 15 | 6 oy  |
| 35                        | Trosli voleybol to'ri                               | Dona   | 2  | 2 yil |
| 36                        | Basketbol to'ri                                     | Kompl. | 4  | 6 oy  |
| 37                        | Gandbol to'ri                                       | Juft   | 1  | 1 yil |
| 38                        | Futbol to'ri  | Juft   | 1  | 1 yil |
| 39                        | Hushtak   | Dona   | 4  | 3 yil |
| 40                        | Futbol, gandbol darvozasi                           | Kompl. | 1  | 5 yil |
| 41                        | Basketbol shiti                                     | Kompl. | 2  | 5 yil |
| 42                        | Basketbol halqasi                                   | Kompl. | 2  | 5 yil |
| 43                        | Kegli   | Dona   | 14 | 5 yil |
| 44                        | Kubik   | Dona   | 16 | 3 yil |
| 45                        | Nasos   | Dona   | 1  | 5 yil |
| 46                        | Bayroqchalar  | Dona   | 14 | 3 yil |
| 47                        | Shtutser (igna)                                     | Dona   | 6  | 3 yil |
| 48                        | Sekundomer  | Dona   | 1  | 5 yil |
| 49                        | Hisob va vaqt tablosi (basketbol, voleybol, futbol) | Dona   | 3  | 5 yil |
| 50                        | Ruletka   | Dona   | 1  | 5 yil |
| 51                        | Voleybol ustuni va antenasi                         | Kompl. | 1  | 5 yil |
| 52                        | Tennis stoli  | Kompl. | 4  | 5 yil |
| 53                        | Tennis stoli uchun to'r                             | Dona   | 4  | 1 yil |
| 54                        | Tennis stoli uchun raketka                          | Juft   | 4  | 1 yil |
| 55                        | Tennis stoli uchun to'pchalar                       | Dona   | 30 | 1 yil |
| 56                        | Hisob va vaqt tablosi                               | Dona   | 4  | 3 yil |
| 57                        | Voleybol uchun hakamlar vishkasi                    | Dona   | 1  | 5 yil |
| <b>Harakatli o'yinlar</b> |   |        |    |       |
| 58                        | Kegli   | Dona   | 10 | 5 yil |
| 59                        | Kichkina va o'rta to'plar                           | Dona   | 15 | 6 oy  |
| 60                        | Kubik   | Dona   | 20 | 3 yil |
| 61                        | Gimnastika gardishi                                 | Dona   | 8  | 3 yil |

|                                      |                                      |       |    |       |
|--------------------------------------|--------------------------------------|-------|----|-------|
| 62                                   | Bayroqchalar                         | Dona  | 12 | 3 yil |
| 63                                   | Gimnastika sakrog'ichi               | Dona  | 8  | 3 yil |
| 64                                   | Meditinbol (3 kg)                    | Dona  | 5  | 1 yil |
| 65                                   | Gimnastika skameykasi                | Dona  | 4  | 5 yil |
| 66                                   | Basketbol, voleybol, futbol to'plari | Dona  | 3  | 6 oy  |
| 67                                   | Gandbol to'pi                        | Dona  | 1  | 1 yil |
| 68                                   | Gimnastika to'shamasi                | Dona  | 6  | 3 yil |
| 69                                   | Gimnastika tayog'i                   | Dona  | 10 | 5 yil |
| 70                                   | Estafeta tayog'i                     | Dona  | 6  | 5 yil |
| 71                                   | Yengil atletika baryeri              | Dona  | 6  | 3 yil |
| 72                                   | Tirmashib chiqish arqoni             | Dona  | 2  | 3 yil |
| 73                                   | Hushtak                              | Dona  | 1  | 5 yil |
| 74                                   | Shved narvoni                        | Dona  | 4  | 5 yil |
| <b>Turizm</b>                        |                                      |       |    |       |
| 75                                   | Zambil                               | Dona  | 4  | 5 yil |
| 76                                   | Arqon (25 metr)                      | Dona  | 2  | 3 yil |
| 77                                   | Arqon (50 metr)                      | Dona  | 2  | 3 yil |
| 78                                   | Ryukzak                              | Dona  | 40 | 5 yil |
| 79                                   | Durbin                               | Dona  | 4  | 5 yil |
| 80                                   | Voleybol to'pi                       | Dona  | 4  | 6 oy  |
| 81                                   | Shaxmat                              | Komp. | 14 | 5 yil |
| 82                                   | Shashka                              | Komp. | 14 | 4 yil |
| 83                                   | Uxlash qopi                          | Dona  | 10 | 5 yil |
| <b>Suzish</b>                        |                                      |       |    |       |
| 84                                   | Qutqarish nimchasi                   | Dona  | 6  | 5 yil |
| 85                                   | Qutqarish aylanasi                   | Dona  | 6  | 5 yil |
| 86                                   | Tumba                                | Dona  | 4  | 5 yil |
| 87                                   | Suzish ko'zoynagi                    | Dona  | 30 | 1 yil |
| 88                                   | Hushtak                              | Dona  | 1  | 5 yil |
| 89                                   | Sekundomer                           | Dona  | 1  | 5 yil |
| 90                                   | Suzish shapkasi                      | Dona  | 30 | 3 yil |
| <b>Milliy kurash va yakka kurash</b> |                                      |       |    |       |
| 91                                   | Kurashchilar gilami 12x12            | Dona  | 1  | 5 yil |
| 92                                   | Mashq manikeni                       | Dona  | 1  | 5 yil |
| 93                                   | Kimono                               | Dona  | 6  | 3 yil |
| 94                                   | Sekundomer                           | Dona  | 1  | 5 yil |
| 95                                   | Turli og'irlikdagi gantellar         | Komp. | 3  | 5 yil |
| 96                                   | Gimnastika to'shamasi                | Dona  | 14 | 3 yil |
| 97                                   | Tarozi                               | Dona  | 1  | 5 yil |
| <b>Sport hakamligi</b>               |                                      |       |    |       |
| 98                                   | Sekundomer                           | Dona  | 1  | 5 yil |

|     |                   |       |   |       |
|-----|-------------------|-------|---|-------|
| 99  | Hushtak           | Dona  | 1 | 5 yil |
| 100 | Ruletk            | Dona  | 1 | 5 yil |
| 101 | Ball ko'rsatkichi | Komp. | 2 | 5 yil |

## **SPORT MAYDONLARINING TEXNOLOGIK CHIZMASI**

Sport maydonlarining texnologik chizmasida sport turlariga mo'ljallangan maydonlarining ko'rinishi va o'lchamlari, bundan tashqari o'yin maydonlarining qoplamalari tuzilishi va qanday bo'lishi kerakligi ifodalanadi. Maydonlarni tuzilishini va o'lchamlarini aniqlash maqsadida sport maydonlari chizmalari berilgan. Sport o'yin maydonlari, asosan, to'g'ri to'rtburchak, ochiq yoki yopiq ko'rinishida bo'ladi. O'quv mashqlarining jarayoni va har xil sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazishga mo'ljallanib qurilgan hamda jihozlangan sport inshootlari bilan tanishib chiqamiz.


### **BASKETBOL MAYDONI**

Basketbol maydoni maxsus yer uchastkasida rejalashtirilib, to'g'ri to'rtburchak shaklida, alohida yotqizilgan (yog'ochli yoki sintetik, rezina-bitum va tuproqqa), maxsus belgili va mos ravishda jihozlangan bo'ladi. O'yin maydoni 28x15 m bo'lib, ichki chiziqlardan o'lchanadi va uzunasiga tortilgan yon chiziq deyiladi. Boshqa zonalar esa kontinental va milliy musobaqalarda quyidagicha: 4 m yon chiziq va 2 m yuz chiziq qisqaroq bo'lishi mumkin. Yangi qurilgan o'yin maydonlari 28x15 m bo'lishi shart. Agar yopiq holdagi maydon bo'lsa, poldan shipgacha bo'lgan balandligi 7 metrdan kam bo'lmasligi kerak. O'yin maydoni tekis va yaxshi yoritilgan va yoritkichlar o'yinchilarga xalaqit bermasligi kerak. O'yinchilarga yaxshi ko'rinishi uchun maydonni chegaralovchi chiziqlar qalinligi 5 sm bo'lishi hamda maydon bir tekislikda yotishi lozim. Maydonni chegaralovchi chiziq tashqarisida undan 2 m uzoqlikda yana bir chiziq tortilib, bu oraliq xavfsizlik zonasi deyiladi.

Maydon o'rtasidan markaziy chiziq va aylana tortilgan bo'lib, aylana radiusi 180 sm ga teng. Aylana o'lchamli tashqi



chizig'igacha o'lchanadi. Markaziy chiziq va yuza chiziqqa parallel holda tortilib, yon chiziqni kesib, 0,15 m tashqariga davom ettirilgan bo'ladi.



**18-rasm. Basketbol maydoni.**

Halqa balandligi 3,05m, temirdan tayyorlangan: xomashyo: temir, ustun rangi ochiq, yorqin ranglar, ustun balandligi – 3,9 – 4,1m, basketbol ustunlari GOST 62-91-86 va xavfsizlik texnikasi barcha talablariga javob berishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Basketbol o'yin maydon o'lchamlari qanday?
2. Basketbol shitining balandligi qanday?
3. Basketbol to'pining og'irligi qancha?

Technical drawing of a rectangular structure, likely a floor plan or layout, showing dimensions and internal layout.

**Overall Dimensions:**

- Width:  $15\text{ m}$
- Height:  $24\text{ m}$

**Internal Layout and Dimensions:**

- The structure is divided into a central rectangular area and a surrounding gray-shaded border.
- The central area is further divided into four horizontal sections by three horizontal lines.
- The width of the central area is  $9\text{ m}$ .
- The width of the gray-shaded border on the left and right sides is  $3\text{ m}$  each.
- The height of the central area is  $18\text{ m}$ .
- The height of the gray-shaded border at the top and bottom is  $3\text{ m}$  each.
- A small square feature is located on the left side of the central area, with a width of  $0,5\text{ m}$ .
- Two circular features (possibly doors or windows) are located on the left and right sides of the central area, each with a diameter of  $0,5\text{ m}$ .

86

Maydon o'lchamlari. Maydon to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'yin maydoni uzunligi 18 metr, eni 9 metr bo'lishi kerak. Maydon tashqarisida birinchi chiziqdan 3 metr uzoqlikda yana bir chiziq tortilib, bu oraliq xavfsizlik zonasi deyiladi. Shuning hisobiga qurilish o'lchami 24x15 metr bo'ladi. Xavfsizlik zonasi ochiqda joylashgan maydonda 3 metr, yopiqdagida esa 2 metr bo'ladi. Soddalashtirilgan qoidaga muvofiq 15x7,5 metrni tashkil etadi. Maydonni chegaralovchi chiziqlar maydon bilan bir tekislikda bo'lib, chiziqlar eni 5 sm bo'ladi. Uzunasiga tortilgan chiziq-yon chiziq, eniga, ya'ni ko'ndalangiga tortilgan chiziq-yuz yoki yon chiziq deb ataladi. Maydon o'rtasida ikkita yon chiziqqa tutashgan o'rta chiziq o'tadi.

U maydonni ikkiga bo'lib turadi. Har bir maydonchada o'rta chiziqdan 3 metr uzoqlikda o'rta chiziqqa parallel yana bir chiziq o'tib, bu oraliq-hujum zonasi deb ataladi. Hujum zonasi chizig'ida orqa yuz chiziqqacha 6 metr oraliq-himoya zonasi deb ataladi.

Voleybol maydoni quyidagi jihozlar bilan ta'minlanadi.


**To'r.** O'rta chiziq ustida maydonga ko'ndalang tortiladi, uzunligi 9,5 metr, eni 1 metr katakchalarining o'lchami 10x10 sm bo'ladi. Balandligi o'yinchilarning jinsi va yoshiga qarab, ya'ni: erkak guruhi uchun - 2,43 sm; ayollar guruhi uchun -2,24 sm bo'ladi. To'r kanop yoki ipak ipidan to'qilgan yo'g'onligi 5 mm bo'ladi.

**To'p.** To'p yumaloq bo'lib, aylanasi  $66\pm 1$  sm, og'irligi  $270\pm 10$  g, charmdan yasalgan.

#### Nazorat savollari:

1. Voleybol o'yin maydonining o'lchamlari qanday?
2. Voleybol to'lining balandligi qanday?
3. Voleybol to'pining og'irligi qancha?

## FUTBOL MAYDONI




20-rasm. Futbol maydoni.

Maydon o'lchami. O'yin o'tkaziladigan maydon to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uzunligi 90 m dan 120 m gacha va eni 45 m dan 90 metrgacha bo'lishi ko'zda tutilgan. Xalqaro musobaqalarda o'yin o'tkaziladigan maydon uzunligi 100 m dan 110 m gacha va eni 64 m dan 75 m gacha bo'lishi kerak. Maydon uzunligi har doim uning enidan katta bo'lishi tavsiya etiladi. Maydonni chegaralovchi chiziqlar kengligi 12 sm dan ortiq bo'lmasligi, aniq ko'rinib turishi va maydon bilan bir tekislikda yotishi shart.

Maydonning uzunasiga chizilgan chiziqlar- yon chiziqlar, maydonning ko'ndalangiga chizilgan chiziqlar esa darvoza chiziqlari deyiladi. Maydon o'rtasida uning eniga tortilgan chiziqlar o'rta chiziq bo'lib, undan maydon markazi belgilanadi. Maydon markazi belgisidan radiusi 9 m li aylana chiziladi. Chiziqlar o'lchami maydon o'lchamiga kiradi.

Darvozabon maydoni. Darvoza ustunlar ichidan darvoza chizig'i bo'ylab uning ikki yon tarafiga 16,5 m uzoqlikda nuqta belgilanib, darvoza chizig'i perpendikular qilib maydonga 16,5 m li chiziq tortilib, ikkalasi tutashtiriladi. Hosil bo'lgan maydon jarima maydoni deyiladi. Darvoza chizig'idan 2 m uzoqlikda darvoza qarshisida penalti to'p tepish joyi belgilanib shu yerdan 9 m li radiusda jarima maydoni chizig'i ustiga yarim aylana chiziladi. Maydonning har 4 ta burchagi ichidan radiusi 1 m bo'lgan yon chiziqlari chiziladi. Bu burchak sektorlari deyiladi.



21-rasm. Futbol maydoni darvozasi.

Darvoza chizig'i o'rtasida darvoza chizig'i o'rnatilib, uzunligi 7,32 sm balandligi 2,44 sm bo'ladi. To'sin va ustunlari to'g'ri

to'rtburchak shaklida ularning kesishmasi 12x12 sm ni tashkil qiladi.

Maydon usti tekis, chimli qoplama bilan qoplangan ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

Futbol maydonidan suvni oqib chiqib ketishi uchun markaziy qismdan chegara chizig'i tomon qiyaliklar qilinadi.

Futbol maydoni qurilishi quyidagicha olib boriladi: chuqurligi 30-40 sm xandaq kovlanadi. Xandaq tubi shag'al tosh bilan to'ldiriladi va zaxob suvlar ariqchalaridan tashkil topgan tarmog'i yotqiziladi.

Zaxob suvlar tushadigan ariqchalar tubidan chuqurligi 25-30 sm xandaqlar qilinadi. Ular bir-biridan 17-18 m oraliqda quvurdan aylanib chiqib ketadigan qilib o'rnatiladi.

Maydon qatlami atmosfera suvlarini tabiiy shimib olsa bunday joylarda zaxob suv quvurlari tarmog'i qurilmaydi. Agarda suv shimmaydigan yer bo'lsa, uning asosiga qalinligi 6-8 sm yirik daryo qumli qatlam qoplanadi va uning ustiga qalinligi 10-15 sm li tuproqli qatlam yotqiziladi. Ikkala qatlam yengil g'altak mola bilan shibbalanadi.

## **FUTBOL MAYDONINING CHIM QOPLAMASI**

Futbol maydonining chimli qoplamasiga unumdor tuproq qatlamining qalinligi 15-20 sm bo'lishi kerak.

Urug' sepishga qadar unumdor tuproq solinib va tekislangandan so'ng o't urug'i sepilgunga qadar maydonni kamida 15 kun davomida tuproqli yer bir tekis sekin-sekin cho'kish va yakuniy tekislanish ishlarini amalga oshirish uchun to'xtatib turiladi.

Futbol maydoniga o't urug'ini ekish uchun tanlashda, joyning tabiiy sharoitini hisobga olish kerak (iqlim, tuproq). Yaxshisi, bu masala bo'yicha mahalliy tajribali agronomdan maslahat olish lozim.

Aralash o't urug'ini maydonning 1 m<sup>2</sup> ga 20 g dan sepish hisobga olingan holda olib boriladi.

Urug' ekishdan avval, maydon usti xaskash bilan tekislanadi va og'irligi 200 kg keladigan g'altak molada shibbalanadi.

Avvalo, po'sti qattiq urug'lar maydonning bo'y va eniga sepiladi. Urug' ekilgan maydon xaskash bilan tekislanadi va yana xuddi o'sha g'altak mola yurg'iziladi.

Urug' sepidan avval o'simlik tezroq o'sishi uchun tez ta'sir etuvchi o'g'itlar solinadi (sulfat ammiak, super fosfat). Butun maydonning yuzasiga 400-450 kg o'g'it solish talab qilinadi.

Lekin, o'g'itning navi qancha va qancha miqdorda solish kerak kabi savollarga javob olish uchun mahalliy agronom bilan maslahatlashish maqsadga muvofiqdir.

Maydonga ekilgan urug' unib chiqquncha tuproq namligini saqlab turish lozim. Sug'orish tadbirlari suvni purkash orqali amalga oshiriladi.

*6-jadval*

| T.r. | Urug'lar nomi          | Foizda |     |     |     | Aralashmalar |     |     |     |
|------|------------------------|--------|-----|-----|-----|--------------|-----|-----|-----|
| 1    | Qo'noq o't             | -      | 15  | -   | 15  | 20           | 20  | 10  | 10  |
| 2    | Qizil boshqli o'simlik | -      | 25  | 40  | 50  | 50           | 25  | -   | 25  |
| 3    | Boshqli o't            | 70     | 10  | 50  | 15  | 15           | 20  | 20  | -   |
| 4    | Yaylov reygrasi        | 30     | 40  | -   | 10  | 10           | 15  | 15  | 20  |
| 5    | Oq beda                | -      | 10  | 10  | 10  | 5            | -   | 15  | 10  |
| 6    | Oq dala kuchqoroq      | -      | -   | -   | -   | -            | 10  | 15  | 10  |
| 7    | Tulki quyruq o'ti      | -      | -   | -   | -   | -            | 10  | -   | -   |
| 8    | Boshqli o't            | -      | -   | -   | -   | -            | -   | -   | -   |
| 9    | Qiltiqsiz yaltirbosh   | -      | -   | -   | -   | -            | -   | 15  | 15  |
|      | Jami:                  | 100    | 100 | 100 | 100 | 100          | 100 | 100 | 100 |


Maydonda yosh chimli qoplama qalinligi kamida 5 sm bo'lgandagina o'ynash mumkin. Futbol maydoniga ekiladigan o't urug'lari aralashmasining tarkibini 6-jadvalda ko'rish mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Futbol o'yin maydon o'lchamlari qanday?
2. Futbol darvozasining o'lchamlari qanday?
3. Futbol to'pining og'irligi qancha?

## QO‘L TO‘PI MAYDONI

Maydon o'lchami. Qo'l to'pi maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uzunligi 38 m dan 44 m gacha va eni 18 m dan 22 metrgacha bo'ladi. Optimal o'lchami 40x20 m, maydonni chegara-  
lovchi chiziqlar 5 m kenglikda bo'lib, maydon bilan bir tekislikda yotadi.



**22-rasm. Qo‘l to‘pi maydoni.**



Uzunasiga tortilgan chiziqlar - yon chiziqlar, ko'ndalangiga tortilgan chiziqlar - yuz chiziqlar deyiladi.

Darvoza yuz chiziq o'rtasiga mahkam qilib o'rnatilib, eni 3 m, balandligi 2 m (ichki tarafdin o'lchanganda) bo'ladi. Usti va to'siqlar yog'ochdan to'g'ri to'rtburchak shaklida ishlanib, kesmasi 8x8 sm bo'ladi. Darvozabon maydonini belgilash uchun yuz chiziqqa parallel ravishda 6 m uzoqlikda 3 m li uzunlikda chiziq chizilib, darvoza ikkala ustunining ichki burchagidan 6 m radiusli yarim aylana 3 m li chiziqqa tutashtiriladi.

Shu maydon darvozabon maydoni deyiladi. Darvozabon maydoni tashqarisida undan 3 m uzoqlikda shu maydon tashqarisida undan 3 m uzoqlikda shu maydon chizig'iga parallel holda yana bir uzun chiziq chiziladi. Bu erkin to'p otish zonasi deyiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qo'l to'pi o'yin maydoni o'lchamlari qanday?
2. Qo'l to'pi darvozasining o'lchamlari qanday?
3. Qo'l to'pi to'pining og'irligi qancha?

### **TENNIS MAYDONI**


To'p uzatish va o'yin maydoni 23,77x10,97 m maydondan iborat. O'yin maydoni yaqinida hakam uchun 1,83-2,15 m balandlikda o'rindiq (ayvoncha) o'rnatiladi. O'rindiq mustahkam, yengil ko'chiriladigan, gorizontal, tirsak qo'yadigan yondori va hakam qog'oz qo'yib yozib borishi uchun ko'ndalang ochiluvchi plankadan tashkil topadi.

Tennis maydoni jihoziga quyidagilar kiradi:

- A) ikki ustun orasiga tortiladigan to'r;
- B) to'p balandligini rostlash uchun maxsus asbob;
- D) maydonning yon tomoniga balandligi kamida 3 m bo'lgan to'r tortiladi (to'siq sifatida).

Tennis maydoni ustki qismini qoplash uchun maxsus aralashma quyidagicha tarkibda bo'ladi:

1. Maydalangan kukunga o'xshash tuproq.....15-25%
2. Qum.....40-45%
3. Elangan qurilish chiqiti.....35-40%



**23-rasm. Tennis maydoni.**

#### **Nazorat savollari:**

1. Tennis maydoni o'lchamlari qanday?
2. Tennis maydonida to'rning balandligi qanday?
3. Tennis raketkasining og'irligi qancha?
4. Tennis maydoni qoplama turlari haqida nimalar bilasiz?

#### **Tennis stoli**



**24-rasm. Tennis stoli jihozlari va anjomlari.**

O'yin uchun maydon o'lchami 12 x 6 metr, xalqaro uchrashuvlar o'tkazish uchun 14 x 7 metr o'lchamdagi maydonda o'tkazish mumkin. Pol qoplamasi elastik bo'lishi kerak. Yorug'lik tarmog'i poldan 4 metr balandlikda bo'lishi kerak. O'yin stoli yorug'lik me'yori 400 LK bo'lishi kerak.

**Tennis stoli** - uchun qalinligi 3 sm bo'lgan ko'chma tayanchli yoki ko'chmas stol tayyorlanadi. Stol sirti shar yaxshi sakrash uchun sillik va tekis bo'lishi kerak. Stol o'lchamlarining uzunligi 274 sm, kengligi 152,5 sm va balandligi 76,4 sm, to'r uzunligi 183 sm, balandligi 15,25 sm, chiziqlar oq rangda, qalinligi 1,5 sm va stolning o'rta chizig'i 30 mm ni tashkil qiladi. To'q-zangori to'r stolni teng ikkiga bo'lib turadi.

**To'p** – oq sarg'ish rangda bo'lib, selluloid yoki plastinkadan tayyorlanib, 11,43–12,70 sm va og'irligi 2,4–2,5 g bo'ladi.

**Raketka** – yog'ochdan tayyorlanadi. Agar raketka tekisligi maksimum 2 mm qalinlikdagi oddiy g'adir-budur (пупырчатый) rezina yoki umumiy qalinligi 4 mm dan kam bo'lmagan, ustki qavati teshik-teshik, g'adir - budur rezina tortilgan («sandvin» qoplangan) bo'ladi. Qoplama to'q va yaltiramaydigan bo'lishi kerak.

**Hisoblash uskunasi** - o'yinchi va tomoshabinlar uchun musobaqalarda hisoblash uskunasi qo'llaniladi. Uning yordamida partiyalar hisobi (har bir partiyada ochkolar hisobi) va o'yin hisobi yaqqol ko'rinarli qayd etadi.

**Kiyimi** - sport poyabzali, paypoq, sport ishtoni, kalta ishton (short) yoki yubka, mayka yoki ko'ylak (bluzka) dan iborat. Ust kiyim poyabzal va paypoqdan tashqari oq yoki sariq rangda bo'lmasligi kerak.

#### Nazorat savollari:

1. Tennis stoli o'lchamlari qanday?
2. Stol tennisida to'rning balandligi qanday?

## BADMINTON MAYDONI

Badminton maydonchasi tekislikda joylashgan sport inshootlariga kirib, uning ustiga maxsus qoplama, maxsus jihozlar va o'lgamlari tushiriladi. Maydonning o'lgamlari 13,4x6,1 m.

Badminton maydonida markazdan ikki metall ustunga kiritilgan to'r tortilishi lozim. To'rning o'lgamlari 6,1x0,75 m bo'lib, to'rning yuqori chegarasi 1,55 m balandlikda o'rnatiladi.

### Nazorat savollari:

1. Badminton maydon o'lgamlari qanday?
2. Badminton maydonida to'rning o'lgamlari qanday?

## GIMNASTIKA JIHOZLARI VA ANJOMLARI


**Gimnastika devori** - umumrivojlantiruvchi mashqlar bajarish va tirmashib chiqish uchun qo'llaniladi. Uning balandligi 288 sm, ustunlarining orasi 100 sm. Gorizontal zinapoyalar (reykalar) ustunlarga parma mix bilan mahkamlanadi.

**Gimnastika narvoni** - tirmashib chiqish va tirmashib o'tish mashqlarini bajarish uchun qo'llaniladi. Uning bo'yi 5 metr, eni 48 sm zinapoyalarning (reykalar) diametri 3,5 sm, reykalar oralig'i 25 sm bo'ladi.

**Gimnastika o'rindig'i** - umumrivojlantiruvchi mashqlarni, muvozanat saqlash, tayanish, tirmashib chiqish va shu kabi mashqlarni guruh bo'lib bajarish uchun, shuningdek, shug'ullanuvchilar dam olishi uchun mo'ljallangan. Uning bo'yi 2,70 m, eni 2,20 m, balandligi 36 sm, qalinligi 40 mm bo'ladi. Pastki tomonida boshidan oxirigacha eni 5 sm to'rt qirrali yog'och qoqib qo'yilgan bo'ladi. Bu esa ag'darib qo'yib muvozanat saqlash mashqlarini bajarishda foydalanish imkonini beradi.

**Halqa** - odatda maxsus tirsaklarga, maktab zallarida ba'zan shift to'sinlariga shifti baland zallarda esa portikka osiladi. Ularining osilgan joyi poldan 5,5 metr balandlikda bo'ladi. Halqa poldan 2,5 metr balandlikda, ikki halqa orasidagi masofa esa 50 sm bo'ladi. Devorga mahkamlanadigan halqada maxsus qulf bo'lib,

ana shu gulf yordamida zanjir devorga qoqilgan qoziqqa mahkamlab qo'yiladi. Mashg'ulotlar oldidan halqalar poldan qancha balandligi, ular orasidagi masofa ikkala halqaning baland pastligi, tasmalarning mustahkamligini, shuningdek, arqon, qayishlar hamda halqaning sirti qay ahvolda ekanligi va boshqalarni tekshirish maqsadga muvofiq. Halqaning ichki diametri 180 mm, tashqi tomoni 28 mm, bog'lab turuvchi tasma uzunligi 650 mm, kengligi 30 mm. Halqalar ko'p qavatli fanera yoki plastikdan tayyorlanadi va rangsiz lok bo'yog'i bilan bo'yaladi.



25-rasm. Sport gimnastikasi uchun gilam.

**Gimnastika dastakli oti** – uzunligi 1,58 metr, kengligi 33 sm, balandligi 25 sm bo'ladi.

**Oyoq siltash uchun ot** – o'lchamlari gimnastika dastakli oti singari bo'ladi, faqat dastaklari bo'lmaydi. Ot uzunasiga qo'yilib, tortqichlar yordamida mahkamlanadi. U uzoqdagi va yaqindagi qismlarga (o'rtasidan) bo'lingan bo'ladi. Otning poldan balandligi erkaklar uchun 110 - 150 sm, ayollar uchun 110 sm balandlikda ko'ndalang qo'yiladi.

**Uloq** – 95–135 sm balandlikda, ko'ndalang yoki uzunasiga o'rnatiladi. Uzunligi 60 sm, qalinligi 30 sm uning ustiga charm yoki sun'iy charm qoplangan bo'ladi.

Jihozlarni ikki kishi mashg'ulot o'tkaziladigan joyga olib borib qo'ysa bo'ladi. Bunda ulardan biri otning (uloqning oldiga), ikkinchisi orqasiga o'tib, ikkovi ham oldinga qarab turadi va jihozning tanasiga yaqin joydan oyoqlaridan ushlab ko'tarib, bir xilda qadam tashlab yuradilar. Jihozni ko'tarayotganda yoki yerga qo'yayotganda uni bir tomonga og'dirib turib, oyoqlarini kerakli o'lchamlarigacha chiqariladi, so'ng narigi tomoniga og'dirib, qolgan oyoqlari chiqariladi. Oyoqlaridagi bo'yoqlar rangli bo'yoq bilan belgilangani ma'qul. Mashg'ulot oldidan jihozning qanchalik mahkam turganligi, qoplamasining butunligi, dastaklarining sirti (kertiklar, magneziy qotib qolgan joylari va hokazolar) tekshirib ko'riladi.

**Juft xoda** – yog'ochlari uzunligi 350 sm ga teng, tuxumsimon shaklda bo'lib, yog'ochlar staninaga mustahkamlab qo'yilgan vertlyuglar, tirgovichlarga oshiq-moshiq yordamida birlashtirilgan bo'ladi. Yog'ochlar oralig'i 42–62 sm bo'lib, poldan 115–175 sm balandlikda o'rnatiladi. Yog'ochlar o'rtasida 60S2 markali, diametri 22 mm li sterjen temir prujina o'rnatiladi.

**Past - baland juft xoda** – ayollar uchun mo'ljallangan juft xodaning pastki yog'ochi 130–150 sm, yuqorigi yog'ochi 190–240 sm balandda, yog'ochlar oralig'i 43–55 sm bo'ladi. Xodalar tuxumsimon shaklda bo'lib, yog'ochdan tayyorlanadi (oq qayin, yasen, buk) hamda o'rtasidan metall sterjenli stekloplast o'tkaziladi. Xodalarining kichik diametri 42 mm, katta diametri esa 48 mm, yog'ochlar o'rtacha 135 kg yukni ko'taradi. Xodalar balandligi maxsus moslama bilan boshqariladi. Umumta'lim maktablarda, ko'lami katta bo'lmagan musobaqalarda ba'zan eski xildagi – ramali juft xodalardan foydalaniladi. Bunday holda juft xodada mashq bajarish xavf tug'diradigan, turtib chiqqan qismlari bo'lmasligiga e'tibor qaratish kerak.

**Yakka xoda** - tortqichlar yordamida mustahkamlangan, tik tirgovichlarga gorizontal mahkamlangan, silliqlangan, diametri 28 mm li temir tayoqdan iborat. Mashg'ulotning mazmuniga qarab yakka xodani 120 sm dan 240 sm gacha balandlikda o'rnatish bo'ladi. Yangi boshlovchilar bilan mashg'ulotni devor yoniga o'rnatiladigan yakka xodada o'tkazish qulay.

**Ko‘prikcha** - sakrash, yakka cho‘p va juft xodalarda mashq qilish uchun qo‘llaniladi. Uning balandligi 12 sm, eni 60 - 120 sm bo‘ladi.

**Gimnastika to‘shaklari** - bo‘yi 200 sm, eni 100 sm, qalinligi 65 - 100 sm bo‘lib, yerga kelib tushiladigan joyga, odatda, ikki qavat qilib to‘shab qo‘yiladi. Goho bir qavat ham to‘shaladi. Murakkab mashqlarni o‘rganish paytida porolon to‘shaklardan foydalaniladi.

**Gimnastika yakka cho‘pi** - muvozanat mashqlarini bajarish uchun qo‘llaniladi. Uning uzunligi 5 metr, qalinligi (pastdan yuqoriga) 16 sm, eni 10 sm, sirti tekis va sirg‘anmaydigan bo‘lishi kerak. Yakka cho‘p poldan 80 sm balandda o‘rnatiladi. Boshlang‘ich o‘rgatish, chigil yozish va hokazolar uchun pastroq - 50 sm balandda yoki polga yotqizib qo‘yilgan yakka cho‘p qo‘llaniladi.

## **BADIIY GIMNASTIKA**

Bolalar gimnastika maydonchasida esa turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan sport anjomlari ko‘proq bo‘lishi, ular ichida tir-mashib chiqish va oshib o‘tish, muvozanat saqlash mashqlari, turli o‘yin va estafetalar uchun kerakli jihozlar ham bo‘lishi kerak.

Gimnastika maydonchasida guruh bo‘lib umumrivojlantiruvchi mashqlar, erkin mashqlar va boshqa mashqlar bajaradigan joy bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maydoncha bu qismining o‘lchami erkin mashq bajariladigan polosadan kichik bo‘lmasligi, qum-tuproqli yoki yalang yer bo‘lishi kerak, chunki o‘t bosgan joyda yomg‘irdan so‘ng, yoki shudring tushgandan keyin yer sirpanchiq bo‘lib qolganligidan shug‘ullanishga qiyinchilik tug‘diradi.

Gimnastika shaharchasi qayerda (shahar, qishloqlarda, sport sog‘lomlashtirish oromgohlarida, o‘quvchilar oromgohlarida) joylashganligiga qarab, unda zovur, xandaq, uyumlar va shu singari ayrim tabiiy va sun‘iy to‘siqlar bo‘lishi mumkin. Maydonchaga yaqin joyda toza suvli cho‘miladigan havza bo‘lishi zarur. Maydoncha yaqiniga shug‘ullanuvchilar dam olishi uchun o‘rindiqlar qo‘yiladi.

Gimnastik snaryadlarning biriktirilgan yoki tutashgan joylari yeyilmagan, qimirlamasligi, mahkamlanadigan muruvatlari (gayka, vintlari) ishonchli qotirilgan bo'lishi lozim.

Bruslarning jerdi (yog'och qismi) har o'quv yili oldidan mukammal ta'mirlanishi kerak. Ularda yoriqlar paydo bo'lsa almash-tirish lozim. Turnikda mashqlar bajarishdan oldin va tutilganidan so'ng uning grif qismini quruq latta bilan artish va «shkurka» bilan tozalash lozim. Kryuk, rastyajkalar mahkamlanadigan plastinalar polga mukammal qotirilgan bo'lishi kerak.

Gimnastik brevno yoriqsiz bo'lishi hamda burang (qiyshaygan) bo'lmasligi lozim. Gimnastik «eshak»ning tirgaklari korpus qutilariga yaxshi mahkamlangan bo'lishi lozim. Gimnastik to'shaklar gimnastik snaryadlar atrofiga yaqinroq to'shalishi, sakrab tushganda, yiqilib tushganda maydon hosil qilishi kerak. Gimnastik ko'priqchaga (mostik) deysinganda sirpanishning oldini olish maqsadida ustki qismi rezina bilan qoplangan bo'lishi lozim.

To'ldirma to'plardan o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, yoshiga qarab raqamlari bo'yicha foydalanish lozim.

Uloqtiriladigan snaryadlar vazni musobaqa qoidasiga muvofiq o'quvchilar jinsi, yoshiga mos bo'lishi kerak.

Jihozlarni joylashtirishda har bir snaryad atrofida xavfsiz hudud (zona) bo'lishini nazarda tutish kerak. Zal darsga, mashg'ulotga o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda tayyorlanishi kerak.

Sport zalida mashg'ulot o'tkazishda magneziya yoki kani-foldan foydalanish kerak va bu changlanishni oldini oluvchi maxsus qutida saqlanishi kerak.

O'quvchilarning suvga tushishiga (basseynga o'tishiga) faqatgina jadvalda familiyasi ko'rsatilgan o'qituvchi, murabbiy hozir bo'lganida ruxsat beriladi. Suzish bo'yicha mashg'ulotlarni murabbiylar o'tkazadilar. Bu holda jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'z-o'zidan murabbiyga yordamchi bo'ladilar, har xil tashkiliy vazifalarni bajaradilar va mashg'ulot jarayonida qatnashadilar.

Mashg'ulotlarni tabiiy suv havzalarida o'tkazishga faqat mashg'ulot olib borish uchun maxsus joy ajratilganda va jihozlanganda, ajratilgan joy sanitariya talablariga javob berganda ruxsat etiladi.



Bolalarni suzishga o'rgatish joyi, ularning jihozlanishi mashg'ulotlar boshlashdan oldin tuman va mahalliy sanepid-markaz va sport tashkilotlari bilan kelishiladi.

Tabiiy suv havzalaridan mashg'ulotlar uchun joy tanlashda quyidagi «Maktab o'quvchilarini suzishga o'rgatish bo'yicha tavsiyalar» talablariga amal qilish lozim:

- suv havzasining tubi cho'milishga ajratilgan yoki havzaning maxsus jihozlab ajratilgan joyi bilan birga bir tekisda bo'lishi;

- ularda suvning chuqurligi 1,2 metrdan oshmasligi;

- suvning oqimi (harakati);

- tezligi sekundiga 0,3 metrdan oshmasligi;

- tabiiy suv havzasining tubi qumli bo'lishi va shox-shabbalardan, toshlardan, suv o'simliklaridan, temir va boshqa bolalarga xavf soluvchi narsalardan tozalanishi;

- cho'milish joyi ajratilgan bo'lishi;

- mashg'ulot davomida qutqaruv vositalari (qutqaruv halqasi, arqonlar, tayoqlar, zarur holatlarda qutqaruv qayiq-lari va hokazolar) bo'lishi kerak.

Toza havoda gimnastika bilan shug'ullanishning gigiyenik ahamiyati katta ekanligini hisobga olib, maktablarda jismoniy tarbiya darslarini, «Alpomish» va «Barchinoy» me'yorlarini topshirishga tayyorgarlik va boshqa mashg'ulotlarni iloji boricha ochiq maydonlarda o'tkazishga erishish darkor.

#### **Nazorat savollari:**

1. Gimnastika zali o'lchamlari qanday?


2. Gimnastika zali qanday jihozlanadi?

3. Qo'sh turnik balandligi qanday?

### **CHIM USTIDA XOKKEY**

Chim ustida xokkey maydonining o'lchamlari quyidagicha bo'ladi: uzunligi 81 m dan to 91 m gacha, eni esa 50 m dan 55 m gacha. Maydon chiziqlari oq rangda va uning qalinligi 7,5 sm bo'ladi. O'rta chiziqni aniqlagandan so'ng «yuz chizig'i» dan 23 m uzoqlikda parallel ravishda 23 m chiziq o'tkaziladi. Darvozaga parallel ravishda jarima belgisi belgilanadi. Jarima to'pi darvoza-

dan 7 m uzoqlikda joylashadi. Zarba aylanasi radiusi 15 m. darvozaning o'lchamlari 3,66x2,14 m. Yuz chizig'ining markazida darvozalar o'rnatiladi. Har bir darvoza ustunlarining tashqi tomonidan 4 ta 30-40 sm uzunlikdagi belgi chiziqlari o'tkaziladi: ikkitasi 4,5 m va qolgan ikkitasi 9,15 m uzoqlikda. Darvoza yacheykalari 5x5 sm.



26-rasm. Chim ustida xokkey maydoni.

### Nazorat savollari:

1. Chim ustida xokkey maydoni o'lchamlari qanday?
2. Chim ustida xokkeyda darvoza o'lchamlari qanday?

## YENGIL ATLETIKA SEKTORI, ANJOM VA JIHOZLARI

**Yengil atletika yugurish yo'lkasi** - asosan turlar bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar tabiiy va sun'iy tartan, rekortan va boshqa qoplamali stadion arenasining aylana yugurish yo'lkasida o'tkaziladi. Yugurish yo'lkasining aylana uzunligi 400 metr, kengligi 7,32 metr, aylana radiusi 36 metr va burilish markazi oralig'i 86 metr bo'ladi. Yugurish yo'lkasining qiyaligi 1:100 dan oshib ketmasligi kerak.

Yugurish aylana yo'lkasi alohida-alohida yo'lkalarga ajratiladi va ularning kengligi 1,22 metrdan ortib ketmasligi kerak. Ushbu ajratilgan yo'laklar butun uzunligi bo'yicha qalinligi 5 sm chiziqlar bilan chegaralanadi. Yuguruvchi yugurish yo'nalishining o'ng tomonidan chiziq qalinligi u yugurayotgan yo'lak kengligiga kiradi. Xalqaro musobaqalar o'tkazish uchun aylana yugurish yo'lkasining yo'laklari kamida oltita bo'lishi kerak.

Yugurish yo'lkasining yo'laklari raqamlanadi. Start va marra chiziqlarining qalinligi 5 sm bo'ladi.

Yugurish yo'lkasining kengligi quyidagicha bo'lishi kerak.

- katta sport maydonlari uchun 3,75 metr,
- kichik o'yingohlar uchun 5,00 metr,
- o'rtacha o'yingohlar uchun 6,25 metr.

Yengil atletika aylana bo'ylab yugurish maydonining g'arbiy tomonida joylashgan to'g'riga yugurish yo'lkasi, *asosiy yugurish yo'lkasi* deb ataladi. Shu bilan birga to'g'riga yugurish yo'lkasining sharqiy tomoni *yordamchi yugurish yo'lkasi* deb ataladi.

Asosiy to'g'riga yugurish yo'lkasining kengligi quyidagicha bo'lishi kerak:

- katta sport maydonlari uchun 6,25 metr,
- kichik sport maydonlari uchun 7,50 metr,
- o'rtacha o'yingohlar uchun 8,75 metr.

Yordamchi to'g'riga yugurish yo'lkasining kengligi quyidagicha bo'lishi kerak:

- katta sport maydonlari uchun 5,0 metr,
- kichik o'yingohlar uchun 5,00–7,50 metr,
- o'rtacha o'yingohlar uchun 6,25–7,50 metr.

Sport maydonlarining asosiy aylana qismi yugurish yo'lkasining tashqi tomonida bevosita 1,5 metrli himoya zonasi quriladi.

Himoya zonasi har xil to'siqlardan xoli turishi kerak. Himoya zonasining uzunasiga shug'ullanuvchilarga xavfsiz bo'lgan har qanday xomashyodan balandligi 0,5–0,8 mm li to'siq o'rnatiladi.

Yugurish yo'lkasining ustki qoplamasi barcha atmosfera ta'sirlariga (yomg'ir, qor, muzlama, shamolga) bardosh bera oladigan elastik va ravon changimaydigan bo'lishi lozim.

Yugurish yo'lkasi chetining ichki va tashqi tomoni balandligi 3 sm gacha va 5–6 sm kenglikda maydon atrofi o'raladi. Ular shug'ullanuvchilarga xavfsiz bo'lgan barcha xomashyodan tayyorlanishi mumkin. Maydon aylana cheti qirralari tuxumsimon shaklda bo'lishi kerak.


Sport maydonining shimoliy tomonida yengil atletikaning sakrash va uloqtirish mashg'ulotlarini olib borish uchun joylar o'rin olgan.

**Sakrash uchun xandaq** – sakrash bo'yicha musobaqa va mashg'ulotlar o'tkazish uchun xandaq va yugurib kelib sakrash uchun yo'lak kerak bo'ladi. Balandlikka yugurib kelib sakrash uchun yo'lak uzunligi 15 metr, uzunlikka va uch hatlab, shuningdek, langar cho'p bilan sakrash uchun yo'lak 40 metr bo'lishi kerak.

**Langar cho'p bilan sakrash uchun sektor** - xandaq, yugurib kelish uchun yo'lak, langar cho'p, ikkita stoyka va bitta plankadan iborat.

**Langar cho'p** – uzunligi, diametri va qanday xomashyodan tayyorlanishi bir to'xtamga kelinmagan. Lekin langar cho'p tepa qismi silliq (bambukli langar cho'pidan tashqari) bo'lishi kerak. Yaxshi langar cho'p yengil, mustahkamligi yuqori, egiluvchan bo'lishi lozim. Asosan bu talablarga sintetik xomashyodan tayyorlangan langar cho'plar javob beradi. Sakrovchining og'irligi (45 kg dan 90 kg gacha) va tana uzunligiga qarab langar cho'plarga buyurtma beriladi. Langar cho'p ostiga himoya yarim doira shaklidagi rezina tiqin o'rnatiladi.

## Yengil atletika sektori



Qo'nish uchun joy sakrovchi qo'nishi uchun 500 x 500 sm bo'lishi kerak. Tushish joyi porolon yoki boshqa momiq xomash-yodan foydalaniladi.

**Planka** – temir yoki yog'ochdan tayyorlanadi. Uning uzunligi 3,64–4,00 metr, og'irligi 2 kg bo'ladi. Planka bo'ylama kesimi doira shakliga ega (diametri 3 sm).

**Uzunlikka sakrash sektori** – yugurib kelish uchun yo'lak, debsinish uchun to'rt qirrali uzun yog'och (brusok) va sakrab tushish uchun xandaqdan iborat.

**Yugurib kelish uchun yo'lak** – uzunligi 40 metr, kengligi 1,22 metr, yugurish yo'nalishiga qarab kamida 1: 1000 qiyalikda bo'lishi kerak.

**Depsinish uchun to'rt qirrali uzun yog'och** – kengligi 20 sm li uzun yog'ochdan depsinish amalga oshiriladi. Uzun yog'och handaq chetidan 1 metr oraliqda o'rnatiladi.

**Xandaq** – sakrab tushish uchun xandaq minimal kengligi 2, 75 metr bo'ladi. Depsinish yog'ochidan, xandaq chetigacha 10 metrdan kam bo'lmasligi kerak (uch hatlab sakrashda 13 metrdan kam bo'lmasligi kerak).


**Uloqtirish va irg'itish sektorlari** – uloqtirish va yadro irg'itish uchun konstruksiya joyi, ularning og'irligi IAAF qoidalariga binoan aniqlanadi.

**Yadro va bosqon uloqtirish sektori** – uloqtirish uchun doira, halqa, yadro va bosqon tushish joyidan iborat.


**Uloqtirish uchun doira** – tekis betonli, asfaltli, rezina bitumli, sintetik tipli yoki yerli maydonda quriladi. Balandligi 2 sm, kengligi 5–6 sm temir yoki yog'och halqa qoziqlar bilan qoqib, mahkamlanadi.

**Halqa** – markazining ikki yon tomoniga hoshiya chiziladi. Doira ichki diametri 2,135 metr bo'ladi.


## Sport sektorlari




Langar cho'p bilan  
sakrash uchun xandaq




Yadro uloqtirish  
sektori




Nayza uloqtirish sektori




Granata uloqtirish sektori




Bosqon uloqtirish sektori



**27-rasm. Balandlikka sakrash uchun xandaq, ustun va plankalari.**




**28-rasm.  
Yengil atletika nayzalari.**



**29-rasm.  
Yengil atletika uchun disklar.**





**30-rasm. Yengil atletika uchun yadrolar.**

10 ± 2 sm, kengligi 12 sm va ichki aylanasi boʻylab uzunligi 1,22 metrli bir-biriga mahkamlangan yogʻoch doira bilan chegalanadi.

Yog‘och doira va doira ikki tomonidagi hoshiyalar oq bo‘yoq bilan bo‘yaladi. 45 °doira burchagi markazidan yadro tushish sektori chegaralanadi.

**Yadro** – temirdan tayyorlangan bo‘lib, tashqi ko‘rinishidan shar shaklida, og‘irligi 3 - 4 - 5 - 6 kg, diametri 95 - 125 mm bo‘ladi.

**Bosqon** (molot) – yengil atletikada – otish uchun snaryad. dastakli po‘lat trosga birlashtirilgan dumaloq po‘lat shar, umumiy uzunligi 1,18-1,20 m, og‘irligi 7,257 kg, diametri 10,2-12 sm.

**Nayza uloqtirish sektori** – burchagi 280 taxtagacha (planka) – qalinligi 2 - 3 mm va kengligi 7 sm, ichki tomonga 8 metr, 29 radiusga yoysimon bukilgan yog‘och, faneradan yoki tunukadan yasaladi. Taxtacha yon tomoni yugurish yo‘lkasi bilan bir tekislikda mahkamlanib oq rangga bo‘yaladi. Yugurish yo‘lkasi uzunligi 30 metr bo‘lishi kerak.

**Nayza** – og‘irligi, erkaklar uchun 800 g, ayollar uchun 600 g, o‘smirlar uchun 400 g og‘irlikda bo‘ladi, uzunligi 2,6–2,7 m va 2,2–2,3 m (mos ravishda).

**Disk uloqtirish sektori** – disk uloqtirish uchun doira betonli yoki asfalt yerli maydonda quriladi va balandligi 2 sm, kengligi 4 - 6 sm, temir yoki yog‘och halqani, qoziqlar bilan qoqib, atrofi o‘raladi. Halqa oq rangga bo‘yaladi. Doira ichidagi qoplama tekis va qiya bo‘lishi kerak. Doira ichki diametri 2,50 sm bo‘ladi. Halqa markazining ikki yon tomoniga oq rangda hoshiya chiziladi.


**Disk** – yuqori sifatli rezinadan tayyorlangan bo‘lib, erkaklar uchun disk og‘irligi 2 kg, tashqi temir qosqonining diametri 44–46 mm, ayollar uchun disk og‘irligi 1 kg, tashqi temir qosqonning diametri 180–182 mm bo‘ladi.

**3000 metr masofaga to‘siqlar osha yugurish sektori** (sport maydonining shimoliy sektorida joylashgan) - yugurish yo‘lagi, ikkita suv to‘ldirilgan xandaq va to‘siqdan iborat.

(to‘siqning yuqori xarisining kengligi) – 3,96 metr. Yuqoridagi si to‘rtburchak shaklida 12,7 x 12,7 sm bo‘lishi kerak. To‘siqlarning har biri 80–100 kg og‘irlikda bo‘ladi. To‘siqlar yugurish yo‘lagiga ketma-ket bir qator qilib qo‘yiladi.


**Suv to'ldirilgan xandaq** – uzunligi va eni 3,66 metr, chuqurligi 0 sm dan asta-sekin to 76 sm gacha suv bilan to'ldiriladi va to'siqning orqa tomoniga o'rnatiladi. Xandaq biron-bir sektor yoki yo'lkanidan tashqari joyda o'rnatiladi.

Yuguruvchi chuqurga sakrab tushganda sirpanib ketmasligi uchun chuqurning ost qismi kengligiga to'shak qoplama, mat yoki shunga o'xshash yumshoq matodan tayyorlangan qoplama mahkamlanadi. Qoplama to'shak qalinligi kamida 25 mm, uzunligi 2,5 metrdan oshmasligi lozim. Chuqurning tubi nishablangan bo'lib, cheti (yuguruvchining yo'nalishiga qarab) yo'lka bilan bir tekisda bo'ladi. To'siq xari mustahkam mahkamlangan bo'lib, uning balandligi qolgan to'siqlar balandligiga mos kelishi kerak.



**31-rasm. To'siq va yon tomondan ko'rinishi (o'lchamlari mm).**

Yugurish yo'lkasi - suv to'ldirilgan chuqur 400 metr yugurish yo'lkasi qatorining (sektor) tashqi tomoniga o'rnatiladi. Agar suv to'ldirilgan chuqur yugurish yo'lkasi qatorida joylashtirilgan bo'lsa odatdagi yugurish yo'lkasi masofasi qisqartiriladi. Bunday hollarda 3000 metr start chizig'i birdek ortga suriladi. Agarda suv to'ldirilgan chuqur yugurish yo'lkasidan tashqi tomonda bo'lsa, start chizig'i oldinga o'tkaziladi. Suv to'ldirilgan chuqur yugurish yo'lkasining har qaysi aylanasi to'rtinchi to'siq sifatida takrorlanadi.



32-rasm. Suv to'ldirilgan chuqur (o'lchamlari mm).

Sport maydoni sektorlarining birida og'irlik ko'tarish, kurash tushish joyi, shu bilan birga voleybol va basketbol uchun universal maydon jihozlanishi mumkin.

Yozda maysazorni sug'orish va qishda esa yugurish yo'lkalarida konkida uchish uchun yugurish yo'lkasi chetida diagonal joylashgan ikkita suv oqizuvchi jo'mrak o'rnatiladi.

**To'siq** (baryer) – og'irligi kamida 10 kg, ikkita tik oyoqli ustunlarning keyingi ikkita plankaga birlashtirilgan, tepa qismi plankadan tashkil topgan to'rtburchak shaklga ega bo'lgan, temir yoki boshqa yaroqli xomashyodan tayyorlanadi. To'siq plankasi uzunligi 120 sm va balandligini 60, 76,2, 84, 91,4, 106,7 sm baland-

likkacha moslash mumkin. Planka oq va qora ranglarga bo'yaladi. To'siqlar osha yugurish yo'lkasida yuguruvchi sportchi, qaysi tomondan yugurib kelishiga qarab, to'siq oyoqlari shu tomonga qaratib qo'yiladi. To'siq yasashda, to'siq tepa qismi plankasining o'rta va yon qismiga salkam 3,6 kg kuch tushgandagina ag'darilish sodir bo'lishiga e'tibor berish kerak.

**Estafeta tayoqchasi** – bo'ylama kesimi doira shakldagi, qurur ko'rinishini eslatuvchi va ust qoplamasi silliq tayoqcha. U yog'och, temir yoki har qanday qattiq xomashyodan tayyorlanadi.

Estafeta tayoqchasining uzunligi 28–30 sm, diametri 120 mm, og'irligi 50 g dan ortiq bo'lmasligi kerak.

**Poyabzal** – yuguruvchi yaxshi depsinishni amalga oshirish uchun «*shipovka*» deb nomlanadigan maxsus yugurish poyabzali-dan foydalanadi. U yengil, qulay, yaxshi bukiluvchan va uchki qismiga kamida to'rtta, ko'pi bilan oltitagacha temir tishli taqa (ship) o'rnatiladi. IAAF musobaqa qoidalariga binoan temir tishli taqa uzunligi 25 mm, diametri 4 mm dan ortiq bo'lmasligi kerak. Agar musobaqalar sun'iy qoplamali yo'lakda o'tkazilsa, temir tishli taqalar uzunligi qancha bo'lishligini musobaqa tashkilotchilari belgilaydilar.

**Xronometr**lash – har bir qatnashuvchi bosib o'tgan masofa vaqti avtomatik yoki qo'l sekundomeri bilan o'lchanadi.

#### Nazorat savollari:

1. Yengil atletika sektori maydoni o'lchamlari qanday?
2. Yugurish yo'laklari qoplamalari haqida nima bilasiz?
3. Uzunlikka sakrash chuqurligi o'lchamlari qanday?
4. To'siqlar osha yugurishda to'siq balandligi qanday?

## SUZISH SUV HAVZASI

**Suzish suv havzasi** to'g'ri to'rtburchakli sun'iy yoki tabiiy suv havzalaridan tashkil etiladi. U yerda mashg'ulot va musobaqalar o'tkazish uchun jihozlar va anjomlar bo'lishi kerak.

## SUZISH SUV HAVZASINING ANJOMLARI VA JIHOZLARI

Maydonni shifokor roziligi bilan aniqlash kerak. Chunki shifokor havzadagi suvni yaroqli yoki yaroqsizligini tekshirib beradi. Suzish havzasi qurilishini suv havzasining shimoliy tomoniga, qirg'og'i qiyalama, tubini qumli qilib joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Suzish havzasi quriladigan suv havzasining chuqurligi kamida 1,5 metr bo'lishi lozim.

Suzish havzasining burilish shitlari oralig'i 25 yoki 50 metrga teng bo'lishi kerak. Suzish yo'laklari ikkita va undan ko'p bo'lishi mumkin. Suzish havzasi kengligi har bir suzish yo'lagi orasidagi 2,25 m masofani inobatga olgan holda belgilanadi.

**Suzish yo'laklari** – qalinligi 8 sm, eni 4 sm li po'kaklar qalin arqonga tortib chegaralanadi.

**Start olish tumbasi** – ostidagi suv sathi kamida 1,5 metr chuqur bo'lishi kerak.

Oddiy suzish uchun suv havzasini ko'l yoki boshqa suv havzalari yaqiniga qurish ham mumkin.

### **Suzish havzasi qurilishi uchun zarur xomashyolar:**


|                                  |                    |
|----------------------------------|--------------------|
| Qalinligi 8 sm sinchbob xoda     | 75–150 pog. m      |
| Diametri 15 sm tekis yog'och     | 2,2 m <sup>3</sup> |
| Qalinligi 4 sm taxta             | 0,5 m <sup>3</sup> |
| Qalinligi 3 sm taxta             | 1,3 m <sup>3</sup> |
| Ikki uchi bukilgan temir (sonba) | 50 kg              |
| Har xil mixlar                   | 50 kg              |

Suzish suv havzasini qurishga jami 4,4 m<sup>3</sup> yog'och kerak bo'ladi.

## SUV POLOSI MAYDONI, ANJOMLARI VA JIHOZLARI

**Maydon o'lchamlari** - suv polosi bo'yicha xalqaro yoki milliy jamoalar o'rtasida musobaqalar suv chuqurligi 1,80 metr, 30 x 20 metr o'lchamdagi to'g'riburchak shaklidagi suv may-

donida o'tkaziladi. Barcha suv havzalari yuqorida aytib o'tilgan o'lchamlarga ega. Shunday bo'lsada, suv havzalarini hammasi ham parametrlari to'g'ri kelmaydi, o'lchami 8 x 20 metr, chuqurligi 1 metr bo'lgan kichik maydonlarda musobaqalar o'tkazishga ruxsat beriladi. Agar suv havza devorlari tabiiy o'yin maydoni chegaralari bo'la olmasa, unda maxsus arqon bilan ajratiladi. Maydonning yon tomonidagi 2 metrli va 4 metrli hamda o'rta chiziqlarni belgilash uchun belgi qo'yiladi.



**33-rasm. Suzish uchun ko'zoynaklar.**

**Darvoza** – ichki o'lchami 300 x 0,90 sm. Agar suv havzasi chuqurligi 1,50 metrdan kam bo'lsa, unda suv havzasi tubidan to darvoza xarigacha 2,40 metr bo'lishi kerak.

**To'p** – suv polosi o'yini uchun to'p aylana diametri 68–71 sm, og'irligi 400–450 g bo'ladi. Charm to'plarni moylash uchun

maxsus moy yoki mum ishlatiladi. 1967-yildan boshlab plastmasa to'plar kiritilgan. Ipli to'plardan foydalanish man etiladi.

**Sport kiyimi** – vaterpolchilar sport kalta ishtonida qatnashadilar. O'yin boshlanishidan avval yoki tanaffus vaqtida sovqotib qolmasliklari uchun mashg'ulot ust kiyimi, sport shippagi va xalat kiyib oladilar. Musobaqalarning eng zarur atributi maxsus bosh kiyim, bayroqlar va vaterpol sekundometri hisoblanadi. Bosh kiyimi tomog' ostidan bog'lanadi, ikki yon tomonida raqamlar yorqin ko'rinarli bo'lishi kerak. Darvozabon 1 raqamda, qolgan o'yinchilar 2–11 raqamlanadi.

Hakam imo-ishoralari ko'k va oq bayroqlar yordamida ko'rsatiladi. Darvoza chiziq hakami oq va qizil bayroqchaga, hakam kotibi oq, havorang va qizil bayroqlarga ega bo'lishi kerak.

Suzish suv havzalari uzunligi 25 m yoki 50 m, eni esa 11 m, 16 m, 21 m va 25 m ga teng bo'lishi mumkin. Bitta suzish yo'lkaning eni 2,5 m bo'ladi. Enining o'lchamlariga qarab suzish suv havzalarida 4, 5, 6 yoki 8 ta suzish yo'lkalari bo'ladi. Agar suzish suv havzalari uzunligi 33,3 m gacha bo'lsa, u holda bu yerda suv polosi sport turi bo'yicha mashg'ulot o'tkazish mumkin.

Suzish suv havzasining minimal chuqurligi 1,2 m, chuqur qismi 1,8 m dan chuqur bo'lishi kerak emas.

#### **Nazorat savollari:**


1. Suv havzalari turlarini aytib bering.
2. Suv polosi maydoni o'lchamlarini ayting.
3. Suzish havzasining minimal chuqurligi qanday?

## **KURASH VA BOKS UCHUN MAYDONCHALAR**

**Kurash va boks uchun maydonchalar** tekislikdan iborat bo'lib, trenirovka o'tkazish uchun maxsus qoplama va jihozlar kerak bo'ladi. Kurash uchun maydon bitta kurash gilamidan tashqari maxsus va umumrivojlantiruvchi jihozlar, trenajyorlar (shtanga, giri, arqon va halqa) bo'lishi mumkin.




Kurash gilamining aylana diametri 9 m boʻladi. Uning ustida ish zonasi diametri 7 m, passiv zonasi 1 m va muhofaza zonasi 1,2-1,5 m gacha boʻladi.




34-rasm. Kurash uchun sport zali.

Boks maydonining (ring) oʻlchamlari 20x23 m ga teng boʻladi. Ringning oʻlchami 6x6 m va qoʻshimcha (qoplarini osish uchun konstruktsiya pnevmatik noksimon qoplar uchun platformalar) ji-hozlar joylashadi. Ring maydoni atrofi 3–4 sm qalinlikda boʻlgan arqonlar bilan toʻrt ustun orasida qattiq tortilib qoʻyiladi.



35-rasm. Boks uchun sport zali.



36-rasm. Maktab sport zali.

### **Nazorat savollari:**

1. Boks va kurash zalining jihozlanishi haqida nimalar bilasiz?
2. Siz yashab turgan joyda boks va kurash zalining jihozlanishi qanday?

## **O'QUV YURLAR SPORT INSHOOTLARI**

**O'quv yurtlar uchun sport zallari** arxitektura-rejalashtirish yechimlarini inobatga olib quriladi. Maktablar uchun sport zal-larining o'lchamlari 9x18, 12x24 yoki 15x30 m bo'ladi. Qurilish davrida jihozlarni osish va maxsus jihozlarni joylashtirish uchun kryuk va anjomlar o'rnatiladi.

### **Sport inshootlarini loyihalash va qurish.**

#### **Sport inshootlarini loyihalash va qurishda asosiy tashkiliy toifalar**

Sport inshootlarini qurish oldidan albatta texnik talablarini muhokama qilish kerak, shu bilan birga pul, qurilish materiallari va ish kuchi bilan ta'minlash masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Sport inshootlarini quruvchi tashkilotlar avvalombor, o'zlari inshootni yaxshi ko'z oldiga keltirib, quyidagilarni inobatga olish-lari kerak:

1. inshootni qanday maqsadda qo'llanilishini;
2. uning klassi va qancha odam bo'lishini;
3. asosiy maydon va zallar sonini;
4. yordamchi xonalar joylanishini;
5. tomoshabinlar uchun joylar soni va joylanishini.

Bundan keyin uning narxini aniqlash lozim. Bir turdagi loyi-halar smeta narxidan aniqlanadi.

Agar qurilish obyekti loyiha bo'yicha qurilsa, bu holda uning taxmini narxi qo'llanmalar yordamida aniqlanadi.

Binoning narxi aniqlangandan keyin loyiha ishlab chiqish narxi, loyiha narxi va qurilish narxini ajratish masalalarini hal qi-lib qo'yish zarur. Buning uchun qurilish tashkilotlarida limitlarni

hal qilish kerak va bu sport inshootni qurilishini davlat rejasiga kiritish lozim.

Bu masalalar hal qilingandan keyin buyurtmachi loyihani ishlab chiqadigan korxona bilan birgalikda kerakli hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlashga tayyorlaydi.

1. Loyiha ishlarini bajarish uchun topshiriq tayyorlanadi. Topshiriqni tayyorlash jarayonida quyidagilarni hisobga olish kerak.

A) qurilayotgan sport inshootini qaysi tumanda qurilishini va bu tumanning rejasini hisobga olish zarur;

B) yoki qishloqda, mikrorayonda, shaharda bo'lsa, bu yerlarning uchastkalarini ham hisobga olish zarur.

Loyiha buyurtmasiga quyidagi keyingi ma'lumotlar berilishi kerak:

1. ushbu bino va sport inshootida shug'ullanishi mo'ljallanayotgan sportchi, xodim-xizmatchi va jismoniy tarbiyachilarning soni;

2. qurilishning ro'yxati;

3. qurilishning taxminiy maydoni, avtomashinalar uchun to'xtash joylari va harakat hollarini, shuningdek, obodonlashtirish ish rejalari hisobga olinishi;

4. smeta tan narxini buyurtmachining imkoniyatlari bilan solishtirish.

Katta qurilishlarga (stadion, sport saroylari) texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) ishlab chiqiladi.

Bunga asosan kelajakdagi quriladigan bino yoki kompleksning rentabelligi narxini chiqarib olish kerak. Loyiha buyurtmachisi shu loyihaga asosan mablag' ajratgan korxonaning rahbari tasdiqlaydi va shundan keyin bu hujjat ro'yxatga olinadi va shahar, qishloq, rayonning tavsiyasi bo'yicha yer uchastkasi ajratiladi. Sport inshooti quriladigan uchastkaga bir nechta talablar qo'yiladi: 1) texnik talablar; 2) ekonomik; 3) sanitar talablar.

## **SHAHAR VA QISHLOQLARDA SPORT INSHOOTLARINI QURISH**

Hozirgi zamonda aholiga xizmat ko'rsatish jarayonida sport inshootlari zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Shuni nazarga olgan holda shaharda va qishloqlarda rejalashtirilayotgan sport inshootlari texnik talablarga hamda loyiha talblariga javob berishi lozim.

Shahar va qishloqlarda qanday sport inshootlari rejalashtirish va qurish kerak degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

Shahar ko'p aholi joylashgan va maxsus qaror bilan shahar maqomi berilgan joy bo'lib, ishlab chiqarish korxonalari, zavod, fabrikalar faoliyat ko'rsatadi hamda qishloq xo'jaligi uchun mehnat qurollarini ishlab chiqaradi.

Alohida joylashgan turar joylar va uning aholisi 1,5-3 ming bo'lsa, bu holda uning hududida kompleks jismoniy tarbiya maydonlari, ya'ni gimnastika, yengil atletika bilan shug'ullanish uchun, voleybol, basketbol, futbol maydonlari qurilishi lozim va uning umumiy maydoni 1200 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari ikkita tennis stoli uchun maydoncha ajratiladi.

Mikrorayonda-alohida joylashgan turar joylar uchun ajratiladigan sport inshootlari quriladi va alohida ajratilgan yerdan tashqari bu sport maydonlarini dam olish xiyobonlarda joylashtirish mumkin.

Agar mikrorayonda aholining soni 6 ming odamdan ko'p bo'lsa, unda kompleks maydonchalar quyidagilardan iborat, ya'ni gimnastika bilan shug'ullanish uchun maydoncha, voleybol, basketbol, tennis maydonlari va uning umumiy maydoni 6700 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmasligi kerak. Agar mikrorayonning aholisi 12 ming va undan ortiq bo'lsa, unda umumiy maydon 8400 m<sup>2</sup> gacha kengaytiriladi.

Aholi zich yashaydigan rayonlarda (24-36 ming aholi) sport markazi qurilishi rejalashtiriladi va u sport markazlarining ikkinchi toifasiga kiradi. Ularga futbol maydoni (96x64 metr) va mashqlar uchun ikkinchi maydon (66x44 metr), ikkita tennis maydoni (36x15 metr har biri), ochiq basseyn (25x10 metr), tir 50 metr va tomoshabinlar uchun bir ming o'rindiqli bo'lishi kerak.

Umumshahar sport majmualari oliy darajali sport inshootlari-ga kiradi. Shahar hududida sport inshoot tarmoqlarini qurishdan oldin ajratilgan yer uchastkalari o'rganib chiqiladi va ular quyidagicha:

- 7 yoshgacha bolalar uchun sport majmua uzoqligi 50-100 metr bo'lishi kerak;

- 7-10 yoshgacha 150-200 metr;
- 11-17 yoshgacha 400-500 metr.

Tuman sport markazi 20 daqiqalik masofada joylashgan bo'lishi kerak.

Stadion bosh rejasini loyihalashda ko'p minglik tomoshabinlarni evakuatsiya vaqtida turli oqimlarni kesib o'tmaydigan holda shahar qurilishini va yo'llarini hisobga olish zarur bo'ladi. Transport yo'llarining joylanishi, turli shahar va shaxsiy transport vositalarining to'xtash joylarida odamlar oqimining tarqalish prinsipi bilan uzviy bog'liq bo'lganligi sababli bunda asosiy kirish va ichki magistrallar joylanishi belgilanadi. Kirish joylarida kassa xonalari mo'ljallanadi. Kassalar chiptali tomoshabinlar oqimidan tashqarida joylashadi.

Bir rejada stadion uch asosiy qismga bo'linadi: namoyish (tomoshagoh), o'quv-mashg'ulot, xizmat ko'rsatish qismlari.

**Namoyish qismda asosiy** sport arenasi va tribunalar, tomoshabinlarga xizmat ko'rsatish, sportchilar, hakamlar boshqaruvi, matbuot, radio va televideniye xonalari joylashadi.

Unda, shuningdek, ochiq va qishki suzish suv havzalari, velotrek, to'p o'yinlari va tennis stadionlari joylashgan.

Bu qism tarqatuvchi maydon va evakuatsiya yo'llari bilan bevosita bog'langan.

**O'quv-mashg'ulot qismida** sport maydoni sport maydoni va maydonchalari joylashgan bo'lib, ularning ba'zilar namoyish xarakteriga ega. Bu qismdagi sport inshootlari sportning alohida turlari bo'yicha ixtisoslashgan.

**Xizmat ko'rsatish qismida** tomoshabinlarning dam olish maskanlari, kafe, kiosklar, suhbat o'rindiqlari, sanitariya inshootlari, stadionni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq inshootlar xo'jalik hovlisi, ustaxonalar, oranjereyalar, omborlar va boshqalar joylashgan.

Stadion qurilishida quyidagi talablar muhim ahamiyatga ega:

- shahar qurilish holati-shahar magistrallarining yo'nalishi, stadion ro'pasida maydon mavjudligi, tomoshabinlarning evakuatsiya yo'llari, turli shahar transportlari uchun transport tugunlari va boshqalar, ko'kalamzorlashgan hududlarga va suv havzalariga stadionning imkon qadar yaqinligi, asosiy sport arenasining tri-

buna va boshqa sport inshootlari bilan o'zaro proporsional va kompakt, shuningdek, eng ma'qul yo'nalishda (shimol-janub) joylashishi;

- maydon relyefining yaroqligi (sport arenaning g'arbiy tarafidan yerda tribunallarni joylash uchun 30% nishablik maqsadga muvofiq); asosiy yo'nalishda doimiy esuvchi shamollar yo'nalishi (himoyalash choralari); yer ishlari balansini hisobga olgan holda stadion hududini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish; qishki mavsumdagi stadionning xarakteri (konkada tez chopish, figurali uchish, xokkey, chang'i trampoline uchun moslamalarni o'rnatish ehtimoli).

Amaldagi stadionlarni loyihalash me'yorlarida (SN 162-58) quyidagi tavsiyalar berilgan:

- tomoshabinlarni evakuatsiya qilishda (stadion tashqarisida) tarqatuvchi maydonning zaruriy o'lchamlari har bir tomoshabinga 0,5-0,75 m<sup>2</sup> hisobidan aniqlanadi;

- stadiona eng kamida ikki kirish joyi belgilanishi zarur; evakuatsiya yo'llarining (yo'lakcha, yo'l, o'tish va kirish joyi) eni bir metrga 500 kishi hisobidan aniqlanadi;

- bevosita tribunalar oralig'ida tarqatuvchi maydonlar nazarda tutilgan bo'lib, bir tomoshabin o'rni uchun o'rtacha kattalikdagi stadionlarda 0,5 m<sup>2</sup>, katta stadionlarda 0,3 m<sup>2</sup>;

- kirish kassalarining soni 1500 kishiga 1 darcha hisobidan belgilanadi.

Joyning holatiga qarab, stadionning bosh rejasi shaklan turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Sport inshootlarini rejalashtirishda nimalar e'tiborga olinadi?
2. Shahar va qishloq hududlarida sport inshootlarining o'ziga xosliklari.
3. Sport inshootini qurishga qo'yiladigan gigiyenik talablar.

## **BOLALAR SPORT INSHOOTLARI**

Mamlakatimiz Prezidenti va hukumati bolalar sportini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib keladi. Soha rivojiga qaratilgan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar, davlat dasturlari qabul qilingan bo'lib, izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizning barcha, jumladan, eng chekka hududlarida ham zamonaviy bolalar sport inshootlari barpo etilib, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmoqda.

Bolalar sportini rivojlantirishda uch bosqichli sport musobaqalari katta ahamiyat kasb etdi. Mazkur musobaqalar o'tkazilgan viloyat va shaharlarda qurilgan muhtasham sport inshootlari endilikda bolalar va o'smirlar ixtiyoriga topshirilgan.

Bolalarni jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanishga keng jalb qilishda zamonaviy jihozlangan sport inshootlarining o'rni beqiyos bo'layotir. Har bir bola yoki o'smir zamonaviy trenajyorlarni ko'rib, sportga mehri ortishi shubhasiz.

Mamlakatimizda ommaviy va yuqori sport tizimi doirasidagi bolalar va o'smirlar sport maktablari, olimpia zaxiralari kollejlari, respublika oliy sport mahorati maktablarida yuqori malakali va iste'dodli, o'z Vatan shon-shuhrati yo'lida munosib kurasha oladigan sportchilarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

Zamonaviy o'quv va sport bazasiga ega bo'lgan ana shunday kollejlarda Jizzax, Xorazm, Andijon, Guliston, Navoiy, Nukus, Buxoro, Namangan, Chirchiq, Farg'ona shaharlarida foydalanishga topshirildi.

## **SPORT INSHOOTLARINING YORDAMCHI XONALARI**

Yordamchi xonalar quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi: tomoshabinlar uchun xonalar; sportchilar uchun xonalar; hakamlar va murabbiylar uchun xonalar; radio-teleshaharlovchilar va matbuot xonalari; ma'muriy-xo'jalik xonalari.

Sport inshootlarini tomoshabinlar tribunallari bilan loyihalashda tomoshabinlar va sportchilarning harakatlanish yo'laklari



hamda zonalarining alohida bo'lishi talablariga qat'iy rioya etilishi lozim. Ular tomoshabinlar va sportchilar uchun maxsuslashgan binoga kirish hamda chiqish joylariga ega bo'lishlari zarur. Tomoshabinlar uchun mo'ljallangan xonalarga vestibullar, garderober, koridorlar, foye, bufetlar, sanitariya xonalari, chekish joylari, chipta sotish kassalari va faxriy tashrif buyuruvchilar uchun maxsus xonalar kiradi. Garderobli vestibul maydoni har bir tomoshabin uchun kamida  $0,24 \text{ m}^2$ , faqat garderober maydonida esa har bir tomoshabin uchun  $0,08 \text{ m}^2$  ga teng o'lchamlarda qabul qilinadi. Baryerning uzunligi 40-50 tomoshabinga (ba'zi hollarda 60 tomoshabin) 1 m baryer hisobida qabul qilinadi. Kuluarlar, foye va bufetlarda umumiy me'yorlarga ko'ra har bir tomoshabin uchun  $0,5\text{-}0,6 \text{ m}^2$  qabul qilinadi. Tribunalarning sig'imi 10 mingdan oshganda bu me'yor-har bir tomoshabin uchun  $0,3\text{-}0,4 \text{ m}^2$  gacha kamaytirilishi mumkin. Sport inshootidagi sanitariya xonalari barcha qavatlar bo'yicha bir tekisda taqsimlanishi lozim. Hojatxonalarini hisoblashda ayol-erkak nisbati 3:5 ko'rinishida olinadi. Erkaklar hojatxonasida har yuz kishi uchun 1 unitaz va 2 pissuar, ayollar tualetida har 50 kishi uchun 1 unitaz mo'ljallanishi lozim. Agarda birinchi qavatdagi shamollatish va havoni ventilatsiya sharoitlari talab darajasida bo'lsa, bu yerda chekishga ruxsat beriladi va maxsus chekish xonalarini loyihalash zarurati qolmaydi. Chipta sotish kassalarining soni soatiga har bir kassadan 400-500 chipta sotish imkoniyatidan kelib chiqiladi. Sportchilar uchun xonalar guruhi quyidagicha: vestibul garderoberi bilan, kiyim almashtirish, dush, hojatxona, massaj xonalari, quruq-issiqlik hammomi, tibbiyot xonasi, bufetlar, dam olish xonasi va sportchilarni arenaga chiqish oldidan yig'ish xonalari. Sanab o'tilgan barcha xonalarni bir yerda guruhlashtirish va boshqa xonalardan ajratish hamda arena bilan aloqani qulaylashtirish maqsadga muvofiq. Dush xonalari umumiy yoki alohida bo'limlardan iborat bo'ladi. Ko'p hollarda dush xonalarida chegaralovchi devorlarni qo'llash yaxshi natijalar beradi.

Sanitar-gigiyenik talablar yuqori qo'yilgan inshootlarda, masalan, sog'lomlashtirish jismoniy tarbiya inshootlarida, suv havzalarida o'tkazish dushlari va oyoq dushlari qo'llaniladi.

Dush xonasining eng kichik o'lchami 0,9x0,9 m chegaralovchi devorning balandligi 2 m dush xonalari qatorlari orasidagi yo'lakning eni 1,5 m dush xonalari va devor orasidagi yo'lakni eni 0,9 m oyoq dushining o'lchamlari 0,85x1 m hisobida.

Dushlar soni quyidagi hisoblashdan aniqlanadi: sport zallari-da bir vaqtda shug'ullanayotgan 3 kishiga 1 ta dush, instruktorlar uchun 20 kishiga 1 dush.

Hojatxonalardagi sanitariya jihozlari soni quyidagicha: bir vaqtning o'zida suv havzasida mashg'ulot o'tkazayotgan 25 kishi uchun unitaz va 1 ta pissuar, ayollar hojatxonalari bir vaqtning o'zida suv havzasida mashg'ulot o'tkazayotgan 15 kishi uchun 1 ta unitaz yoki 30 o'rinli kiyinib-yechinish joyi.

Massaj xonalari 1 ta stol uchun 12 m<sup>2</sup>, stollar soni ko'payishi bilan har bir stol uchun 6 m<sup>2</sup> qo'shiladi.

Quruq-issiq hammom maydoni 10 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan bir o'ringa 1 m<sup>2</sup> hisobida aniqlanadi.

Bufet sport zalida yoki suv havzasida shug'ullanayotgan har 6 kishiga bir o'rin (1,2-2 m<sup>2</sup>) hisobida loyihalalanadi va bufet uchun qo'shimcha xonalar nazarda tutiladi.

## **MEHMONXONA BINOSINING QURILISH-KONSTRUKTIV ASOSI**

Mehmonxonaning konstruktiv sxemasi asosida yashash xonasining o'lchamlari yotadi.

Zamonaviy mehmonxona binolari qurilishida karkas va panel, shuningdek, monolit, temir-beton tizimlari keng tarqaldi.

Mehmonxonalar qurilishida quyidagi enlama konstruktiv qadamlar qo'llaniladi: 480, 540, 600, 640 va 720 sm. Bir kishilik xonaning o'qlar oralig'i (kengligi) 240, 270, 300, 330, 360 sm o'lchamida bo'lishi mumkin. Aksariyat maqsadga muvofiq bo'lgan xonalarining kompozitsion ochilishi 330 va 360 sm li qadam asosida olinishi mumkin. Ya'ni: 1-karkas setkasi (to'ri) to'liq bir kishilik xona o'lchamlari moduli bilan bog'langan; 2-karkas setkasi (to'ri) ikki bir kishilik xonalarni qoplashga asoslangan bo'lib, bunda ichki oraliq parda devor surilishi bilan bu ikki xonada bir-biriga teng bo'lmagan maydonlarni yuzaga keltiradi; 3-karkas setkasi ikki xona uchun modulni saqlaydi, ammo konsol moslamasi hisobiga

ustunlar soni 2 marta qisqaradi, ularga yengillashgan tashqi devorlar tayanib turadi.

Bir turdagi yacheykalardan tashkil topgan toksona korpuslarida panel konstruksiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq. So'nggi yillarda hajmiy-blokli konstruksiyaviy yotoqxonalar qurilishida qo'llanilib, ularning yacheykalari yotoqxona hajmiga to'g'ri keladi. Yuqori seysmik holatli tumanlarda, shuningdek, qurilish bazalaridan uzoqda joylashgan tumanlarda monolit konstruksiyalarini qo'llash tavsiya etiladi va bunda sirpanuvchan yoki ko'chma opalubkali industrial usullar yordamida binolar barpo etiladi.

Kompakt hal etilgan binolarni qurishda yopmalarni ko'tarish usuli keng tatbiq etilmoqda.

## **MEHMONXONA BINOLARINING ME'MORIY KOMPOZITSIYASI**

Mehmonxona binosining hajmiy-fazoviy kompozitsiyasi unga tegishli ikki asosiy hajmiy element munosibligidan kelib chiqadi: turar joy va jamoat turar joy xonalaridan iborat bo'lgan yashash qismi turli qavatlilikka va katta bo'lmagan qurilish maydoniga ega bo'ladi. Bunda binoning jamoat qismining maydoni 1-3 qavatgacha balandlikka ega bo'lgani holda turar joy guruhi maydonidan ortib ketadi. Shuning uchun mehmonxona majmuasining umumiy arxitekturaviy kompozitsiyasidagi turar joy va jamoat qismlari turli hajmga ega bo'lib, turli mutanosiblikda bo'ladi: jamoat qismi turar joy korpusiga tutashadi; jamoat xonalari guruhi qisman turar joy qismini hajmiga kirib boradi va qisman uning tashqarisida qoladi.

Turar joy qavatidagi enlama kommunikatsiyalarini maksimal qisqartirish maqsadida aksariyat yirik mehmonxonalar ko'p qavatli holda loyihalashtiriladi. Bu bilan qurilish maydoni sezilarli qisqartirishga va rejaning kompaktligiga erishiladi.

## **AVTOSAYYOHLAR UCHUN MEHMONXONALAR**

Oddiy turdagi mehmonxonalardan farqli o'laroq, motellar ham qavatli, bir-biridan ajratilgan, kichik xonalari bo'lgan binolar

bo‘lib, bevosita ular yaqinida avtomobillar turish joylari joylashtiriladi.

Motellardagi turar joylar aksariyat bir xonali va bunda yotoq-xonasi va mukammallashgan sanitariya xonalari vannasi yoki dush bilan loyihalanadi. Ko‘p hollarda motelning turar joy xonalarida yoki oldi qismida oshxona o‘rnatiladi.

Birinchi guruhdagi sxemalarda alohida pavilon ko‘rinishidagi xonalar ko‘rsatilgan; ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi sxemalarda esa motellar ko‘rinishi amaliyotda keng tarqalgan, xonalarni bloklashtirish usuli ko‘rsatilgan. Uchinchi va to‘rtinchi usullar nisbatan iqtisodiy samarali bo‘lib, bunda sanitariya xonalari bino uzunligini maksimal qisqartirgan holda uning yon tomonida joylashadi.

Xonalarni bir qator bloklashtirishda sanitariya xonalariga kiraverish tarafdin yoki avtomobillar turish joyi ajratgan holda shluiz orqali kirish mumkin bo‘lgan holda joylashtiriladi.

Ikki qatorli xonalarni bloklashtirishda sanitar-texnik moslamalar 4 tadan guruhlashgan holda ichkarisida yoki xonalar oralig‘ida sun‘iy yoritgichlikka ega holda joylashtiriladi. Sanitariya xonalari ular ichkarisida joylashganligi iqtisodiy samaralidir.

Motellarni loyihalashda turar joy xonasining avtomobillar turish joyi bilan bog‘lanishi katta ahamiyatga ega. Avtomobillarni motellarda joylashtirilishining qator usullari mavjud. Eng sodda usullardan biri avtomobillarni xonalar oldida joylashtirishdir. Bunday yechim bir qatorli bloklashtirilgan turar joy xonalarida nisbatan qulay bo‘lib, ikki qatorli bloklashtirishda esa noqulay. Turar joy xonalari orasida avtomobillarni joylashtirish yanada qulay bo‘lib, bunda harakat bir yoki ikki tomondan amalga oshirilishi mumkin.

Yana bir boshqa holda ikki qavatli motellarning turar joy xonalari ostida avtomobillar joylashtirilib, bunda xonalar derazalaridan tashqi ko‘rinish yaxshilanadi va qurilish maydonlaridan tejamkorlik bilan foydalanish ta‘minlanadi.

